

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
 Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
 Seyhan Tanju (Turkiya)
 Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
 Benedek Peri (Vengriya)
 Vahit Turk (Turkiya)
 Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
 Eunkyung Oh (Koreya)
 Nazef Shahrani (AQSh)
 Boqijon To'xliyev
 Muhammadjon Imomnazarov
 Bilol Yujel (Turkiya)
 Qosimjon Sodiqov
 Zulxumor Xolmanova
 Mustafa O'ner (Turkiya)
 Nurboy Jabborov
 G'aybulla Boboyorov
 Kimura Satoru (Yaponiya)
 Imran Ay (Turkiya)
 Aftondil Erkinov
 Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
 Rashid Zohidov
 Otabek Jo'raboyev
 Bulent Bayram (Turkiya)
 Qo'ldosh Pardayev
 Nodirbek Jo'raqo'ziyev
 Oysara Madaliyeva
 Hilola Nazirova

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Jaloliddin Jo'rayev**

Som Mirzo Safaviyning "Tuhfai Somiy" tazkirasini
 haqida 4

Zebiniso Xurramova

Mirzo Umrboqiy hayot yo'li va adabiy merosi
 xususida 21

Akrom Malikov

Navoiyshunoslik kontekstida matn tadqiqi
 ("G'aroyib us-sig'ar" devoni misolida) 33

ADABIYOTSHUNOSLIK**Dilnavoz Yusupova**

Turkiy adabiyotda arba'innavislik an'anasi:
 Alisher Navoiy va Muslihiddin Mustafo
 Axtariy "Arba'in"lari misolida 66

Muhsin Macit

Ali Şir Nevâyî'nin Mecmualarda Bulunan
 Gazelleri Üzerine 78

Fayzulla Iskandarov

Na'tning tarixiy-adabiy ildizlari va taraqqiyoti 89

LINGVISTIKA**Mushtariy Xolmuradova**

"Qutadg'u bilig"dagi baho munosabatini
 ifodalovchi leksemalar 107

Mavluda Sharipova

Navoiy asarlaridagi literonimlar lingvopoetikasi 122

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Jaloliddin Juraev**

About "Tuhfai Somi" Tazkira by Som Mirza Safavi 4

Zebiniso Khurramova

About Mirza Umerbaqi's way of life and eternal legacy 21

Akrom Malikov

Text research in the context of Navoi study (In the example of the deewan "Gharoib al-sighar") 33

LITERATURE**Dilnavoz Yusupova**

Tradition of Writing Arbain in Turkish Literature: on the Example of "Arbain" by Alisher Navoi and Muslikhiddin Mustafa Akhtari 66

Muhsin Macit

On Ali Şir Nevâyî's Ghazals Found in Magazines 78

Fayzulla Iskandarov

Historical-literary roots and development of Naat 89

LINGUISTICS**Mushtariy Kholmuradova**

Lexemas Representing relationship in "Kutadgu bilig" 107

Mavluda Sharipova

Linguistics of literary names in Navoi's works 122

MATNSHUNOSLIK

TEXTOLGY

Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy” tazkirasi haqida

Jaloliddin Jo'rayev¹

Abstrakt

Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy” tazkirasi temuriylar davlati barham topgandan keyin bunyodga kelgan safaviylar davlati doirasida yaratilgan ilk tazkiralardan sanaladi. Tazkira temuriylar davrida shakllangan adabiy an'ana, mazkur davrda tanilgan turkiy ijodkorlar asarlarining yangi davlat hududlaridagi o'rne, yangi shakllanayotgan adabiy doiraga ta'siri, turkiy adabiyotning adabiy jarayondagi ahamiyatiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni jamlagan manba sifatida qimmatli.

Maqolada “Tuhfai Somiy”ning yaratilishi, tuzilishi, qo'lyozma nusxalari, nashrlari va o'zbek adabiyotiga daxldor o'rinlari xususida ma'lumot berilgan. Som Mirzo tazkirasidagi Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ining ta'siri ko'rsatib berilgan. Shuningdek, “Majolis un-nafois” tazkirasiga kirgan ayrim ijodkorlar haqidagi ma'lumotlarning matniy qiyosi amalga oshirilgan. Bular orqali Som Mirzo tazkirasining ilmiy ahamiyati dalillangan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, tazkira, temuriylar davri, adabiy muhit, qiyosiy tahlil.*

Kirish

Som Mirzo (1517-1567) safaviylar davlati hukmdori – Ismoil Safaviy (1487-1524, 1500-1524)ning o'g'lidir. U hukmdor fanzandi bo'lgani bois alohida ta'lim va tarbiya olgan. Bir muddat Xuroson hokimi bo'lgan (1521-1529, 1533-1535). Keyinchalik vaqtini ko'proq ijod, qalam ahli bilan suhbat va tazkirasi uchun ma'lumotlar to'plashga sarf qilgan. Som Mirzodan bizgacha “Tuhfai Somiy” (1550) tazkirasi va boshqa manbalar orqali she'riy merosidan namunalar yetib kelgan. Chunonchi, Faxriy Hiraviy: “Abulnasr Som Mirzo.

¹ Jo'rayev Jaloliddin Olimjonovich – filologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

E-pochta: oyqor@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8367-186X

Iqtibos uchun: Jo'rayev, J. O. 2023. “Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy” tazkirasi haqida”. *Oltin bitiglar* 3: 4-20.

Nazmda yaxshi tab'i bor. Mana bu ikkita matla'da uning quvvati va tab'ining latofati zohirdir", - deydi va ikki matlasi va bitta ruboiysini havola qiladi [Хұравий 2014, 87].

Sodiq Kitobdor esa: "Som Mirzo – bu shahzoda ham marhum shoh (Shoh Taxmosb I)ning inisi edi. Aysh-ishratni sevardi. Bir necha yil Xurosonda hokimlik qildi. Muxtalif nazm va nasr navlarida sho'x va muhkom tab'i bo'lgan. "Tuhfai Somiy" otlig' bir shoirlar tazkisasi yozdi. Oxirda Shayx Sayfiddin quddisa sirruhu-l-aziz maqbarasiga chekinib, shoirlilik-la mashg'ul bo'ldi", - deydi va bir ruboiysini keltirgan [Muhammad Sodiq Kitobdor 2019, 25].

"Tuhfai Somiy"ning alohida "Zayl" deb nomlangan xotima qismida muallif o'z asarlaridan namuna keltirgan. Bular bilan birga tazkiraning ko'pgina o'rinida Somiy biror bir ijodkor asari xususida so'z yurita turib "she'rning shu bayotini mana bunday o'rgantirsa, yaxshi bo'lardi" yoki "ushbu o'rinda saktalik bor" deb ko'rsatib o'tadi. Shoirlar ijodidan keltirilgan namunalarning badiiyati va vazn xususiyatiga alohida baho berib o'tadi. Ushbu jihatlar Som Mirzoning adabiyotdan chuqur bilimga egaligini bildiradi.

"Tuhfai Somiy"ning tuzilishi, nashri va qo'lyozma nusxalari

Som Mirzo davlat ishlari bilan bandlik davri va keyinchalik qalam ahllari bilan bo'lgan suhbatlar natijasida o'z davri adabiy jarayonini yorituvchi tazkira bitilmaganini ko'rib, bu bo'shliqni to'ldiruvchi asar tartib berish istagi yuzaga kelgan. Shunga ko'ra, o'zigacha tuzilgan Jomiyning (1414-1492) "Bahoriston" (1487), Davlatshohning (1435-1495) "Tazkirat ush-shuaro" (1488) va Navoiyning (1441-1501) "Majolis un-nafois" (1490-91) singari tazkiralarning xususiyatlarini o'rgangan va "Majolis un-nafois" shaklida asar bitishga qaror qilgan.

Jumladan, bu to'g'rida asar muqaddimasida Jomiy, Davlatshoh va Navoiy kabi mualliflarning tazkiralarda safaviylar davrida yetishib chiqqan ijodkorlar haqida ma'lumot yo'qligini qayd qilib, ular haqida yozishni maqsad qilganini bildiradi. Yana davom etib: "... "Tuhfai Somiy" deb nomlangan bu qimmatli sahifa bir tanbeh, yetti sahifa va bitta xotimani o'z ichiga oladi", - deb yozadi [Som Mirzo Safaviy 57, 3b-4a]¹. Shunga ko'ra, tazkiraning birinchi sahifasi "Mag'fur hazrat sohibqironning farxundamol ahvolidin bir bo'lak

¹ Barcha o'rinlarda "Tuhfai Somiy"dan olingan parchalar maqola muallifining tarjimasida berilgan.

va hozirda sulton bo'lgan avlodi va farzandlari zikrida", ikkinchi sahifa "Ulug' sayyidlar va ifodate'lom ulamo zikrida", uchinchi sahifa "Karamli vazirlar va boshqa qalam arbobi zikrida", to'rtinchi sahifa "Garchi shoir bo'lmasalar ham ba'zida tillari she'r aytishga ochilgan ulug'lar va vojib ut-ta'zimlarning zikrida", beshinchi sahifa "Iste'dodli shoir va balog'atgustar so'zamollar zikrida", oltinchi sahifa "Turklar tabaqasi va ularning iste'dodli shoirlari zikrida", yettinchi sahifa "Boshqa avom va so'zning oxiri zikrida" deb nomlangan. Xotimada Som Mirzo o'zi haqida ma'lumot beradi va she'rlaridan namunalar keltiradi [Навоий 1966, 213].

"Tuhfai Somiy" da Movarounnahr, Xuroson, Eron, Afg'oniston, Hindiston va usmonli turk davlati shoir va adiblarining faoliyati yoritilgan. Shu bois tazkira tartib berilgandan so'ng ko'pchilik adabiyot ixlosmandlari uchun qiziqarli manba sifatida e'tiborda bo'lgan va bir qancha nusxa ko'chirilgan deyish mumkin. Bularni biz keyinchalik tuzilgan tazkiralardagi ma'lumotlarning Som Mirzoga tayanib berilganidan ham bilishimiz mumkin. Xususan, asarning shu jihatlari haqida ma'lumot bergan Vahid Dastgirdiy Aliqulixon Volah Dog'istoniy "Riyozi ush-shuaro" da, Ozar Bekdili "Otashkada" va Rizoqulixon Hidoyat "Majma' ul-fusaho" da "Tuhfai Somiy" dan ko'plab iqtibos keltirganini qayd qiladi [Safaviy 1314, B-S.]. Bular bilan birga Faxriy Hiraviyning "Ravzat ul-salotin", Alouddavla Qazviniyning "Nafois ul-maosir", Mir Husayn Do'st Sanbahliyning "Tazkirai Husayni", Husaynqulixon Azimobodiyning "Nishtari ishq", Mavlono Abdulg'anixon Mufarraxobodiyning "Tazkirat ush-shuaro" kabi tazkiralarda ham Som Mirzodan keltirilgan havolalar uchraydi.

Shunday bo'lsa-da, "Tuhfai Somiy" ni nashrga tayyorlagan Vahid Dastgirdiy tazkira qo'lyozmalarining kamyob ekani, Tehronda faqat ikki nusxasi topilganini yozadi. Mazkur ikki qo'lyozmaning bittasi Oqoi Najmobodiyning shaxsiy kutubxonasida saqlanib, shu nusxa nashr uchun asos bo'lgan. Tehrondagii kkinchi qo'lyozmadan foydalanish imkoni bo'lmay, kelgusida u bilan tanishish va mavjud nusxadagi nuqsonlarni bartaraf qilish imkoni tug'ilishiga umid qilib qoladi [Som Mirzo Safaviy 1314, B-S.].

"Tuhfai Somiy" o'tgan asrda Hindistonning Patna shahri universitetida Iqbol Husayn tomonidan ham nashr qilingan. Bu to'g'rida "Kobul" jurnalining uchinchi sonida maqola berilgan bo'lib, muallif noshir aytganidek, garchi ushbu nashrga Patnadagi Kutubxonai mashriqiydagi 928/1522-yilda Som Mirzo vafotidan o'n ikki yil oldin ko'chirilgan 209-raqamli va 971/1563-yilda ko'chirilgan 210-raqamli qo'lyozmalarga asos bo'lgan va tazkira

qo'lyozmalari juda kam topiladi deyishiga qaramay, uni Hindiston shaharlarining har birida kamida ikkita nusxasi bo'lishi ehtimolini bildirgan [Muallifi ko'rsatilmagan 8762, 276-278].

So'nggi yillarda "Tuhfai Somiy" Rukniddin Humoyun Farrux tomonidan Tehronda hamda Badriddin Maqsudov tomonidan Dushanbeda ham nashr qilingan [Som mirzoi Safavy 2018, 380]. Afsuski, mazkur nashrlar bilan tanishish imkoni bo'lmadi. Ayni paytda qo'limizda "Tuhfai Somiy"ning Vahid Dastgirdiy tomonidan shamsiy 1314-yil Tehronda "Armug'on" matbaasida qilingan nashriy nusxasi va to'rtta qo'lyozmasi mavjud. Qo'lyozmalarning ikkitasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 57 va 4377-raqamlari bilan saqlanadi.

57-raqamli qo'lyozma matni mayda nasta'liq xatida qora siyoh bilan o'n to'rt qatordan qilib ko'chirilgan. Sarlavha, shoirlarning ismi, oyat va hadislar qizil rangda yozilgan. Matn tillarang va ko'k rangli jadval ichiga olingan. Tazkira matnining boshlanishi unvon bilan bezalgan. Kolofon matni biroz uringani sababli kotib nomiga oid ma'lumotlarni o'qish imkoni yo'q. Ko'chirilgan sanasi 984/1576-yil deb qayd qilingan. Tazkira oxirida ikkita muhr bosilgan bo'lib, matni zararlangan. Yashil rangli charm muqova. Uchta tamg'asi bor. 189 varaq. O'lchami: 11,5x22.

4377-raqamli qo'lyozma matni sariq rangli qog'ozga nasta'liq xatida qora siyoh bilan ko'chirilgan. 20-27 varaqlar ko'k rangda. Sarlavha, shoirlarning ismi, oyat va hadislar qizil rangda. Bulardan tashqari ko'plab o'rinda matn hoshiyada davom ettirilgan. 156 varaqdan iborat tazkiraning debocha qismidan ikki varaq tushib qolgan. Shuningdek, "Taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoirlar zikri" deb nomlangan beshinchi sahifaning ikkinchi matla'siga kirgan 156a-varaqdagi Mavlono Fahmiyga oid fiqraga yetganda matn uzilgan. Shu tariqa bu qo'lyozmada yuzdan ortiq shoir haqidagi ma'lumot kam bo'lib qolgan. Qo'lyozma matni shu yerda tugagan bo'lsa ham, 156b-varaqa bo'sh qolgan. Qo'lyozmaning qayd qilingan jihatlariga ko'ra, ushbu nusxa zikr qilingan kabi nuqsonli matn asosida tartib berilgan deb, xulosa qilish mumkin. 73a-varaqda 1,0x1,5 sm o'lchamdagi tuxumsimon muhr bosilgan. Muhrda: "Husayn bin Abbas Ali. 1197/1783" yozuvi bitilgan. Qo'lyozma muqovanining o'ng tomonia jigarrang charm muqova. Uchta tamg'asi bor. Muqovaning chap tomoni yashil rangli qattiq karton muqova. Uchta muhri bor. Muhrda sahhofning ismi va sana qayd qilingan: "Mullo Muhammad Sharif. 1228/1813".

Eron fondlarida "Tuhfai Somiy"ning bir nechta qo'lyozmasi

mavjud bo'lib, internetda ochiq foydalanish uchun qo'yilgan. Ulardan biri Kitobxonai majlisi shuroi milliyda 14194/I-raqami ostida saqlanadi. Jigarrang oddiy karton muqova. Qo'lyozma betlariga keyinchalik raqam qo'yilgan. "Tuhfai Somiy" qo'lyozmaning 2-147-betlaridan o'rin olgan. Har bir betga qirq bir qatordan matn joylashgan. Sarlavhalar, shoirlarning ismi va ayrim o'rinlar qizil rangda ajratib yozilgan. Kolofonda tazkiraning ko'chirilgan yili hijriy hisobda avsati rabi al-avval 1034 (1625 dekabr oyining oxirlariga to'g'ri keladi) deb ko'rsatilgan. Tazkiraning boshlanishida mundarija berilgan. O'lchami: 11x32.

Ikkinchisi Kitobxonai majlisi Sinoda 7626-raqami ostida mavjud. 159 varaqdan iborat. Matn qora rangli siyoh bilan o'rtacha kattalikdagi nastaliq xatida o'n yetti qatordan qilib ko'chirilgan. Sarlavhalar, shoirlarning ismi va ayrim o'rinlar qizil siyohda. Tazkira tugagandan keyin asosiy matndan farq qiladigan mundarija matni ilova qilingan. Kolofonda kotib nomi va ko'chirilgan sanasi ko'rsatilgan. Matnga biroz zarar yetgani sababli to'liq o'qishning imkoni yo'q. Undan "Kotib al-faqir Ibrohim ... marhum Mustafobek..." so'zlarini o'qish mumkin. Jigarrang charm muqova. O'lchami: 16x25. Matn xususiyatiga ko'ra qo'lyozma o'n to'qqizinchi asrga mansub.

Tazkiradagi o'zbek adabiyotiga oid o'rinlar

Tazkiraga Movarounnahr, Xuroson, Eron, Afg'oniston, Hindiston va usmonli turk davlati hududlarida yashab ijod qilgan qalam ahli haqida ma'lumot berilgan. Xususan, asarda Sulton Husayn Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Muhammad Mo'min Mirzo, Bobur podshoh, Humoyun podshoh, Askariy Mirzo kabi temuriyzodalardan qatorida Shayboniyxon va shu sulolaga munsab Ubaydullohxon, Rahimiylarning nomi zikr qilinadi. Bulardan tashqari Mavlono Kavkabi, Mavlono Ziyoiy Buxoroiy, Mavlono Adoiy Buxoroiy, Vosiliylar buxorolik, Mavlono Anisiy [Джабборов 2021, 59; Навоий 2021, 420], Mavlono Adburkarim Podshoh (Anisiyning ukasi), Mavlono Husomiy Qaroko'liylar xorazmlik, Mavlono Rasmiy, Mavlono Ruhiy Samarqandiy, Mavlono Nodiriy, Hamdamiy Samarqandiy, Mavlono Okifiy, Mavlono Bixudiy, Shoh Tohir (Mirxondning avlodi) kabi samarqandlik ijodkorlar, Mavlono Hajriy Andijoniy, Termiz sayyidlaridan Amir Xonzoda Hoshim, keshlik Ayyub Abu Baraka, Hirotdan Buxoroga borib muqim yashab qolgan Miram Siyoh, qaysi shahardan ekani ko'rsatilmay Movarounnahr, Turon yoki chig'atoylik deb ko'rsatilgan Manzariy, Mavlono Rahoiy, Mavlono

Hiloliy, Xoja Osafiylar haqida soʻz yuritilgan.

Tazkiraning alohida "Turklar va ularning maʼlum shoirlarining zikri" deb atalgan oltinchi sahifasida Alisher Navoiy, Amir Shayx Nizomiddin Ahmad (Suhayliy), Mir Muhammad Solih, Mavlono Ohiy, Amir Husayn Ali Jaloyir (Tufayli), Mir Shohali singari oʻzbek adabiyotiga daxldor boʻlgan qalam ahllarining hayoti va ijodiga oid maʼlumotlar taqdim qilingan.

Alisher Navoiy bilan bogʻliq oʻrinlar

Som Mirzo tazkirada alohida fiqra doirasida Navoiy shaxsiyati va ijodiga yuksak hurmat va eʼtiborini bildirgan. Bulardan tashqari koʻplab oʻrinlarida boshqa shoirlarning unga munosabatini yoritishga eʼtiborini qaratgan. Jumladan, "Mir Hoj degan shoir haqida yozar ekan: Mir Hoj – Xuroson sayyidlari jumlasidan. Tahorati asl va tabʼ latofatida tahrir va bayonga muhtoj emas. Aytishlaricha, inqitoʻ va tajarrudi shu darajada boʻlib, bir kuni Hazrat Amir Alisher uning hujrasiga kirdi. U yerni ahli dil xotiri dunyoviy matolardan xoli koʻrdi. Bexosdan qarab, xotiri shariflariga keldiki, barcha kerakli naqdu jins narsalarni tartiblab bu yerga yubordi. Hazrat Mir uyiga kelib, u asbob va yaroqni koʻrdi va hujraning eshigini yopib, boshqa yerga ketdi", – deb ikki ijodkor oʻrtasidagi munosabatni koʻrsatib oʻtgan [Som Mirzo Safaviy 57, 26a-26b].

Mirzo Shoh Husaynning isfahonlik ekanini yozib, "... Xushtaʼblik va zarofatda Amir Alisherga taqlid qilardi", – deydi [Som Mirzo Safaviy 57, 56].

Shayx Najm Yaʼqubiy haqida soʻz yuritib, uni asli sovalik boʻlgan Qozi Isoning ammasining oʻgʻlidir, deydi va "Darveshtabʼligi va maqbulligi bilan podshohning barcha eng yaqin nadimlari ichida peshvo, xulqi va ommaning qabuli bilan hammasidan ziyoda edi. U va Mir Alisher oʻrtasida gʻoyibona muhabbat va maktub almashish boʻlgan. Chunonchi, "Majolis un-nafois"da ana shu mazmunga ishora qilingan. Bir vaqti u bemor boʻlib podshoh uni koʻrish uchun kelganda, tongda maqsad jomidan sabuhiy qilgani va tezda oʻrnidan turgani voqeasi mashhur. Shayx Najmning mana bu bir necha bayt badihatani aytgan oʻsha gʻazalidan boʻlib, podshohning ortidan yoʻllagan", – deb sheʼridan namuna beradi

Bular bilan birga Qozi Sinjoniy haqida: "U kishi Shoh Sinjon avlodi va Ajamdagi Sinjon qishlogʻidan. Zehnining ziyodaligi va fahmining oʻtkirliigi maʼlum. Zakosining yuksakligi va xotirining sofliigi taʼriflangan edi. "Maxzan ul-asror"ga tatabbuʼ boʻlgan "Manzar ul-absor" asarini Amir Alisherning nomiga bagʻishlab nazm

silkiga tortgan edi”, deb asarning na’t qismidan quyidagi uch baytni keltirgan:

*Yaloni na’razan bar sari on hisor,
K-zi on to falak bud yak na’ravor.
Spehri munaqqash palangi dar u,
Chu Alburz har pora sangi dar u.
Misli gar kasi ro dar u rahi badi,
Ajral ro az u dast kutah badi.*

Mazmuni:

*Na’razan bahodirlar u qal’aning ustida,
Falakkacha bir na’rachalik masofa edi.
Manaqqash osmon, qoplon bor unda,
Har bir bo’lak toshi Alburzdek unda.
Go’yo bir kishining yomon yo’li bo’lsa unda,
Ajral yomonlikning qo’lini qisqa qiladi.*

Som Mirzo Ahliy Sheroziy haqida yozib: “Mavlono Ahliy Shiroziy shuaroi kirom va fuzaloi izom silkida o’rni bor edi. Faqirlik, miskinlik va qalbi bilan dunyo kishilariga munosabti shu darajada mashhurki, ta’rifga ehtiyoji bo’lsa. Aksar suxanvarlik maslagi soliklaridan mahoratining ko’pligiga ko’ra katta farqi bor. Ilmi qofiya, aruz va muammoda komil edi. Barcha she’r turlarida aytardi. Ham zubahrayn, ham tajnisli masnaviy aytgan bo’lib, unga aql hayron. Xoja Salmonning masnu’ qasidaga Amir Alisherga bag’ishlab tatabbu’ qilgan. Bir nechta jihatlari bilan yuksakligi va yaxshiroq aytgani uchun Amir Alisher munosib baholagan. G’azalda ham oshiqona she’rlari bor. O’sha jumladan bir nechta bayt tahrir silkiga kirdi”, – deb yetti bayt she’r va bitta ruboiyni havola qilish asnosida 942/1535-36-yilda Sherozda vafot etganini bildiradi [Som Mirzo Safaviy 57, 101b]. Navoiy ham Ahliy Sheroziy haqida so’z yuritgan bo’lsa-da, shoirning Salmon Sovajiyning qasidasiga tatabbu’si o’ziga bag’ishlanganini kamtarlik yuzasidan qayd qilmagan [Навоий 1966, 104].

Navoiy va Som Mirzo tazkiralari matniy qiyosi

Som Mirzo so’zboshida aytganidek, oldingi tazkiralarda urf bo’lgan yoshi ulug’ shoirlar haqidagi ma’lumotlarni takrorlamay, balki o’z davrida yashab ijod qilayotgan ijodkorlar faoliyatiga asosiy e’tiborini qaratadi. Shu bois, ma’lum ma’noda Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi qaydlarni to’ldirishga xizmat qiladi. Buni bir nechta misol doirasida ko’rishimiz mumkin. Chunonchi, Navoiyda Hiloliy haqida: “Mavlono Hiloliy – turk elidindur. Hofizasi

yaxshidur. Tab'i dag'i hofizasicha bor. Sabaq o'qumoq taklif qilibdur, umid ulkim, tavfiq topgay. Bu matla' aningdurkim:

*Chunon az po fikandam imruzam on raftoru qomat ham,
Ki, fardo bar naxezam, balki fardom qiyomat ham",*

deyish bilan kifoyalansa, Som Mirzo: "Mavlono Hiloliygarchi chig'atoylik turklardan bo'lsa ham, Astrobod viloyatida nashvunamo topgan. Yigitlik ayyomining boshida, bolalik va nodonlikning soyasi ostidan chiqqanidan keyin Xuroson tomonda Hirot shahri ufqidan tulu' qildi. Qobiliyati va darajasining nuri peshonasidan porlab turgan edi. Yangilar uni hayit oyga o'xshatib bir-birlariga ko'rsatardilar. Misra':

Dar shahr chu mohi navm angushtnamo kard.

Mazmuni:

Shaharda uni yangi oyga o'xshatib ko'rsatdi.

Fazilat manzillarini tugagani va xislatlar darajasidan o'tgandan keyin umidi hiloli to'linlik sarhadiga yetdi. Filvoqe, bir hilol bo'lib, uning to'linligi quyosh va oyning tutilishi, o't va badri munirligi nuqsandan himoyalangan:

Hiloli bari az kusufu kasofat.

Mazmuni:

Kusufu kasofatdan xoli Hiloldir.

She'r uslublari va kalom qismlarida tab'i bag'oyat marg'ub. G'azal. qasida va masnaviyda so'zning dodini bergan. U kishi mening suhbatimga ko'p marta yetishgan. Bir marta ilk bor Mir Alisher Navoiy mulozimatiga yetishganimda mana shu matla'ni o'qigan edim degan edi. Bayt:

*Chenon az po fikanad imruzam on raftoru qomat ham,
Ki fardo barnaxizam balki fardo qiyomat ham.*

Mazmuni:

Shunday yiqitadi bu u raftoru qomat ham,

Ertaga torolmasman, balki ertaga qiyomat ham. U kishiga o'qib berdim. Mirzoga juda yoqdi. "Taxallusing nima?" – deb so'radi. "Hiloliy", – dedim. "Badr ekansan, badr ekansan", – dedi va meni mutolaaga da'vat qildi, – "Tahsilga mashg'ul bo'ldim". Filvoqe', fazilatlarida asr fozillaridan kam emasdi. She'rning kamolini o'sha kamolotga yetkazgan edi. Masnaviyda uchta kitobni nazm rishtasiga chekkan. Shu jumladan, bittasi "Shoh va darvesh" bo'lib, aksar ustozlarning masnaviysidan lafzining ravonligi va ma'nosining choshnisi bilan oldinda. Pokligidan gulistonning rashki, balki, bo'ston fazosining g'ayrati keladi", – deydi. Bulardan keyin tazkirada

shoirning "Shoh va darvesh"idan o'n besh bayt, "Sifot ul-oshiqin"idan uch bayt, "Layli va Majnun"idan ikki bayt namuna keltirgan. Bulardan keyin bir nechta g'azal va ruboiysidan to'liq keltirib, qasidalaridan baytlarni taqdim qilgan [Som Mirzo Safaviy 57, 89a-89b].

Bulardan keyin: " Oxirida undan ajab holat zuhur bo'lib, shiya o'rtasida sunniylikda mashhur edi, Ubaydullohxon O'zbek uni sen shiyasan deb o'ldirdi. Bu sana sitta va salasin va tis'amiya (936/1529-30)da bo'ldi. Aytishlaricha, uni qatl qilishga olib borayotganlarida boshini yorishidi. Qon yuziga oqib tushayotgan mahalda mana bu qit'ani o'qidi. Bayt:

*In qatra xun chist baruyi tu Hiloliy,
Guyoki dil az g'ussa baruyi tu david.*

Mazmuni:

*Yuzingdagi bir tomchi qon nedir Hiloliy,
Go'yo dil g'ussadan yuzingga otilib chiqqan.*

Bannoiy haqidagi ma'lumotlar ham qiziqarli. Navoiy: Mavlono Binoiy – avsot un-nosdindur, muvalladi Hiriyl shahridur. Bag'oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg'a mashg'ul bo'ldi, anda ko'p rushdi bor edi bot tark qildi. Xatga ishq paydo qildi. Oz fursatda obodot bitildi. Andin so'ng ilmi musiqiyg'a mayl ko'rguzdi. Advor ilmi bilan bot o'rganib, xili ishlar tasnif qilib, advorda dag'i risola bitdi. Ammo mujib va mutasavvirlik'idin el ko'nglig'a maqbul bo'lmadi. Bu sifati salbi uchun faqr tariqini ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo'q erdi, o'z boshicha qilg'on uchun hech foyda bermadi. El ta'nu tashniidin Hiriylida turolmay Iroqqa bordi. Andin dag'i ushbu rang ovozlari yibordi. Ammo chun yigitdurur, qobil va ko'p g'urbat va shikastalıklar tortti, umid uldurkim, nafsig'a ham shikasta va tavoze' yetmish bo'lg'ay. Har tarqdir bila bu matla' aningdurkim:

*Ba surmaharkisiyah kard chashmiyorimaro,
Basoni surma siyah kard ro'zgori maro",*

- deb yozadi [Навоий 1966, 74].

Som Mirzo esa Bannoiy¹ haqida quyidagicha ma'lumotlarni havola qilgan: Mavlono Bannoiy tug'ilgan joyi Hirot. Otasi quruvchi edi. Shunga ko'ra, shu taxallusni ixtiyor qildi. Asli zoti qobil

¹ Aksar tadqiqotlarda "Bannoiy" "Binoiy" tarzida berilgan. Som Mirzoning ma'lumotiga tayanadigan bo'lsak, o'zini quruvchi avlodidan ekaniga ishora qilgani bilinadi.

bo'lgani uchun aksar fanlar musobaqasida to'pni tengqurlaridan olib qo'yardi. Fazilatlarining asosi o'shalar tomondan mustahkam asos paydo qilgan. Amir G'iyosiddin Mansurning aytishicha, Mullo Bannoiy shoirlarning mullosi va mullolarning shoiridir. Xushnavislik va xushxonlikda mashhur edi. Musiqa ilmi va riyoziyfanining qismlaridan bo'lgan advorga oid risolalari bor. Tab'ining latofat va zarifligi shu darajada ediki, mizojining nazokatiundan mashhurroq bo'lgani uchun ta'rifga ehtiyoji bo'lganidan, Mir Alisherga qiyosan so'zlar aytgan. Jumladan, bir kuni egarchilik do'koniga borib, Mir Alisherning egaridan (Poloni Mir Alisheriy) xohlayman dedi. Bu so'z Mir Alisherga yetdi. Unda yomon mizojilik paydo qildi. Chunonchi, vatanida aslo tura olmadi. Iroq tomonga yuzini burdi. Sulton Ya'qubning xizmatida oz-oz taraqqiy paydo qildi. "Bahrom va Behruz" kitobini mazkur podshoh nomiga bitdi. Sulton Ya'qubning birodari Yusufbek ham o'sha orada vafot bo'lgan edi, o'sha haqda mana bu baytni aytdi. Bayt:

*Na zi Yusuf nishon didam, na az Ya'qub osori,
Azizon Yusuf ro gum sho'd, che sho'd Ya'qub ro bori.*

Mazmuni:

*Na Yusufdan nishon ko'rdim, na Ya'qubdan asar,
Azizlar, Yusuf yo'qoldi, ne bo'ldi Ya'qubga yana.*

Biroz muddatdan keyin vatanga muhabbat una Hirot tomonga yetakladi. Yana bir marta undan nomuloyim ishlar vujudga keldi. Bu navbat Amir Alisher undan oldingidan ham ko'proq ranjidi. Ish shu darajaga yetdiki, qatliparvonasi hosil qildi. Shunday ranjishlaridan ushbuki, mirning uylanish tomonga e'tibori yo'qligi ma'lum edi va mavlono shu to'g'risida qasida yozdi. Sovg'a yoqadigan bo'lsa ham unga yetib kelmadi. Shunga ko'ra, o'sha qasidani Sulton Husayn mirzoning qarindoshi Sulton Ahmad mirzoning nomiga yozib, unga o'tkazdi. Bu mazmun mirning qulog'iga yetdi. Mulloga nisbatan qo'pol munosabatda bo'ldi. Mullo o'ch olish uchun mana bu qit'ani yozib, mirning xizmatiga yubordi. Bayt:

*Duxtaroniki fikri bikri manand,
Har yaki ro bashuhar dodam.
Onki kobin nadodu anin bud,
Zi u sitodam, badigari dodam.*

Mazmuni:

*Sof fikrim bo'lgan qizlarni,
Har ikksin kuyovga berdim.
U qalin bermadi va zaif edi,*

Undan oldim, boshqaga berdim.

Beixtiyor vatanni tark etib, Movarounnahr tomonga keldi va o'sha vaqtda Movarounnahrning voliyasi bo'lgan Sulton Ali mirzo valadi Sulton Ahmad mirzoning xizmatida nadimlik yo'lini topib, u yerda hiraviy tilida "Majma' ul-g'aroyib" qasidasigi nazm silkiga tortdi. Mana bu ikki bayt o'sha yerdan. Bayt:

*Zi onki lozol nofiz in bud,
Hukmi oliy podshohi zamon.
Xusravi mulki Movarounnahr,
Shoh Sulton Ali Bahodirxon.*

Mazmuni:

*Hali bunga ta'siri bo'lganidan,
Podshohi zamonning hukmi oliysi.
Movarounnahr mulkinging xusravi,
Shoh Sulton Ali Bahodirxon.*

Muhammadxon Shayboniy u viloyatni qo'lga oldi va Mavlono Bannoiy xonlik dargohida malik ush-shuarolik mansabini topdi. Unga hamroh bo'lib, Xuroson tomonga yuzlandi va Hirotda uning nomaqbul ishlari zohir bo'ldi. Shu jumladan, bir shoirning molini odamlarga tarqatib yubordi. Sohibqironi mag'fur o'zbek xoni ustga istilo topganda u Movarounnahrning Qarshisida edi. Amir Najmi Soniy sohibqironi mag'furning dasturi azimi bo'lganidan, u viloyatda dast topib, qatli omga farmon berdi. Mavlono Bannoiyning bayoti binosi ham o'sha voqeada yo'qlikka yetishdi. Bu sana sana ashara va tis'amiya (918/1512-13)da yuz berdi. Mavlono Bannoiyning she'rlaridan g'azallar devoni mashhur. Hoja Hofizga tatabbu tarzida Holiy taxallusi bilan bir nechta g'azal aytgan. Javob qasidalari ham bor" [Som Mirzo Safaviy 57, 96b-97b].

Ikki tazkiradagi Ziyoiy O'rdubodiyga oid ma'lumotlar ham biri ikkinchisini to'ldirishi bilan ahamiyatli. Chunonchi, Navoiy yozadi: Mavlono Ziyu –tabrizlikdur. Ko'ngulga yaqin shirin adoliq maqbulg'ina kishidur. Haqir ul-jussa uchun as'hobqa mujibi bast ham bo'lur. Shahrg'a tahsil uchun keldi. Tahsil asnosida she'rga ham ishtig'ol ko'rguzdi, dag'i yaxshigina she'rlar ham aytti. Bu matla' aningdurkim:

*Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda
Ki, binadnaxli umri sham' bunyodi xazon karda.*

Bu matla' ham xub voqe' bo'lubtur.

Xush on soatki, oyad turki mann shamsherikinbo u,

Raqibon jumla bigurezandu man monam hamin bo u
[Навоий 1966, 80-81].

Som Mirzo esa: "Ziyoiy O'rduboiy Ozarbayjonning mashhur shoirlaridan. Umrining avvalida Xurosonga borib, u yerda fahmining noziqligi va zehning o'tkarligi bilan mashhurlikka erishdi. Amir Alisherning majlisiga yo'l topib, o'zining obdor she'rlarini o'qishga kirishdi. Aksar qasidalari lug'az tariqida voqe' bo'lgan. Mana bu matla' undan. Bayt:

*Xush on soatki oyad turki man shamshiri kin bo u,
Raqibon jumla begurizagdu man monam hamin bo u.*

Mazmuni:

*Xush ul soatdir mening turkim kelsa kina shamshiri u bilan,
Raqiblarning bari qochadilaru men qolaman o'sha bilan.*

[Som Mirzo Safaviy 57, 117b].

Ziyoiy bir muddat Hirotda bo'lib, Navoiy va Jomiylar suhbatida bo'ladi. Keyinchalik vataniga qaytib muammo janriga bag'ishlab risola ham tartib bergan bo'lib, undan Alisher Navoiy nomiga yozilgan muammo she'rlari o'rin olgan [Jo'rayev 2014, 93-96].

Tazkiralardagi Mavlono Savsaniy haqida ma'lumotlar ijodkor hayot yo'li va ijodiy biografiyasini yaratishda ahamiyat kasb etadi. Navoiy Savsaniy haqida: Mavlono Savsaniy – ozodavash kishidir. Ko'prak avqot mahdi ul'yo "Gavharshodbegim" madrasasida bo'lur erdi. Ammo emdi shaharda sokindur. Befoyda el bila musohiba qilmas, nevchunkim, bejihat mashaqqatlarni o'ziga ravo ko'rmas. Umid bukim, bu davlat barchag'a nasib bo'lg'ay. Bu matla' aningdurkim:

*Mujarradonki, zi qaydi zamona ozodand,
Na sayd gashta ba domikase, na sayyodand.*

Mazmuni:

*Zamona to'siqlaridan ozod bo'ydoqlar,
Hech kimning domiga sayd bo'lmagan, na sayyoddirlar*

[Навоий 1966, 99].

Som Mirzo Savsaniy haqida "Majolis un-nafois"da gapirilganini qayd qiladi. Bular bilar birga uning fe'li bilan bog'liq qiziq bir voqeani ilova qilgan: Savsaniy – oqqo'yunlilarning ulug'laridan. Oldin hazrat sohibqironning qo'rchilari qatorida turdi. Oxiri undan zohir bo'lgan nomuloyim ish tufayli dargohdan mahrum etildi. She'r yoza olmagan uchun odamlarning she'rini o'ziniki qiladi.

Mana shu abtar varqlarning she'rlarini jamlash bilan mashg'ul vaqtimda undan she'r so'radim. Mana bu Savsaniyning matla'i bo'lib, uning zikri oldin "Majolis un-nafois"da bo'lib, yozilgan va yubordi. Bayt:

*Mujarradonki zi qaydi zamona ozodand,
Na sayd gashta badomi kasi, na sayyodand.*

Mazmuni:

*Zamona to'siqlaridan ozod bo'ydoqlar,
Hech kimning domiga sayd bo'lmagan, na sayyoddir.*

Yana bir kishining naql qilishicha, bir kuni bir nechta diloviz yigit Savsaniy bilan Tabrizda sayr qilib yurgan edik, qaysi yigitga duch kelsak, munosabati hol rasmi tarzida do'stlar o'rtasida unga she'r o'qiyimiz deb qasd qildik. Ittifoqo, qassob yigitning eshigiga yetdik. Har birimiz she'r fikrida bo'lib turgan edim, Savsaniy hammamizdan oldin Mavlono Hiloliyning she'rini o'qidi. Bayt:

*Har goh on qassob tig'i bar galuyi man nehad,
Mizanam sar bar zamin to po ba ruyi man nehad.*

Mazmuni:

*Har goh ul qassob tig'ni tomog'imga tiqqanda,
Boshimni yerga uraman oyog'ini yuzimga qo'ysin deya.*

O'shandan keyin, shoirlar she'r aytish fikrini qilsalar, har lahza ozgina o'ylab boshini ko'tarardi va bir bayt o'qirdi. Do'stlar musavvada qilguncha, g'azal tamom bo'lardi. Savsaniy taxallusi bilan yetti bayt. Do'stlar insof qildilar va yetti baytli g'azalni badiha tarzida aytish juda qiyin bo'lgani uchun tahsin aytdilar. Shundan keyin istirohat anjomlari hammomchining do'koni suffasida yetdi. Do'kon tokchasiga kitob qo'yilgan bo'lib, tasodifan do'stlardan biri u kitobni olib ochdi. Hiloliyning devoni ekan. Ittifoqo, birinchi sahifasidagi Savsaniy o'qigan g'azalga nazari tushdi. Do'stlar hujum qilganlarida u behayoligi bilan tavroud voqe' bo'ldi, aksincha bu g'azlani men hech qachon o'qimaganman va hech kimdan eshitmaganman deb qasam ichdi. Menga yuborgan mana bu turkiy bayt uniki. Bayt:

*Bo'lg'ali mehri ruxing, habib, qabodin tole',
Oyu kun bo'lmadi ko'k manzarasidin lome'*

[Som Mirzo Safaviy 57, 179b-180a].

"Tuhfai Somiy" dagi temuriy va shayboniylarga oid ma'lumotlar

"Tuhfai Somiy"ning "Mag'fur hazrat sohibqironning farxundamol ahvolidin bir bo'lak va hozirda sulton bo'lgan avlodi va farzandlari zikrida" – "Sultonlar zikrida" nomli birinchi sahifada safaviylar sulolasidan bo'lgan shoirlar bilan bir qatorda Sulton Husayn Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Muhammad Mo'min Mirzo, Bobur podshoh, Humoyun podshoh, Askariy Mirzo kabi temuriyzodalar hamda Shayboniyxon va Ubaydullohxon singari shayboniy hukmdorlar zikr qilinadi.

Som Mirzo bu tarzda kamchilik temuriy shahzodalar haqida ma'lumot berganini muqaddimada safaviylar saltanatining bunyodga kelgandan keyin maydonga chiqqan ijodkorlar faoliyatni yoritishga e'tibor qaratishni maqsad qilgani bilan bog'lash mumkin. Shunga ko'ra, "Tuhfai Somi"ga Sulton Husayn va Bobur podshoh hamda ularning ayrim ijodkor avlodlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Chunonchi, Sulton Husayn to'g'risida: "Sulton Husayn Mirzo – podshohi adolatgustar va shahriyori ra'iyatparvar edi. Davlatining bahor ayyomi bahor ayyomidek xurram va xurramlikda saltanati ayyomiga o'xshash...", – deb hukmdorlik faoliyatini baholaydi. Nasr va nazmdagi qudratining yuksakligini aytib o'tib, "Majolis al-ushshoq" tazkirasi uning qalamiga mansubligi qayd qilgan [Som Mirzo Safaviy 57, 10b-11b].

Bobur haqida: "Bobur podshoh kasir ul-ehson – Amir Temur Ko'ragon dudmonidan va uning nasabi shunga ko'ra, Bobur bin Umarshayx bin Sulton Abusa'id bin Mironshoh bin Amir Temuri mazkurning saxovat va shijoat ovozi a'lo va tafakkur qulog'iga yetgan...", – deydi va uning mana bu turkiy matla'sini keltiradi:

*Takalluf har necha suratg'a bo'lsa, ondin ortuqsen,
Sani jon derlar, ammo betakalluf jondin otruqsen*

[Som Mirzo Safaviy 57, 14b-15b].

Tazkirada Shayboniyxon haqida: "Shaybekxonbin Baroqxon bin Abulxayr. Uning nasabi shoh O'zbekxon bin Tug'ralcha bin Naqu qoon bin Bobuy bin Jo'jixon bin Chingizxon bo'lur. U bir nechta vosita bilan Chingizxonga ulanadi", – deb, Shayboniyxon amalga oshirgan ishlardan e'tiborlilari qatorida Firdavsiy "Shohnoma"sini turkiyga o'g'irishga buyruq berganini esga oladi [Som Mirzo Safaviy 57, 20b-21a].

"Ubaydullohxon mazkur Shaybekxonning inisi Sulton Mahmudning o'g'lidir", – deb uning faoliyatiga baho berish asnosida

“Mana bu matla’ unikidir”, – deydi va ushbu forsiy matlani havola qiladi:

*Dust soqiy sho‘du lojaram muhabbat nush ko‘n,
Nist vaqti go‘ftugu, dam darkashu xomush ko‘n.*

Mazmuni:

*Do‘st soqiy bo‘ldiyu shubhasiz muhabbatdan sipqor,
So‘zlashishga vaqt yo‘q, sipqorginu bas qil*

[Som Mirzo Safaviy 57, 21a-21b].

Xulosa

Som Mirzoning “Tuhfai Somiy” Alisher Navoiy boshlab bergan tazkirachilik an’anasini davom ettirib, o‘z davri ijodkorlari faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan qimmatli manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “Tuhfai Somiyda” da “Majolis un-nafois” da ham nomlari qiyd qilingan ko‘plab ijodkorlarga oid fiqralar berilgan. Ularda keltirilganlar Alisher Navoiy ma’lumot-larini to‘ldirishi bilan muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1966. *Мажолис ун-нафоис*. Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти.
- Алишер Навоий. 2021. *Оққўюнли мухлислар девони (1471 йил): табдил ва факсимил матн*. Нашрга тайёрловчилар А.Эркинов, Р.Жабборов. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Джабборов, Р. М. 2021. *Алишер Навоий “Оққўюнли мухлислар девони ва унинг давр адабиё муҳитида тутган ўрни*. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... автореферати. Тошкент.
- Жўраев, Ж. 2014. “Мавлоно Зиё Табризий”. *Ўзбек тили ва адабиёти 1*: 93-96. Тошкент.
- Муаллифи кўрсатилмаган. *Тухфай Сомий*. “Кобул” журнали, учинчи номер. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 8762-рақамли босма китоб. 276-278-бетлар.
- Муҳаммад Содиқ Китобдор. 2019. *Мажмаъ ул-хавос*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Сом Мирзо Сафавий. *Тухфай Сомий*. ЎЗР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фонди. 57-рақамли қўлёзма. 26а-26б-варақ.
- ب سام ميرزا صفوى. تحفه سامى. با تصحيح و مقابله وحيد دستگردى. تهران-مطبعة – ارمغان. ۴۱۳۱ هجرى شمسى – ص
- Соммирзои Сафавӣ. 2018. *Тухфай Сомӣ*. Таҳиягари матн ва муаллифи пешгуфтору тавзеҳот Бадриддин Мақсудов. Душанбе: Маориф.
- Фаҳрий Ҳиравий. 2014. *Равзат ус-салотин. Жавоҳир ул-ажойиб*. Тошкент: Мумтоз сўз.

About “Tuhfai Somi” Tazkira by Som Mirza Safavi

Jaloliddin Juraev¹

Abstract

Som Mirza Safavi's *tazkira* “Tuhfa-i Sami” is one of the first *Tazkira* created within the framework of the Safavid state, which was founded after the Timurid state collapsed. *Tazkira* is valuable as a source that contains a lot of interesting information about the literary tradition formed during the Timurid period, the place of the works of Turkish artists known in this period in the territories of the new state, the impact on the newly formed literary circle, and the importance of Turkish literature in the literary process.

The article provides information about the creation, compilation, manuscript copies, publications and places related to Uzbek literature. The influence of Alisher Navoi's “Majolis un-nafois” under the supervision of Som Mirza is shown. Also, a textual comparison of the information about some artists who entered Alisher Navoi's “Majolis un-nafois” *tazkhira* was carried out. The scientific significance of Som Mirza's study has been proven through these.

Key words: *manuscript, tazkira, Timurid era, literary environment, comparative analysis.*

References

- Alisher Navoiy. 1966. *Majolis un-nafois*. Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 2021. *Oqqo'yunli muxlislar devoni (1471 yil): tabdil va faksimil matn*. Nashrga tayyorlovchilar A.Erkinov, R.Jabborov. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Djabborov, R. M. 2021. *Alisher Navoiy “Oqqo'yunli muxlislar devoni va uning davr adabiyoti muhitida tutgan o'рни*. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
- Jo'raev, J. 2014. “Mavlono Ziyo Tabriziy”. *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 93-96.

¹Jaloliddin O. Juraev – doctor of philological sciences, senior researcher of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

E-mail: oyqor@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8367-186X

For citation: Jo'rayev, J. O. 2023. “About “Tuhfai Somi” Tazkira by Som Mirza Safavi”. *Golden scripts* 3: 4–20.

Toshkent.

Muallifi ko'rsatilmagan. *Tuhfai Somiy*. "Kobul" jurnali, uchinchi nomer. O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi 8762-raqamli bosma kitob. 276-278-betlar.

Muhammad Sodiq Kitobdor. 2019. *Majma'ul-xavos*. Toshkent: Mumtoz so'z.
Som Mirzo Safaviy. *Tuhfai Somiy*. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 57-raqamli qo'lyozma. 26a-26b-varaq.

Sam Mirza Safavi. 1314. *Semitic gift By correcting and dealing with Vahid Tasgardi*. Tehran - Press - Armaghan.

Sommirzoi Safavy. 2018. *Tuhfai Somy*. Tahiyagari matn va muallifi peshguftoru tavzehot Badriddin Maqsudov. Dushanbe: Maorif.

Faxriy Hiraviy. 2014. *Ravzat us-salotin. Javohir ul-ajoyib*. Toshkent: Mumtoz so'z.

Mirzo Umrboqiy hayot yo‘li va adabiy merosi xususida

Zebiniso Xurramova¹

Abstrakt

Sho‘ro davrining 70 yillik hukmronlik davri mamlakatimiz tarixida o‘zining ayanchli oqibatlarini qoldirgani to hanuz yaqin tariximiz qa‘ridan chiqayotgan manbalar va bu manbalar ortidagi ulug‘ shaxslar, ularning hayoti, adabiy merosi –ilmiy-ijodiy asarlarida yanada yorqinroq ko‘rinish bermoqda. Darhaqiqat, yurtimizda XX asr boshlaridan mustaqillik yillarigacha bo‘lgan davrda yashab, yashirin ravishda badiiy, ilmiy ijod bilan shug‘ullangan shaxslar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu avlod vakillari adabiy merosini kompleks ravishda o‘rganish sho‘ro davrining mafkura quroliga aylantirilgan, haqiqiy ilmiy va badiiy yo‘nalishdan uzoqlashtirilgan adabiyot va adabiyotshunoslik ilmlaridagi bo‘shliqni nodir asarlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Xususan, bu borada Mirzo Umrboqiy adabiy merosi alohida o‘rin egallaydi. Bundan tashqari Mirzo Umrboqiy tomonidan husnixatda yozib qoldirilgan matnlar qimmatli xattotlik asarlari sifatida ahamiyatlidir.

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Shahrisabzda “qilqalam” xattot va mahoratli shoir sifatida tanilgan, ammo Turkistonda sho‘ro hukumati o‘rnatilgach, turli tazyiqlarga duchor bo‘lib, Samarqand shahrida muqim bo‘lib qolgan Mirzo Umrboqiy tarjimayi holiga oid faktlar umumlashtirilgan hamda adib adabiy merosi xususida birinchi marta ma‘lumotlar taqdim etilgan, matnshunoslik nuqtayi nazaridan dastlabki tahlillar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma, tazkira, naqshbandiylik tariqati, janr, matniy tadqiq, marsiya, g‘azal, qatag‘on.*

Kirish

Mirzo Umrboqiy haqida birinchi marta Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” (Mirzo Salimbek Salimiy tomonidan 1914-yil chop etilgan) tazkirasida [Bozex 1914]

¹ Xurramova Zebiniso Safarboyevna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat chet tillar instituti.

E-pochta: xurramova@mail.samdcti.uz

ORCID ID : 0000-0002-4781-527X

Iqtibos uchun: Xurramova Z. S. 2023. “Mirzo Umrboqiy hayot yo‘li va adabiy merosi xususida”. *Oltin bitiglar* 3: 21-32.

va keyinchalik “Taronahoi Samarqand” [Taronahoi Samarqand 1965, 2013] kitoblarida ma’lumotlar keltirilgan. Nosir Muhammadning “Nasaf va Kesh allomalari” tazkirasida [Носир Мухаммад 2006] hamda Ne’mat Arslonning adib hayot yo’li, oilasi va qatag’onlar girdobida kechgan umri haqida hikoya qiluvchi “Iztirob farzandi” [Не’мат Арслон 2009] nomli hujjatli qissalari Mirzo Umrboqiy hayotini o’rganishda dastlabki manbalar bo’lib xizmat qilmoqda. Bu borada, ayniqsa “Iztirob farzandi” hujjatli qissasining alohida o’rni va ahamiyati bor. Shuningdek, o’sha davr matbuoti sahifalarida ijodkorning bir nechta she’rlari chop etilgan. Lekin Mirzo Umrboqiyning to’liq adabiy merosi, ijodi xususida bugungi kunga qadar batafsil ma’lumotlar mavjud emas. Mazkur maqola Mirzo Umrboqiyning adabiy merosi haqida birinchi marta adabiy jamoatchilikka ma’lum qilinayotgani, bu kabi shaxslar hayoti va ijodini o’rganish sho’ro davri adabiyotini hech qanday mafkuralarsiz, haqiqiy badiiy, ilmiy asarlar bilan boyitishi, shuningdek, bugungi yosh avlod ong-tafakkurida o’z ajdodlariga bo’lgan hurmat va g’ururni o’stirishga qaratilgani bilan dolzarblik kasb etadi¹.

Tarjimaiy holiga oid muhim ma’lumotlar

Mirzo Umrboqiy 1878-yil Shahrisabz shahrida tavallud topgan. Otasi mulla Avazmurod tijorat ishlari bilan shug’ullangan. U ilmli-ma’naviyatlikishibo’lib, o’z davrining olim-ijodkorlari davrasida, ijodiy muloqotlarida ishtirok etar, ilm-fan ahliga ixlosi baland kishilardan edi. Zehni o’tkir va xotirasi kuchli Umrboqiy ham tez-tez bunday yig’ilishlarga olib borardi. Mulla Avazmurod o’g’lining ta’limi bilan dastlab o’zi shug’ullanadi, keyinroq bolani Shahrisabzning ko’zga ko’ringan kishilaridan mulla Safoiyga shogirdlikka beradi. Umrboqiy sho’x, lekin zehni o’tkir, bilimli va husnixati juda chiroyli yigit bo’lib tarbiya topadi. Ta’kidlab o’tilganidek, Umrboqiy bolaligidan adabiy muhit vakillari suhbatlari va ilmiy-ijodiy muloqotlarini ko’rib, eshitib ulg’ayadi. Mumtoz she’riyatning zabardast namoyandalardan Hofiz, Bedil, Attor, Sa’diy, Navoiy, Fuzuliyilar ijodini chuqur o’rganadi. O’z davrining Mulla Qurbon Xiromiy, Farah Shahrisabziy, Abdulla Rahmon Gulshaniy, Fayzulla Xo’jayev – Ravnaqiy singari ijod ahli

¹ Mirzo Umrboqiy yigirma yildan ortiq umrguzaronlik qilgan Samarqand shahridagi Abulays Samarqandiy mahallasida bugungi kunda u kishining o’g’illari Salohiddin maxsumning farzandlari yashab kelmoqda. Bu sharif zotning qo’lyozma kitoblari davr to’fonlariyu, qatag’on shamollariga qaramay o’g’illari Salohiddin maxsum tomonidan shu xonadonda saqlab kelingan. Mirzo Umrboqiyning nabiralari Jaloliddin hoji buvaga bobolarining qo’lyozma asarlarini taqdim etib, beminnat yordam ko’rsatganliklari uchun o’zimizning chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz – Z.Xurramova.

davralarida mahoratini oshirib boradi.

Qobiliyatli, ilm-ma'rifatni, kitobni juda sevgan Umrboqiy tahsilni Buxoro madrasasida davom ettiradi. Madrasa tahsili tugagach ona yurti Shahrisabzga qaytadi. Afsuski, bu orada otasi vafot etadi. Umrboqiy ota kasbi savdogarlik bilan birga o'zi yaxshi ko'rgan xattotlik ishi bilan muntazam shug'ullana boshlaydi. Balog'atga to'la g'azallari bilan ustozlar nazari va e'tirofiga sazovor bo'lib boradi. Yosh iqtidor sohibining ijod namunalari 1914-yil Qori Rahmatulloh Vozeinning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob" tazkirasiga kiritiladi. Bu uning ijodkor sifatida ustozlar va o'z davri ijodkorlari tomonidan e'tirof etilishi edi, albatta. Husnixat sohibi bo'lgan Umrboqiy Oqsaroydagi hokim mirzaxonasiga mirzolikka, keyinroq bosh mirzolikka tayinlanadi. Biroq ko'p vaqt o'tmay bu osuda hayotga barham beriladi. 1918-yil voqealari boshlanadi. Mirzo Umrboqiy yangi davlat boshqaruv idorasiga mas'ul kotib qilib xizmatga olinadi. Ikki yil shu lavozimda ishlagach, yo sho'rolar partiyasi safiga kirishi yoki ishdan ketishi talab qilinadi. Mirzo Umrboqiy keyingisini tanlaydi...

Endi u sho'ro hukumatining "dushman"iga aylangan va mamlakatni egallab olgan sovet hukumati tazyiqidan qochib darbadarlik va xorlikda kun kechirishga majbur edi. Shahrisabzda vaziyat nihoyatda xavfli bo'lib qolgach, Buxoro madrasasida birga o'qigan saboqdosh do'stini qora qilib Shahrisabzdan piyoda, yashirin holda Samarqanddagi Payshanba qishlog'iga boradi. Afsuski, u do'stining Samarqandga ko'chib ketganini aytishadi. Umrboqiy o'zi va oilasi uchun o'zga shaharlardan panoj istab yurgan bu vaqtda uni qamoqqa olishga kelgan hukumat odamlari katta o'g'li - 13 yoshli Salohiddinni olib ketishadi. O'spirin bola otasi o'rniga 70 kun qamoqda saqlanadi, keyin ba'zi aqli raso kishilarning maslahati bilan yosh Salohiddin Toshkentga maktub yozadi va shundan keyin ozod qilinadi.

1929-yil Umrboqiy yashirin ravishda xat orqali oilasini Kattaqo'rg'on shahriga - ijaraga olgan uyiga chaqirtiradi. Lekin endigina jam bo'lgan oilaning baxti uzoqqa cho'zilmadi. Bir hafta ichida oilaning ikki farzandi - to'qqiz yoshli Robiya va 11 yoshli Nizomiddin bezgak tufayli dunyodan bevaqt ko'z yumadi. To'ng'ich farzand Salohiddin uzoq vaqt og'rib, qiyinchilik bilan oyoqqa tura-di... Bu kulfatu hasratlar hali yuragidan ketmay, yangi hukumatning qatag'oni obiye Kattaqo'rg'oniga yetib boradi. Mirzo Umrboqiy yana darbadarlikda o'zi, turmush o'rtog'i va endilikda yolg'iz farzandi Salohiddin bilan Chaqar qishlog'iga boradi. Qishloq imomi qarib

qolgan sabab bilimdon va soʻzamol Umrboqiyning oʻz oʻrniga qishloq masjidi imomligiga oʻtkazadi. Oila yetti yil shu qishloqda tinchlik-xotirjamlikda yashaydi. Biroq maʼrifat egalari, ziyolilar, taniqli shaxslar, mulla, imomlar va boy-badavlat kishilarni qamoqqa olish, nohaq qatl etish davri – 1937-yilda ommaviy qatagʻon boshlanadi: Mirzo Umrboqiyning ham qoʻliga kishan solib olib ketishadi. Koʻp oʻtmay uni ozod qilishadi, lekin endi bu yerda qolishning imkoni yoʻq edi. U Samarqand shahriga yoʻl oladi. Bu yerda bir necha yil ijrama-ijara koʻchib yurgach, nihoyat Faqih Abulays mahallasidan uy sotib olib shu hovlida muqim yashay boshlaydi. Mirzo Umrboqiy tabiblik qiladi, kasal-bemorlarni davolaydi, oʻqib dam solib qoʻyadi. Ammo qarib qolgan adibga nisbatan hukumat taʼqibi yillar mobaynida toʻxtamadi. 1949 yilda chaquv sabab 70 yoshli Mirzo Umrboqiyning xonadonida hukumat xodimlari yana tintuv oʻtkazadi. Kitoblari va qoʻlyozmalarini yertoʻlaga- koʻmirlar ostida saqlagani uchun topisholmaydi. Shunday boʻlsa ham uni olib ketishadi va oʻn besh kun saqlab, qamash uchun arziri ayb topisholmagach qoʻyib yuborishadi.

Mirzo Umrboqiy 1957-yilning 23-sentyabrida Samarqand shahrida vafot etgan. Qabri Shohi Zinda qabristonida.

Adabiy merosi

Mirzo Umrboqiy adabiy merosi katta hajmdagi bitta kitobga jamlangan. Qoʻlyozma manba boʻyi 25 sm, eni 15 sm, qalinligi 7 sm. Manbaning asosiy matnlaridan tashqari toʻrt tomonida 3 sm.dan boʻsh joy – hoshiya qoldirilgan. Matnlar silliq, yupqa Samarqand qogʻozida muallifning nihoyatda chiroyli xati bilan yozilgan. Xat turi nastaʼliq. Kitob ustki jildida uchta muhr bor. Ushbu kitobni muallifning oʻzi tomonidan kitobat qilingan deyish mumkin, chunki davrining taniqli xattotlaridan boʻlgan Umrboqiyning oʻzi kitobat qilish sanʼatidan xabardor boʻlgan, albatta. Bundan tashqari zamon oʻta xavfli boʻlgani sabab qoʻlyozmalarini birovga ishonib topshirib kitobat qildirishi ehtimoldan uzoq koʻrinadi. Qoʻlyozmaning umumiy hajmi haqida aniq bir nima deyish mushkul. Chunki manbaning oʻrta qismidan 25-30 sahifa va oxirgi qismidan ham maʼlum sahifalar oʻtkir tigʻli asbob bilan kesib olingan. Qoʻlyozma juda yaxshi saqlangan. Manbaning birinchi sahifasi “Xatmi xojagon” mavzusidagi bir sahifalik matn bilan boshlangan. Keyingi sahifada uch betlik marsiya, yana ikki-uch sheʼriy asar va “Duoyi ismi Aʼzam” nomli matn joy olgan. Keyingi sahifadan basmala bilan boshlangan, 47 sahifadan iborat tariqatga oid yaxlit bir asar matni keladi. Oxirida hijriy 1345-

yil ko'rsatilgan. Matnlar ostida poygir mavjud.

Navbatdagi matn ham basmala bilan boshlanadi. Unda muallif mazkur asar tariqatga oid birinchi asarining mantiqiy davomi ekanini aytadi. Matn yetmish besh sahifadan iborat. Abdulqodir Bedil vafotiga hamda bu dunyoni bevaqt tark etgan farzandlari Robiya va Nizomiddin vafotiga bag'ishlangan marsiya (fors-tojik va o'zbek tillarida), maktub-yozishmalar, tabiblikka oid matnlar hamda bir necha sahifada musiqa, shashmaqomga oid matnlar joy olgan.

Navbatdagi qo'lyozma manba ham basmala bilan boshlangan va kitob nomi muallif tomonidan "Munajjimone Kashmiri" deb nomlangan asar ekanligi ta'kidlangan. Sahifalar ostida poygir yo raqam mavjud emas. Qo'lyozma 135 sahifadan iborat. Qo'lyozma asosiy matnlarining har joyida fiqhga oid bir nechta matnlar joylashtirilgan. Shuningdek, salaflar ijodidan namunalar ko'chirilgan sahifalar mavjud.

Mirzo Umrboqiy Shahrisabzda yashagan yillaridanoq o'z davri ilmiy-ijodiy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan bo'lgan. Bundan tashqari Shahrisabz xalqi orasida obro'li, yurtparvar-xalqparvar shaxs bo'lib tanilgan edi. Adibning Samarqand tuprog'ida o'tgan umri ham garchi quvg'in va muhtojlik, tahlika va xavotir ostida kechgan bo'lsa-da, ijod borasida samarali bo'lgan. Aytish mumkinki, adibning ilmiy-adabiy merosi mintaqadagi ikki qaynoq va bir-biriga uyg'un adabiy markazlar-Shahrisabz va Samarqand adabiy muhiti an'analarini o'zida mujassam etgan ijod namunalaridir. Shu sabab garchi Mirzo Umrboqiy hayotining oxirigacha o'z yurti Shahrisabzni qo'msab-sog'inib yashagan bo'lsa-da, Samarqand tuprog'ida o'tgan yigirma yildan ortiq umri, bu yerdagi adabiy harakatchilik vakillari, ilmiy-ijodiy muhit ham unga begona emas edi. Samarqandlik taniqli ijodkorlar-Orif Gulxaniy, Javdat, Tamhid, Jome', Sadridin Ayniylar, Shahrisabzdan Fayzulla Xo'jayev-Ravnaqiy, Abdulla Gulshaniy, Ismoilxon, Najmiddinxon, Abbosxon va boshqa ijodkorlar bu xonadonga tez-tez tashrif buyurishar, o'zaro qizg'in ijodiy suhbatlar bo'lib o'tardi.

Lirik asarlari

Zullisonayn ijodkor Mirzo Umrboqiy badiiy ijod namunalari "Boqiy" taxallusi bilan qog'ozga tushirgan. Uning o'zbek va fors-tojik tillaridagi g'azal, muxammas, marsiya-ta'rix, qasida, tazmin, muvashshah, ruboiylarida katta bilim, yorqin iste'dod va yuksak mahoratli ijodkor tafakkuri mujassamlashgan. Boqiy

shye'riy asarlarida zo'ravon tuzum azoblari, umrining so'nggigacha hukumat tomonidan qilingan ta'qib, farzandlari dog'ida kuygan otaning cheksiz hasratlari, hamfikir do'st-birodarlari vafotlari g'ami, muhabbat, pand-nasihati va musofirlik-vatan sog'inchi, mamlakatda islom diniga va islom dini bilan bog'liq ilmlarga, islom dini vakillarga qaratilgan ta'qib va bu ta'qiblarning oqibati singari turli-tuman mavzular yoritilgan.

Mirzo Umrboqiy Qur'oni karim va payg'ambarimiz s.a.v. sunnatlariga muvofiq hayot tarzi bilan yashab o'tgan. Boshiga tushgan qiyinchilik va mashaqqatlarni sabr bilan yengib o'tishiga shu mezon yo'lchi yulduz bo'lib yo'l ko'rsatgan. Qur'oni karimni yod olgan qori va ilm olishni o'z hayotining mazmuni deb bilgan Mirzo Umrboqiy umri mobaynida hech qachon bu yo'ldan og'ishmadi. U har qanday sharoit va vaziyatdan qat'i nazar islomiy ilmlar asosida shakllangan insoniy fazilatlarini saqlab yashadi. Adibning bu xildagi hayot tarzi avvalo uning tariqatga oid ilmiy asarlarida o'z aksini topgan bo'lsa, yetuk shaxs va mahoratli ijodkor sifatida o'zini namoyon qilgan turli janrdagi badiiy asarlarida ko'riladi.

Sho'ro hukumati tomonidan o'lkaning bosib olinishi, qirg'inbarotlar sabab yurtidagi tinch va osoyishta hayotning izdan chiqishi, ayniqsa, islom dini vakillariga qilingan ayovsiz qatag'on, xo'rliklarning bevosita guvohi va ishtirokchisi bo'lgan Mirzo Umrboqiy bular haqida shunday yozadi:

افسوس هزار افسوس کار از دست رفت
 آرایشی روزگار از دست رفت
 صد میهننت غم با اهل اسلام رسید
 امنیت ملک اعتبار از دست رفت

Mazmuni: *Afsus, ming afsus, hammasi barbod bo'ldi, hayot-turmushning go'zalligi yo'qoldi. Islom ahlining boshiga yuz mashaqqat va g'am tushdi. Obro'- e'tibor mulkining omonligi qo'ldan ketdi.*

Boqiy Shahrisabzdan majburiy ravishda chiqib ketganidan so'ng bir necha yillar turli tuman-qishloqlarda darbadarlikda yashagan. O'z vatanida osoyishtalik va farovonlikda kun kechirib kelgan Mirzo Umrboqiy endi o'zga yurtlarda nochorlik va g'ariblik azobini tortar hamda bu tuyg'ularini shu singari baytlarda aks ettirgan edi:

هر کسکه غریب شد به ملک دگری
 از اهل مقیم نیست اورا نظری
 گرچند که آن غریب شهزاده بود
 در چشم مقیم از گدا هم بتری

Ya'ni, har kim o'zga yurtda musofir bo'lsa, shu yurt (Bu yerda

mahalliy aholi nazarda tutilgan)ning odamlari tomonidan unga e'tibor bo'lmaydi, u g'arib (musofir) garchi shahzoda bo'lsa ham o'zga yurt odamlari nazarida gadodan baddardir.

Shunday og'ir kunlarida Yaratganga iltijo qilib, xor qilmasligini, dunyo tashvishlaridan yengillik va O'zining yo'lida yurishligi uchun madad berishini so'raydi:

ای خالق محربان مرا خوار مکن
در نفس بد اماره گرفتار مکن
انصاف بده رهی کشا بر در خود
سرگشته روزگار و بازار مکن

Mazmuni: *Ey mehribon Xoliq, meni xor qilma, nafsi bad- nafsi ammoraga duchor qilma, menga insof ber, o'zingning eshigingga yo'l och, dunyo-yu, ro'zg'or tashvishlari bilan sargardon qilma.*

Samarqand va Shahrisabz o'rtasida unchalik uzoq masofa bo'lmasa-da, Boqiy o'zini bu yerda doimiy ravishda musofir sezgani, yoru birodarlaridan uzoqda ekanidan afsuslanish, vatan sog'inchi uning bir qator g'azallarida asosiy motivlardan bo'lib ko'zga tashlanadi:

*Dar Samarqand doim az har vajh xursandam vale,
Mekasham dar chashmi xud chun surma xoke Keshro.*

Samarqandda har doim har jihatdan xursandman, lekin Kesh tuprog'ini ko'zlarimga surma qilib tortaman.

Boqiyning barcha janrdagi, barcha mavzudagi asarlari o'zining mukammalligi, rangin va bo'yoqdorligi, ma'no-mazmunning to'qligi bilan diqqatni tortadi. Turli mavzu-mazmundagi g'azal, muxammas, qasida, muvashshah, ruboiy va boshqa she'riy asarlari uning o'ziga xos bayon uslubiga, katta badiiy mahoratga ega ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Muallifning salaflar (Jomiy, Navoiy, Attor va boshqalar), Buxoro inqilobiga bag'ishlangan "Ta'rixii Inqilobi Buxoro" nomli 37 baytdan iborat ta'rixii, o'z davrining taniqli ulamolari (O'sha vaqtdagi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi raisi shayx Boboxon Eshon, vafotlari 1957-yil), ijodkorlar vafotiga bag'ishlab yozgan marsiya-ta'rixlari, shuningdek, qizi Robia va o'g'li Nizomiddin hamda yigirma yoshli Hanifa ismli qizining vafotiga bag'ishlangan qator marsiya-ta'rixlari alohida turkumni tashkil etadi. Bu marsiya-ta'rixlar shu davr adabiyotining qimmatli manbalaridir. Jumladan, yigirma yoshli qizi Hanifaning bevaqt vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasida qarigan, kuchdan qolgan otaning cheksiz dardlari, ayriliq azoblari shu tarzda qog'ozga tushirilgan:

روی گرداندی ز عالم قبل خفتن ناگهان

رفتی در جنت مگر آنجا مکانی داشتی
 بعد جمعه چهار هزار آدم بتخمین جمع شد
 خوانده تکبیر نماز تو ایمانی داشتی
 در جنازه جمع باشد چهل نفر از مردمان
 وعده جنت باد خوش شادمانی داشتی
 گفت پیغمبر در این معنی حدیث معتبر
 در ایشارت اینچنین خیر و نشانی داشتی
 پیر خسته عمر باقی را بداغت سوختی
 آخر عمرش عذاب قصد جان می داشتی

Mazmuni: *Kutilmaganda xufton (namozi)dan oldin bu olamdan yuz o'girding, jannatga ketding, u yerda joying bormidi? Juma (namozi)dan so'ng janozangga taxminan to'rt ming odam yig'ildi, takbir, namoz o'qidi – imon bilan bording. Janozaga qirq nafar odam yig'ilsa, u (marhum)ning jannatliy ekanligi va'dasi borligi haqida Payg'ambarning)s.a.v.) mo'tabar hadislari bor. Shu kabi ishora xayr-yaxshilik nishonasini topding. Qari kasalmand Umrboqiyni dog'ingda kuydirding, umrining oxirida joniga qasd qilish azobiga duchor etting...*

Mazkur marsiya-ta'rix ijodkorning cheksiz qayg'u-hasratlari bilan birga yana bir muhim jihatni o'zida mujassam etgan. Xususan, bu baytlarda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) sunnatlariga amal qilib yashagan taqvodor musulmonning, Qur'oni karimni yod olgan qori insonning qazoyu qadarga, Allohning yozmishiga munosabatining go'zal shaklda namoyon bo'lganidir. Farzandining sayyidul ayyom-juma kuni vafot etganidan va yana uning janozasiga ko'p insonlarning hozir bo'lganidan quyidagi dalillarni keltiradi:

عن عبد الله بن عمرو قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: «ما من مسلم - Abdulloh ibn Amrdan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: «Qaysi bir musulmon juma kuni yoki juma kechasi vafot etsa, Alloh taolo uni qabr fitnasidan (ya'ni azobidan) omonda saqlaydi». Imom Termiziy: Bu hadis sanadi g'aribdir, dedi [Имом Термизий 2000, 1755].

Ikkinchi dalili esa - قال: سمعت النبي صلى الله عليه وسلم - يقول: «ما من مسلم يموت فيقوم على جنازته أربعون رجلا، لا يشركون بالله شيئا، إلا شفعا فيه - Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan bunday deb aytayotganlarini eshitdim: «Biror musulmon vafot etsa-yu, uning janozasida qirq kishi qatnashsa, agar u Allohga shirk keltirmagan bo'lsa, ularning shafobatleri (shafe'liklari, guvohliklari) qabul qilinadi» [Имом Термизий ۱۴۶۱, ۲۰۰۰].

Boqiy navjuvon qizining juma kechasi vafot etgani va jano-

zasiga qirq kishi emas, taxminan to'rt ming nafar insonning jam bo'lganini hamda "agar u Allohga shirk keltirmagan bo'lsa, ularning shafotlari (shafe'liklari, guvohliklari) qabul qilin"ishini ta'kidlab, bu holni jigarbandiga nisbatan jannatiy bo'lish ishorasi deya qabul qiladi, o'ziga tasalli beradi...

Shoirning ishqi mavzudagi she'rlari ham badiiy jihatdan baquvvat bo'lib, tashbihlardan go'zal va o'z o'rnida foydalanadi. Quyidagi bayt Alisher Navoiyning mashhur g'azalini yodimizga soladi. Boqiy ulug' shoirning yuraklarni zabt etgan o'sha misralaridan ta'sirlangan deyishimiz mumkin:

*Ko'rmasun xalq yuzungni ko'z o'yunda joy tut,
El ko'zindin ko'zum ichra seni finhon etayin.*

Navbatdagi baytda Xizr va Iso timsollaridagi asosiy tashbih etiladigan xususiyat – tiriklik va tiriltirishlik mo'jizalarini badiiy jihatdan maromiga yetkazib tasvir etadi:

*Oshiqi murdalarini suxan aylab tirguz,
Xizru Iso ilkini syenga hayron etayin.*

G'azalning keyingi bayti yanada hayotiy va go'zal chiqqan:

*Boqiy, bu zor taning ichra yarim joning bor,
Himmat aylab oni ham sadqai jonon etayin.*

Oshiqning bor bisoti "zor tani ichra yarim joni"gina, xolos. Himmat qilib shu yarim jonini ham sadaqa qilib yuborishni istagan oshiq yoriga o'zining qanchalik sadoqatli ekanligini namoyish etmoqda. Zero "sadaqaning sadaqa deb atalishiga sabab u o'z egasining iymoni va niyati sodiqligini tasdiqlashi uchundir.

Ko'rib turganimizdek, ijodkor bir g'azalning deyarli har bir baytida ma'lum bir ma'nolar majmuasini mujassamlashtiradi, so'zlar zanjirini ma'nolar bilan to'ldiradi.

Boqiyning o'git, pand-nasihat mavzusidagi o'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlari muallifning donishmandona tafakkurini o'zida ifoda etgan. Bu turkumdagi she'rlari ham boshqa mavzudagi she'rlari kabi har bir o'quvchining yuragiga yetib boradi. Chunki ularda tajribaga boy, ko'p qiyinchilik va azoblarni ko'rgan insonning hayotiy pandlari jam etilgan. Bir she'rida saxiy, nazari to'q kishi bilan nazari past, ochko'z kishiga davlat berilsa, ulardagi o'zgarishlarni quyidagicha tasvirlaydi:

*Gar kishini asli zoti ahli davlatmand esa
Aylag'ay xayr(u) ishiga davlatini begumon.*

*Zoti past, ko'rmas kishiga davlati bersa agar,
Qutrab itdek mast o'lub har kimg'a yetkurg'ay ziyon.*

*May ichib mast bo'lsa har kim saqlasa o'zni bo'lur,
Lek davlatmand nokas bo'lsa, ul haddin yomon.*

*Mehnat ostig'a qolursen o'lgoningcha Boqiyo,
Gar yesang nokasni dasturxonidin bir parcha non.*

Garchi boy bo'lsa-da, nazari past odamlar dasturxonidan yegan parcha non kishining bir umr mehnatda (bu o'rinda muallif "mehnat" so'zining azob, ya'ni minnat ma'nosini nazarda tutgan) qolishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

Boqiy oilada er-xotin o'rtasida bo'lib turadigan mojarolar haqida yozar ekan, bu azaliy holat haqidagi maqollardan mohirona foydalanadi:

*Eru xotun o'rtasig'a janjal o'lsa nogahon,
Kirmag'il orasig'a gar aqling o'lsa, ey falon.*

*Bo'lsa tun hijobi ko'rpa ostida qolmas asar,
Shul jihatdin kulg'ay ostona alarg'a har zamon.*

G'azalda ijodkor tomonidan "Er-xotinning o'rtasiga esi ketgan kiradi" hamda "Er-xotinning urishiga uy ostonasi kuladi" kabi xalq maqollarini keltirib, irsoli masal san'atini yuzaga keltirilishi she'rdagi mazmunning yanada hayotiy chiqishiga yordam bergan.

Xulosa

Boqiy qo'lyozmalari bilan tanishish jarayonida, adibning adabiy-ilmiiy, badiiy ijodi ancha sermahsul ekaniga guvoh bo'ldik. Barkamol shaxs, yirik olim va "qilqalam" xattot Mirzo Umrboqiy asarlari XX asr o'zbek adabiyotini o'ziga xos qimmatli asarlari bilan boyitadi. Aytish mumkinki, Boqiy adabiy merosi 70 yillik sho'ro davrida o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari bardavomligini ta'minlashda muhim halqa bo'lib xizmat qiladi. Ijodkor adabiy merosini joriy yozuvga o'girish, jamoatchilik hukmiga havola etish hamda ilmiy, badiiy-estetik, tarixiy qimmatini aniqlash, davr adabiyoti rivojida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilash navbatdagi vazifalardandir.

Adabiyotlar

Al-Kutubu as-sitta. Imom Termiziy – Abu Iso Muhammad ibn Iso. 2000.
Sunanu Termiziy. Dorus-salom. Riyoz.

- Al-Kutubu as-sitta. Imom Abu Dovud – Sulaymon ibn Ash'as.* 2000. – B.1461.
Sunanu Abi Dovud. Dorus-salom. Riyoz.
- Mirzo Umrboqiy qo'lyozma asarlari.
- Ne'mat Arslon. 2009. *Iztirob farzandi.* Toshkent: Tafakkur.
- Nosir Muhammad. 2006. *Nasaf va Kesh allomalari.* IX-XX asrlar. Tazkira.
Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Rahmatulloh Vozeh. *Tuhfatul ahbob fit-tazkiratul azhob.* Toshkent: O'zR FA
Sharqshunoslik instituti fondi.
- Taronahoi Samarqand.* 1966. B. Shermuhammedov. Dushanbe: Donish.
- Taronahoi Samarqand.* 2013. A. Qamarzoda. Toshkent: Muharrir.
Vojačy/وج ۛو Farhangi forsii točikā <https://vazhaju.tj/>
<https://islom.uz/maqola>
<https://imlo.uz/uz/word>

About Mirza Umerbaqi's way of life and eternal legacy

Zebiniso Khurramova¹

Abstrakt

The fact that the 70-year reign of the Shura period left its sad consequences in the history of our country is still more vividly reflected in the sources coming out from the depths of our recent history and the great people behind these sources, their lives, literary heritage - scientific and creative works. In fact, there are many individuals who lived in our country from the beginning of the 20th century to the years of independence and secretly engaged in artistic and scientific creativity. A comprehensive study of the literary heritage of the representatives of this generation serves to enrich the gap in literature and literary studies with rare works, which were turned into an ideological weapon of the Shura period, removed from the real scientific and artistic direction. In particular, the literary legacy of Mirza Umrbaqi occupies a special place in this regard. In addition, the texts written by Mirza Umrbaqi in husnikhat are important and valuable works of calligraphy.

This article summarizes the facts of the biography of Mirzo Umrbaqi, who was known as a «qilqalam» calligrapher and a skilled poet in Shahrissabz at the beginning of the 20th century, but after the establishment

¹ *Khurramova S. Zebiniso* – doctor of philosophy (PhD), Samarkand State Institute of Foreign Languages.

E-pochta: xurramova@mail.samdcti.uz

ORCID ID: 0000-0002-4781-527X

For citation: Khurramova Z.S. 2023. "About Mirza Umerbaqi's way of life and eternal legacy". *Golden scripts* 3: 21-32.

of the Shura government in Turkestan, he was subjected to various pressures and settled in the city of Samarkand. Preliminary analyzes were carried out from the point of view of textual studies.

Key words: *manuscript, tazkira, Naqshbandi order, genre, textual analysis, lament, ghazal, repression.*

References

Al-Kutubu as-sitta. Imom Termiziy – Abu Iso Muhammad ibn Iso. 2000.
Sunanu Termiziy. Dorus-salom. Riyoz.

Al-Kutubu as-sitta. Imom Abu Dovud – Sulaymon ibn Ash'as. 2000. – B.1461.
Sunanu Abi Dovud. Dorus-salom. Riyoz.

Mirzo Umrboqiy qo'lyozma asarlari.

Ne'mat Arslon. 2009. *Iztirob farzandi.* Toshkent: Tafakkur.

Nosir Muhammad. 2006. *Nasaf va Kesh allomalari.* IX-XX asrlar. Tazkira.
Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Rahmatulloh Vozeh. *Tuhfatul ahhob fit-tazkiratul azhob.* Toshkent: O'zR FA
Sharqshunoslik instituti fondi.

Taronahoi Samarqand. 1966. B. Shermuhammedov. Dushanbe: Donish.

Taronahoi Samarqand. 2013. A. Qamarzoda. Toshkent: Muharrir.

Vojačȳ / وچ ڄو̄ Farhangi forsii točik̄ <https://vazhaju.tj/>

<https://islom.uz/maqola>

<https://imlo.uz/uz/word>

Navoiyshunoslik kontekstida matn tadqiqi ("G'aroyib us-sig'ar" devoni misolida)

Akrom Malikov¹

Abstrakt

Maqolada Alisher Navoiy matnlarini o'rganishga doir ayrim masalalar kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, tanqidiy, yig'ma-qiyosiy matn, ularning xususiyatlari, navoiyshunoslikdagi matn tadqiqi bilan bog'liq izlanishlar muxtasar tahlilga tortilgan. Matnshunoslikka oid ishlarning metodologik asoslariga diqqat qaratilgan, bu boradagi qarashlarni tizimlashtirishga harakat qilingan.

Mutafakkir asarlari matnlarini birlamchi manbadan o'rganish va yig'ma-qiyosiy matnning ilmiy ahamiyati asosiy muammo sifatida ko'rilgan. Maqola muallifi "G'aroyib us-sig'ar"ning Hamid Sulaymonov tayyorlagan tanqidiy matni xususida to'xtalgan, mazkur devonning yig'ma-qiyosiy matniga qanday ilmiy ehtiyoj borligini yoritgan. Shuningdek, "G'aroyib us-sig'ar" yig'ma-qiyosiy matnini tuzish prinsiplariga diqqat qaratib, bu borada tadqiqotga jalb qilinadigan qo'lyozma manbalar haqida ma'lumotlar keltirgan. Yig'ma-qiyosiy matn nazariy jihatdan muhim yangiliklar berishini, keyingi tadqiqotlar uchun qay darajada xizmat qilishini asoslagan.

Kalit so'zlar: *matn, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, yig'ma-qiyosiy matn, metod, metodologiya, kontekst, kontekstual tahlil.*

Kirish

Ustoz matnshunos P.Shamsiyev matn tanqidi haqida fikr bildira turib: "... tekst tuzish tanqidiy yo'l bilan bo'lganligidan hamma va har qanday kotib qo'lyozmasiga tanqid ko'zi bilan qarash kerak bo'ladi" [Навоий 1970, VI], – deb yozgan edi. Olim ta'kidlagan "tanqid ko'zi" bevosita shu so'zning lug'aviy ma'nosi bilan bog'lab tushunilsa, bizningcha, o'rinni: tanqid so'zi arabcha bo'lib, "saylash", "saralash", "muhokama qilish" degan mazmunni ifodalaydi [Адабиётшунослик луғати 2013, 312]. Demak, matn tanqidi to'g'ri

¹ Malikov Akrom Abduxamidovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

E-pochta: akrommalik@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9515-439X

Iqtibos uchun: Malikov, A. M. 2023. "Navoiyshunoslik kontekstida matn tadqiqi ("G'aroyib us-sig'ar" devoni misolida)". *Oltin bitiglar* 3: 33-65.

matnni bir necha variantlar orasidan qiyoslab, solishtirib tanlab, saralab olishdir.

H. Sulaymonov ham: "... har qanday matnshunos o'rganilayotgan adabiy yodgorlikning muallif qo'li bilan yozilgan nusxasi saqlanib qolgani yoki saqlanib qolmaganiga qiziqadi", – deb yozadi [Сулейманов 1956-1961, 13]. Chunki muallif o'z qo'li bilan yozgan nusxa ishonchli bo'lib, u matn tanqidida juda muhim o'rin tutadi. H. Sulaymonov Alisher Navoiy asarlarining muallif qo'lyozmasi hozircha topilmagan yoki saqlanib qolmagan, bu esa uning asarlari nusxalari bilan ishlash zaruratini o'rtaga qo'yadi, natijada, matnshunos zimmasida mashaqqatli mehnat borligini ta'kidlaydi [Сулейманов 1956-1961, 19].

H. Sulaymonov tadqiqotini sinchiklab o'rganish natijasida olim tanqidiy matn asarning muallif variantiga eng yaqin shakli deb hisoblagani ma'lum bo'ladi. Barcha tadqiqotlar ana shu shaklni – muallifning asl matnini topish uchun safarbar etilishini anglaymiz [Сулейманов 1956-1961, 34].

R. Zohidov esa matn tanqididan murod – ishonchli matnni tiklash degan qarashni ilgari suradi. U matnshunosning vazifasi "... muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirgi holatigacha davom etgan o'zgarishlarni aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo'l bilan asl matnni tiklashdir", – deb yozadi va o'z tadqiqoti mavzusi bo'lgan "Sabot ul-ojizin"ning ishonchli matnini tiklash jarayonida xillash, tasniflash, qiyoslash, saralash tamoyillaridan foydalanganini qayd etgan [Зоҳидов 2015, 184-185]. Olim tanqidiy matnning ahamiyatiga diqqat qaratgan: "... mumtoz matnlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar... birlamchi manbani chetlab o'tar ekan, erishilgan natijalar muvaqqatlik xarakteriga ega bo'ladi. Buning oldini olish uchun mumtoz adabiy manbalar yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlar qat'iy fundament – ilmiy-tanqidiy matnga asoslanishi shart" [Зоҳидов 2015, 207].

Sh. Sirojiddinov: "... ilmiy-tanqidiy matn, bu – matn tarixini ilmiy o'rganish asosida muallif matniga yaqin variantni tuzishdir", – deb yozgan [Сирожиддинов 2019, 28].

O'zbek navoiyshunos-matnshunoslari I.Sultonov [Султон 1947], H.Sulaymonov [Сулейманов 1956-1961], P.Shamsiyev [Шамсиев 1952; 1969], S. G'anieva [Ганиева 1956], L.Xalilov [Халилов 1945], M. Rashidova [Рашидова 1991], H. Islomov [Исломов 1990], M. Hamidova [Ҳамидова 1994], Y.Tursunovlarining [Навоий 2021] tanqidiy matn borasidagi ishlari bilan tanishib, ular o'z tadqiqotlarida qo'llagan prinsiplarning umumiy tartibi

quyidagicha ekaniga guvoh bo'ldik:

1. Dunyo fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalar sanog'ini kataloglar asosida aniqlash.

2. Nusxalar ichidan eng qadimiysini o'rganish va yaroqli bo'lsa, tayanch nusxa sifatida tanlab olish va eski o'zbek yozuvida ko'chirish.

3. Boshqa nusxalarni yordamchi nusxalar deb belgilash va tayanch nusxa bilan solishtirib, farqlarni ilmiy apparatda qayd etib borish.

4. Ko'zga ko'ringan xatoliklarni barcha nusxalar ishtirokida bartaraf qilish.

Mazkur tamoyillarga amal qilib olib borilgan tadqiqotlar hosilasi bo'lgan ish tanqidiy matn sifatida taqdim etiladi.

Adabiyotshunoslik, xususan, navoiyshunoslik faqat matn bilan ishlaydi, tanqidiy matn qamrov doirasi esa ma'no jihatdan katta imkoniyatlarni ochib beradi. Tanqidiy matn saqlanib qolgan yoki davrimizga yetib kelgan, bizga ma'lum bo'lgan nusxalarni "tanqidiy nazar" bilan chog'ishtirib chiqish bilangina bunyod bo'lishi uni mukammal tuzish uchun yana bir qator prinsiplar, tamoyillar zaruratini namoyon qilayotgandek. Chunki tanqidiy matn muallif g'oyasini, uning dunyoqarashi, mafkurasi, ruhiyati, aqliy quvvati, qamroviga ko'ra o'z davri kontekstiga xos muhim jihatlarni qamrab olishi lozim. Tanqidiy matn tuzishdan avval asarning bizga ma'lum bo'lgan nusxalarini sinchiklab mazmun va g'oyasini, struktural va arxitektonik xususiyatlarini o'rganib chiqish masalasi dolzarb deb o'ylaymiz.

Ushbu maqolamizda asosiy nazariy masala shu haqda bo'lib, fikrimizning amaliyotdagi tatbiqini "G'aroyib us-sig'ar" devoni matni va uning turli nusxalari bilan bog'liq ravishda tushuntirishni maqsad qilib qo'ydik.

O'zbek navoiyshunosligi matnshunoslik aspektida

Tanqidiy matn badiiy asarning barcha jihatlarni to'laqonli qamrab olishi uchun bizning matnshunosligimizda amalda qo'llanib kelayotgan prinsiplarni boyitish, balki ularni qayta ishlash, hatto bu masalada qat'iy qoidalarga – fundamental mezonlarga ega tizimni, metodologiyani ishlab chiqish eng asosiy vazifalardan biriga aylandi degan fikrdamiz. Bu soha mutaxassislarining kechiktirib bo'lmas burchi ekanligini Sh. Sirojiddinovning xulosasi ham tasdiqlaydi: "Hozirgi zamon filologiyasida matn ustida ishlash tamoyillari masalalarida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan yagona

qoida yo‘q” [Сирожиддинов 2019, 13-14].

Albatta, mantiqan olib qaralsa, ilmning qaysi sohasi bo‘lmasin, tadqiqot olib borish bobidagi fundamental nazariy qoidalar ko‘pchilikning maslahati bilan takomilga yetsa-da, u bir shaxs, olim tomonidan ishlab chiqiladi. Mazkur jarayonning tabiiy tadriji quyidagicha ro‘y beradi: dastavval, tadqiqotlar olib boriladi, olimlar o‘z tajriba va bilimi, dunyoqarashi, maqsadidan kelib chiqib muayyan obyektни o‘rganadi, ularning o‘rganish yo‘llari boshqa hamkasblari diqqatini tortadi, ular ham buni amalga joriy qiladilar, natijada, tajribadan o‘tgan yondashuv va metodlar tizimlashtiriladi va metodologiya, qoidalar yuzaga keladi. Bu qoidalar orasidagi qonuniyat, takroriylik muayyan yondashuvning samarali va haqiqatga yaqin xulosalarni taqdim qilishini biror olim kuzatadi hamda buni o‘z tadqiqotida aks ettiradi hamda mutaxassislar unga munosabat bildiradi, bahslar va fikrlar xilma-xilligi asosida ko‘pchilik qabul qilgan qoidalar, mezonlar, nazariy asoslar paydo bo‘ladi. Biz so‘zimiz avvalida o‘zbek matnshunoslari Alisher Navoiy asarlari matnlari tanqidi bilan shug‘ullanib, amalda qo‘llab kelgan prinsiplarini keltirdik, lekin bu tamoyillar hali metodologiya maqomiga ko‘tarilmagan.

Metodologiya masalasi jiddiy va monografik planda o‘rganiladigan muammo bo‘lib, ayni chog‘da o‘zbek matnshunosligi prinsiplari qanday yuzaga kelgan degan savolga ham qisqacha javob berib o‘tishimiz kerak. Albatta, savolga butun o‘zbek matnshunosligi kontekstida javob berish imkonimiz yo‘q, lekin Alisher Navoiy asarlarini matnshunoslik aspektida o‘rganish ishlari avvalida kim turganligi haqida H. Sulaymonovning dissertatsiyasidan ma‘lumot olamiz: “... Alisher Navoiy asarlarining matnshunoslik tadqiqotlari birinchi marta Toshkentda ulug‘ Vatan urushi yillarida taniqli sovet sharqshunosi, professor Yevgeniy Eduardovich Bertels rahbarligida boshlandi. Sharq tillari va adabiyotining yirik bilimdoni, talantli vatanparvar olim Yevgeniy Eduardovich Bertels Ulug‘ Vatan urushi yillarida, urush davrining barcha qiyinchiliklarini yengib, Toshkentda bo‘lgan vaqtida O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida katta ilmiy izlanishlar olib bordi. U 1948-yilda yilda chop etilgan “Navoiy” monografiyasiga Alisher Navoiy ijodi va hayoti, u yashagan davrga oid materiallar yig‘ish bilan bir qatorda O‘zbekistonning yosh olimlariga ilmiy rahbarlik ham qildi. Aynan Yevgeniy Eduardovich Bertelsning bevosita ilmiy rahbarligida olimlar G. Karimov va S. Mutallibovlar Navoiy asarlari ustida matnshunoslik tadqiqotlarini boshladilar. Va keyinchalik

bu ikki olim misolida hamda O'zbekistonning boshqa olimlari faoliyati bilan buyuk shoir asarlarining matnshunoslik tadqiqotlari davom etdi" [Сулейманов 1956-1961, 19-20].

H. Sulaymonovning mazkur e'tirofidan ma'lum bo'ladiki, bugungi o'zbek navoiyshunosligida matnshunoslik tadqiqotlari prinsiplari, ustqurmasi (fundamenti) Y. E. Bertels tomonidan joriy qilingan hamda ana shu tamoyillarga asosan tadqiqotlar olib borilgan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur prinsiplar navoiyshunoslik ilmiga yetarlicha, keng va qoniyarli ilmiy asosli natijalarni berayotgani yo'q. Chunki metod va metodologiya to'g'ri ishlab chiqilsagina, olib boriladigan tadqiqotning hosili manfaatli bo'ladi.

Navoiyshunoslik tadqiqotlariga nazar solsak, bajarilishi zarur bo'lgan quyidagi dolzarb masalalarga duch kelamiz:

- Alisher Navoiy barcha asarlarining atroflicha tekshirilgan, ishonchli tanqidiy matnlarini yaratish. Afsuski, hali buyuk shoir ijodiy merosining tugal va tizimli ravishda tanqidiy matnlari tuzilmagan, mavjudlari ham keng ilmiy tadqiqotlarda istifoda qilinmadi, aksari nashrdan ham chiqmagan.

- Alisher Navoiy matnlari bilan ishlash metodologiyasini yaratish. Mutafakkir matnlari bilan ishlashning maxsus metodologiyasi mavjud emasligi uchun bugun unga bo'lgan tubdan farq qiluvchi turli munosabatlarni ko'rib turibmiz. Yaqin bir asrlik tarixda Navoiy sobiq ittifoq g'oyalari uchun bayroqdor deb ko'rilgan bo'lsa [Шайхзода 1972], keyinchalik unga tasavvuf ilmi manbasi sifatida yondashildi [Комилов 2005; 2009]; endilikda esa Navoiyni dindan ayro ko'rishga bo'lgan urinishlar ham kuzatilmoqda va bu ishlarda G'arbda asos solingan psixoanaliz mezonlari bilan o'rganishga ham moyillik bor [Ofoq 2022]. To'g'ri, talqinlar turfa bo'lishi mumkin, lekin tadqiqotlar Navoiy haqiqatidan, Navoiyning tub mohiyatidan yiroqlab ketmasligi kerak.

- Alisher Navoiy asarlari asosidagi lug'atlarni mukammallashtirish va mavjud saviyani yuksaltirish. Alisher Navoiy asarlariga tarixda "Badoye' ul-lug'ot", "Abushqa", "Muntaxab ul-lug'ot", "Zubd ul-lug'ot" kabi lug'atlar ishlangan [Xoksor 2017]. O'tgan asrda avval Alisher Navoiy asarlarining 15 jildligiga ilova tarzida P. Shamsiyev hamda S. Ibrohimovlar tomonidan bir jildli [Навоий асарлари луғати 1973], so'ng E. Fozilov tahriri ostida 4 jildli [Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati, 1983 (1); Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati, 1983 (2); Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati, 1984; Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati, 1985] lug'atlar ishlandi.

Mustaqillik yillarida B. Yusupov bu tajribani yangilashga harakat qildi [Navoiy tili lug'ati, 2008]. Shuningdek, ikki jildli Alisher Navoiy qomusiy lug'ati yaratildi [Alisher Navoiy: qomusiy lug'at 2016 (1); Alisher Navoiy: qomusiy lug'at 2016 (2)]. Mazkur ishlarning qiymati juda yuksak, bu tadqiqotlar olimlarning uzoq yillik mashaqqatlari mevasidir, biz ko'tarayotgan masala bu ishlarning qiymatiga daxl qilish emas, balki ularni sifat jihatdan mukammallashtirish masalasidir.

– Alisher Navoiy asarlari tadqiqotlarini birlamchi manbalar asosida olib borish ko'nikmasini shakllantirish. Bu borada aytish mumkinki, navoiyshunoslikdagi tadqiqotlarning juda katta qismi ilmiy-ommabop nashrlar asosida amalga oshirilgan, tadqiqotchilarda asl yoki birlamchi matn, hech bo'lmasa, ilmiy-tanqidiy matnlarga tayanib ish olib borish tajribasi juda kamyob. Shu bilan birgalikda keyingi yillarda Alisher Navoiy devonlari tarkibini kompleks tarzda o'rganish va qiyosiy metod asosida xulosalarni umumlashtirish tajribalarini ko'rishimiz mumkin [Madaliyeva 2021].

Bu masalalarni ko'tarishdan maqsad shuki, Alisher Navoiy asarlarini tadqiq qilishning ilmiy-milliy asoslarini ishlab chiqishga ehtiyoj bor.

Navoiyshunoslikning bosh maqsadi Alisher Navoiy haqiqatini, ya'ni buyuk shoir nazarda tutgan g'oyalarni uning matnlari zamiridagi badiiyatni nazardan qochirmagan holda ochib berishdan iborat. Shoir asarlarining turli talqinlari uning asl mohiyatiga zid kelmasligi lozim. Bu maqsadga erishish uchun esa Alisher Navoiy turgan ma'naviy zamin, albatta, hisobga olinishi shart. Masalaga buyuk mutafakkir suv ichib ulg'aygan kontekstni unutmagan holda yondashmoq lozim. Bu esa ko'rinib turibdiki, milliy masaladir. Endi muammo zamiridagi qonuniyatni topish, takroriylikni asoslash esa ilmga oid sanaladi.

Shu ma'noda biz navoiyshunoslik tadqiqotlarining ilmiy-milliy asoslari, boshqacha aytsak, navoiyshunoslikning, xoh matnshunoslikda, xoh boshqa yo'nalishda bo'lsin, tadqiqot metodlari va metodologiyasi haqida izlanish olib borishimiz kerak. Bunda ikki jihatga diqqat qaratish talab etiladi:

1) jahon ilm-fan tadqiqotlaridagi metod va metodologiya tajribalarini o'rganish va ularni o'z milliy zaminimizga ijodiy tatbiq qilish;

2) Alisher Navoiy ijodini o'rganishda yoki uni talqin qilishda shoir avtointerpretatsiyasi, qo'lyozmalardagi kotib va xattotlar

yondashuvi, ishlangan lug'atlar tamoyillari hamda Musulmon Sharqidagi adabiyotshunoslik metodologiyalari tajribalarini tadqiq qilib, ulardagi qoida va mezonlarni tizimlashtirish.

Maqolamizda masalaning matnshunoslik aspektidagi jihatlariga to'xtalamiz. Xususan, so'zimiz avvalida matn tanqidi bilan bog'liq nazariy qarashlarni keltirdik. Ilmiy-tanqidiy matn tuzish tajribalari va shakllangan prinsiplarning umumlashgan qolipini taqdim qildik. Endi esa matnshunoslik tadqiqotlaridagi ikkinchi matn turi – yig'ma-qiyosiy matn haqida so'z yuritamiz.

“Mahbub ul-qulub” yig'ma-qiyosiy matni

Navoiyshunoslikda Alisher Navoiy matnlari asosida tuzilgan yig'ma-qiyosiy matnga deyarli duch kelmadik. H. Sulaymonov va Sh.Sirojiddinovlar “Mahbub ul-qulub”ning A. Kononov tuzgan yig'ma-qiyosiy matni haqida ma'lumot berishgan, xususan, H. Sulaymonovga ko'ra, 1948-yil A. Kononov asarning yig'ma-qiyosiy matn emas, ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan; u o'z tadqiqotiga 7 ta qo'lyozmani jalb qilgan: SSSR Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar fondidagi 2095, Saltikov-Shchedrin kutubxonasidagi 559-raqamli nusxalarni tayanch qilib olgan; XVII – XIX asrlarga oid yana 5 ta nusxaga ham murojaat qilgan; H. Sulaymonov A. Kononov ilmiy apparatda yana 3 ta boshqa qo'lyozma va 3 ta nashr nusxasidagi farqlarni ham aks ettirganini ta'kidlaydi va bular nazorat nusxalar edi deb yozadi. Shuningdek, u A. Kononovning ishini o'zbek matnshunoslariga nisbatan sezilarli darajada yuqori baholasa-da, tipografik nuqsonlar borligini qayd etgan [Suleymanov 1956-1961, 30-31]. Bu ma'lumotlarni umumlashtirsak, A. Kononov jami 10 ta qo'lyozma, 3 ta nashr nusxalardan ilmiy-tanqidiy matn yaratgani ma'lum bo'ladi. Sh. Sirojiddinov esa A. N. Kononov Leningrad hamda Toshkent qo'lyozmalar fondidagi 8 ta qo'lyozma nusxa asosida “Mahbub ul-qulub”ning yig'ma-qiyosiy matnini tiklagani haqida xabar bergan [Сирожиддинов 2019, 32].

Biz “Mahbub ul-qulub”ning A. N. Kononov tayyorlagan matni bilan tanishganimizda, olim uni H. Sulaymonov ta'kidlaganidek, ilmiy-tanqidiy matn emas, balki Sh. Sirojiddinov xabar berganidek, yig'ma-qiyosiy matn deya atagani ma'lum bo'ldi.

A. N. Kononov shunday yozadi:

“Mahbub ul-qulub”ning yig'ma-qiyosiy matnini tayyorlash jarayonida odatiy qiyinchiliklar bilan bir qatorda yana bir holat ishni biroz murakkablashtirdi: asarning yozilgan yili aks etgan nusxasi mavjud emasligi barobarida asar tugallangan sanaga yaqin vaqtda

ko'chirilgan qo'lyozmaga ham ega emas edik. Bizdagi va G'arbiy Ovrupo qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalar katalogiga qaraganda, "Mahbub ul-qulub"ning eng qadimgi nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada mavjud va u 973-hijriy yilda ko'chirilgan (milodiy 1565 – 1566). Asarning eng qadimgi va bizni qiziq-tirgan nusxasi esa Saltikov-Shchedrin nomidagi Leningrad Davlat kutubxonasida saqlanmoqda (quyida bu haqda aytamiz). Ammo keyinroq bayon qilinadigan ayrim sabablarga ko'ra, yig'ma-qiyosiy matn uchun SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar bo'limida 2095-raqam bilan saqlanayotgan nusxa asos qilib olindi.

Matnni tuzishga asos bo'lgan qo'lyozmalar haqida so'z boshlashdan avval ularning shartli nomlanishiga izoh berib etamiz:

B, B1, B2, B3, B4 – SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari.

П – Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat jamoat kutubxonasidagi qo'lyozma.

T, T1, – O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar fondidagi qo'lyozmalar" [Навои 1948, 7]*.

A. N. Kononov havolada S. L. Volinning Navoiy asarlarining Leningrad kolleksiyalarida saqlanayotgan nusxalari haqida xabar beruvchi, 1946-yil Leningradga chop etilgan "Alisher Navoi" nomli kitobini hamda A. A. Semenovning "Alisher Navoiyning chop etilgan asarlari va haqidagi adabiyotlarning bibliografik ko'rsatkichlari" (1940) va "Alisher Navoiyning O'zSSR Davlat jamoat kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma asarlari tavsifi" (1940) to'plamlarini zikr qilib, 1944-yil barcha manbalar O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi huzuridagi Qo'lyozmalar fondiga topshirilganini qayd etarkan, o'zi foydalangan nusxalarning tavsifi mana shu nashrlarda keltirilganini bildiradi, shu sababli nusxalar haqida batafsil tavsif berishga ehtiyoj yo'qligini ta'kidlaydi.

Ammo yig'ma-qiyosiy matnda istifoda etilgan qo'lyozmalarga oid eng muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi:

"B – SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida V 2095 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. To'liq nusxa, qora va qizil bo'yoqlar bilan O'rta Osiyo nasta'liq xatida ko'chirilgan. Bo'rtma naqshli teridan yasalgan muqovasi bor. Qo'lyozmaning 1a-sahifasiga ko'ra 1915-yil, 2 avgust kuni Buxoroda sotib olingan. Qo'lyozma ko'chirilgan sana va kotib ko'rsatilmagan, ammo qog'oz sifatiga qarab XVI asr boshlarida ko'chirilgan deb hisoblash mumkin. Agar bu taxmin haqiqat deb olinsa, bu bizga ma'lum nusxalarning

eng qadimiysi bo'ladi. Qo'l ostimizda bo'lgan boshqa qo'lyozmalar bilan qiyoslasak, menimcha, to'liqligi, Navoiy davriga oid bo'lgan chizmachilik va tilning muhim xususiyatlarini o'zida aks ettirganiga qaraganda bu asl nusxaga eng yaqin qo'lyozmadir...

II – Saltikov Shchedrin nomidagi Davlat jamoat kutubxona-sidagi nusxa. Hijriy 1004-yil, milodiy 1595/1956-yillarda Ali Fayziy tomonidan ko'chirilib, Farhod xonga taqdim qilingan. Matn B nusxaga juda yaqin. II nusxaning tilida Ozarboyjon tili xususiyatlari ko'zga tashlanadi.

Mazkur B hamda II nusxalar quyidagi qo'lyozmalar bilan to'ldirilib, tuzatilgan holda yig'ma-qiyosiy matn tuzishimda asos bo'lib xizmat qildi:

1) B1 – B. 283-raqam bilan saqlanadi, 1212-hijriy, 1797/1798-yillarda nasta'liq xatida ko'chirilgan, juda yaxshi holatda.

2) B2 – B. 2378-raqam bilan saqlanadi, 1227-hijriy, 1812/1813-milodiy yilda nasta'liqda ko'chirilgan, holati juda yaxshi.

3) B3 – C. 139-raqam bilan saqlanadi, 1253-hijriy, 1837/1838-yilda nasta'liq xatida ko'chirilgan, juda yaxshi holatda.

4) B4 – B. 266-raqam bilan saqlanadi, nasta'liq xatida ko'chirilgan, juda yaxshi holatda, kolofonda ko'chirilgan yil yozilgan qismiga shikast yetgan, S. L. Volin bu nusxa hijriy 1220, milodiy 1805/1806-yilda ko'chirilgan deb biladi.

5) T – 3324-raqam bilan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalarni o'rganish institutida saqlanayotgan nusxa, nasta'liq yozuvida, holati yaxshi, hijriy 1260 yilda, milodiy 1844 / 1845-yilda ko'chirilgan.

6) T1 – 697-raqam bilan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalarni o'rganish institutida saqlanayotgan nusxa, nasta'liq yozuvida, 1265-hijriy, 1848 / 1849-yilda ko'chirilgan" [Навои 1948, 8-9].

Shunday qilib, ma'lum bo'ldiki, A. N. Kononov ikkita eng qadimiy nusxani asos qilib olgan, oltita qo'lyozmani esa yordam-chilar deb belgilagan. Bundan tashqari, H. Sulaymonov ta'kidlaganidek, ro'yxatga kiritilgan nusxalarga qo'shimcha ravishda tafovutlarni tekshirish uchun yana uchta qo'lyozma va uchta toshbosma nusxalar ham tadqiqotga tortilgan.

SSSR Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondidagi:

1) B. 281;

2) A. 106.

B. I. Lenin Davlat universitetidagi:

3) 3733.

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalarni o'rganish institutidagi:

4) 878-raqamli qo'lyozmalarga A. N. Kononov nazorat nusxalari nazorat nusxalar o'laroq murojaat qilgan.

Shuningdek, ushbu bosma nashrlar ham diqqatga olingan:

1) Buxoro toshbosmasi, nashr yili ko'rsatilmagan, A. N. Kononov A. A. Semenovga havola bergan;

2) Istanbul nashri, 1289-hijriy, 1872 - 1873-yillarda chop etilgan;

3) H. Zarif tahriri ostida 1939-yil chiqqan nashr.

Mazkur ro'yxat A. N. Kononovning "Mahbub ul-qulub"ning yig'ma-qiyosiy matnini tuzish uchun foydalangan manbalaridir. Bu nusxalarni shunday tasniflashimiz mumkin:

1. Asos nusxalar (B hamd П).

2. Yordamchi nusxalar (B1, B2, B3, B4 T, T1).

3. Nazorat nusxalar (uchta qo'lyozma va uchta bosma nusxalar).

Demak, A. N. Kononov jami 11 ta qo'lyozma, 3 ta bosma nusxalar yordamida o'zi ishini amalga oshirgan.

Tadqiqotning formal jihatiga oid bir nuqta bu qo'lyozmalarni shartli belgilab olish masalasidir. P. Shamsiyev "Xamsa" dostonlari tanqidiy matnlari ustida ishlarkan, dastavval qo'lyozmalarni kotiblar ismlarining bosh harflari bilan shartli belgilab olgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda ularni alifbo harflari bilan tartiblashni ma'qul ko'rgan. Bu masalaga G. Shodmonov ham e'tibor qaratgan [Shodmonov 2021, 60]. A. N. Kononov esa qo'lyozmalar saqlanayotgan hudud va joyni nazarda tutib o'zi istifoda qilgan nusxalarni belgilagan bo'lsa kerak, chunki rus tilida Sharqshunoslik instituti "Институт востоковедения" bo'lsa, "B" "востоковедение" so'ziga, "П" ruscha "jamoat kutubxonasi" (Публичная библиотека) birikmasidagi "публика" kalimasiga, "T" Toshkentga dalolat qilmoqda.

Ta'kidlaganimizdek, o'zbek navoiyshunosligida izlanishlarimiz davomida yig'ma-qiyosiy matn deya taqdim qilingan ishni topa olmadik. Shuningdek, "Mahbub ul-qulub" bilan bog'liq dissertatsion tadqiqotlarda A. N. Kononov yig'ma-qiyosiy matnidan foydalanilganmi, foydalanilgan bo'lsa, qay darajada istifoda qilingani haqida hozircha biror ma'lumot aniqlab ulgurmadik. Chunki biz mumtoz matn, aynan Alisher Navoiy matnlari bilan ishlashning umumiy jihatlariga diqqat qaratmoqdamiz.

Kuzatishlarimizdan Alisher Navoiy matnlari bilan ishlash

va, umuman, matnshunoslik deganda asosan bir tasavvur qat'iy shakllanib, ilmiy jihatdan qabul qilingani oydinlashmoqda: shoir asarlarining qo'lyozma nusxalarini topish, ularni tavsiflash, saqlanish sifati, hududi, ko'chirilgan vaqti, qaysi xattotlik maktabiga tegishli ekaniga qarab tasniflash; nusxalarni qiyoslash, farqlarni aniqlash, tafovutlarni guruhlash hamda yig'ma-qiyosiy yoki tanqidiy matn tuzish.

Mazkur ish tartibi esa o'zbek navoiyshunos matnshunoslariga sobiq SSSR mutaxassislari tomonidan o'rgatilgan edi. Buni so'zimiz avvalida ham aytib o'tgan edik, qolaversa, atoqli matnshunos P. Shamsiyev ham Y. E. Bertelsning shogirdi sifatida o'z nomzodlik ishini yoqlagan [Shodmonov 2021, 54].

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishida yoqlangan dissertatsiyalarning deyarli aksari ishlarni shu tarzda olib boradi. Albatta, mazkur tartib, tamoyillar o'z mevasini berganini inkor qilish mumkin emas va inkor qilish mantiq va aqlga ham ziddir. Shunchaki, matnshunoslikni bu tamoyillar bilan cheklash uning fan sifatidagi imkoniyatlarini formal darajaga tushirib qo'yadi.

Musulmon Sharqida matnshunoslik bor edimi?

H. Sulaymonov bundan avval Sharqda, xususan, bizning o'lkamizda matnshunoslik faoliyati mavjud bo'lmagan deb yozgan, olimning so'ziga ko'ra, bu yo'nalish XIX asr o'rtalarida Rossiya va Ovrupoda Sharq qo'lyozma manbalarini o'rganish asnosida paydo bo'lgan, holbuki, Sharqda yozma yodgorliklarni tadqiq qilishning o'z an'analari bor edi. Xususan, bu vazifani kotiblar amalga oshirgan, ular biror asarni ko'chirish uchun tanlashar ekan, avval muallif qo'lyozmasiga suyanishga harakat qilganlar va ayrim amaliyotlarni bajarganlar, ya'ni 1) qo'lyozmaning yo'qolgan qismlarini tiklashgan: turli nusxalar yordamida g'oyib bo'lgan sahifalar keyingi asr kotiblari tomonidan yozib, eski nusxaga qo'shib qo'yilgan; 2) ko'chirish jarayonida asos olingan nusxada tushib qolgan bayt va so'zlar boshqa nusxa yordamida to'ldirib ketilgan; 3) matnni yozish jarayonida yanglishish ro'y bersa, matn buzilsa, kotiblar, albatta, buni nusxa sahifasida satr tenasiga qabul qilingan harfni yozish yoki hoshiyaga bitish orqali belgilaganlar [Сулейманов 1956 -1961, 10-13].

G'arbda paydo bo'lgan va Sharqda o'z an'analari bilan yashab kelgan ikki "matnshunoslik"ni solishtirsak, shaklan tafovutlari kam ekanini ko'ramiz: ikki matnshunoslik maktabi ham matnni to'g'irlash uchun nusxalarni solishtirgan, nuqson va kamchiliklarni

boshqalari yordamida aniqlab, bartaraf qilgan. Asosiy tafovut shuki, Sharq “matnshunoslari” (bu soʻzni shartli qoʻllayapmiz – A. M.) oʻzlari oʻrganayotgan matnga bevosita aloqador edilar, boshqacharoq aytsak, har bir xattot oʻzi koʻchirayotgan matn paydo boʻlgan va xizmat qilib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy muhit kontekstiga tegishli edi. Shuning uchun uning matnga kiritadigan oʻzgartirishlari yoki matndagi maʼno buzilishlarini aniqlashi oson hamda tuzatilishi nisbatan katta yaqinlik bilan toʻgʻri boʻlib chiqardi, tabiiy. U oʻzi taʼlim olgan madrasa, ustozlar, shariat va tariqat tarbiyasi bois matnlarni teranroq tushungan va uning “matnshunosligi” Gʻarb oʻlchovlari bilan shakllangan “zamonaviy” matnshunoslikdan koʻra ishonchli, mustahkam boʻlgani aniq. Ammo kotib yoki xattotlar oʻz ish uslublarini muayyan qoida sifatida, matnlarini anglash malakasi va uslublarini risola sifatida maxsus toʻxtalib yozib ketmaganlar. Zotan, bunga ehtiyoj sezilmagan.

Biz bu fikrlarni aytish bilan maqsadimizni ochiq va ravshan anglatishga harakat qilmoqdamiz.

Rossiya va Gʻarb matnshunoslarining matn tadqiqidan murodi Sharq xalqlarining tarixi, tafakkuri, eʼtiqodi, ziddiyati, salohiyati, zehniyatiga oid maʼlumotlarni qoʻlga kiritish boʻlgan desak, buni isbotlash uchun maxsus havolalar berish shart emasdek. Chunki Rossiya va Gʻarb dunyosi aynan XIX asrdan boshlab Sharq oʻlkalariga keng koʻlamli istilo harakatini boshladilar. Ular oʻzlari qoʻlga kiritayotgan yer va xalqlarning dunyosi bilan muomala qilish, siyosat olib borish uchun shoir va mutafakkirlar, olim va oriflar tomonidan yozilgan yuksak intellekt hosili boʻlgan matnlarining maʼnosini anglashlari shart edi, tabiiy.

Alisher Navoiy matnlarining eng qadimiy, moʻtabar nusxalari Gʻarb va Rossiyada saqlanayotgani ham bu holatning yorqin dalilidir. Masalan, “Hayrat ul-abror”ning 1485-yilda koʻchirilgan moʻtabar nusxasi – Eliott 287, “Sabʼai sayyor”ning 1553-yil koʻchirilgan qoʻlyozmasi – Elliot 318, “Saddi Iskandariy”ning aynan shu yili koʻchirilgan bir nusxasi – Elliot 340, Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balogʻa” kitobi – Elliot 127 raqamlari ostida Londondagi Bodlean kutubxonasida turibdi. Yoki Alisher Navoiyning 1527-yil koʻchirilgan ikki jildli muhtasham kulliyoti ham Parijdagi Fransuz Milliy kutubxonasida Suppl.Turc 316-317, H. Sulaymonov terma devon deb atagan 1565-yilda koʻchirilgan yana bir Navoiy devoni Suppl.Turc 762 raqamlari bilan saqlanmoqda. Bu sanoqsiz misollardan bir nechtasi, xolos. Bu nusxalarning deyarli hech biri toʻliq ravishda matnshunoslik tadqiqotlariga jalb qilingan

emas, ayrimlariga u yoki bu darajada murojaat qilingan.

Demak, Rossiya yoki G'arb matnshunoslari bizning otabobolarimiz, xossatan, Alisher Navoiy yozib qoldirgan matnlarga bizdan uzoq zehniyat va o'zlariga mos maqsadlar bilan yondashganlarini anglash u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. U matnshunoslarning matnga munosabati undan axborot olish doirasida cheklanadi. Matn ifodasi, undagi g'oya, qarashlarning hayotga mos kelishi, umumbashariy g'oyalar bilan uyg'un ekanligi quyi o'rindagi masalalar bo'lib, deyarli nazarda ham tutilmaydi.

Ammo millatga, xalqqa, kelajakka xizmat qiladigan matn ikki aspektdan birdek o'rganilishi talab etiladi:

1) joriy matnshunoslik prinsiplariga (biz bu haqda ganirib kelyapmiz – A. M.) tayangan holda o'rganish;

2) matnning tub mohiyati, undagi fikr va ifoda, g'oya va qarash, tuyg'u va munosabatni jonli hayot bilan yonma-yon ko'rish, uni xalq, xalqning eng sabiyali vakillari tafakkuri mahsuli sifatida o'rganish.

Albatta, bizda ikki yo'nalishda ham ishlar bor-ku deyilishi mumkin, lekin adolat bilan yondashilsa, Alisher Navoiy matnlariga ulardagi g'oyalar tizimini aniqlash maqsadida matndagi turli kontekstlarni o'zaro uzilmas iplar bilan chambarchas bog'liq butunlik sifatida yondashish deyarli ko'zga tashlanmaydi.

Sh. Sirojiddinov matnshunoslikni ikki qismga bo'lib tasniflaydi: nazariy va amaliy matnshunoslik [Сирождидинов 2019, 11]. Bizda amaliy matnshunoslikda tajriba va tushunchalar bor, lekin nazariy matnshunoslik masalasida ma'naviy bo'shliq seziladi. Biz ko'zda tutayotgan maqsadlarni nazariy matnshunoslik kontekstida muayyan qonuniyatlar, nazariy qoidalar bilan asoslash mumkin. Buning uchun, avvalo, matn nazariyasi masalasiga oydinlik kiritish zarur. Matn nazariyasi katta monografik planda o'rganiladigan masalalardan bo'lib, maqolamizda bu muammoga to'xtalish rejasi yo'q. Lekin bir nuqtani alohida ta'kidlash zarurati bor: tanqidiy matn tuzish matn nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak, yig'ma-qiyosiy matn esa tanqidiy matn tuzishning asosiy shartlaridan biriga aylanmog'i lozim.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan "G'aroyib us-sig'ar" nusxalari bilan ishlash misolida yig'ma-qiyosiy matn tuzish haqidagi qarashlarni, ishlash prinsiplarimizni hamda ilmiy tadqiqot uchun ayni vaqtda ko'zga ko'rinib turgan ayrim to'siqlarni ham bayon etmoqchimiz. Ammo bu masalaga o'tishdan avval H. Sulaymonov tuzgan "G'aroyib us-sig'ar" tanqidiy matniga to'xtalib o'tish joiz.

Hamid Sulaymonovning “G‘aroyib us-sig‘ar” matni bilan bog‘liq tadqiqoti

“G‘aroyib us-sig‘ar”ning tanqidiy matni 2012-yil “Mumtoz so‘z” nashriyoti tomonidan oz adadda faksimil nashr qilingan.

Nashr annotatsiyasida ma‘lumot berilishicha, H. Sulaymonov “G‘aroyib us-sig‘ar”ning bir qancha nusxalari bilan tanishib chiqqan hamda ular ichidan Dushanbe, Parij, Sankt-Peterburg, Istanbul nusxalaridan quyidagi shartli belgilar bilan nomlab foydalangan:

1. Д – Dushanba nusxasi. Tojikiston RFA Sharqshunoslik sho‘basida 1990-raqam bilan saqlanayotgan, 1499 – 1500-yillarda ko‘chirilgan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.

2. П – Parij nusxasi. Fransiya Milliy kutubxonasigi 108-raqamli, hijriy 930 – 931, milodiy 1523 – 1524-yillarda ko‘chirilgan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.

3. Л – Sankt-Peterburg nusxasi. Saltikov-Shchedrin nomli Davlat kutubxonasida saqlanayotgan 55-raqamli qo‘lyozma, hijriy 904, milodiy 1598 / 1599-yilda ko‘chirilgan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.

4. И – Istanbul nusxasi. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondidagi 4056-raqamli qo‘lyozma, XVI asrning boshlarida ko‘chirilgan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.

Tanqidiy matn haqida S. Hasanov “Nashr xususida” nomli so‘zboshida, asosan, H. Sulaymonov tarjimaiy holiga oid nuqtalarni yoritgan, “G‘aroyib us-sig‘ar” tanqidiy matni Alisher Navoiyning 525 yilligi arafasida tuzilganini, buning uchun 14 ta mo‘tabar nusxadan foydalanilganini ma‘lum qilgan [Навойй 2012, 6].

H. Sulaymonov o‘z doktorlik dissertatsiyada “Xazoyin ul-maoniy” ilmiy-tanqidiy matni haqida ko‘p to‘xtalib, ilmiy-tanqidiy matn tuzish prinsiplarini ishlab chiqqan bo‘lsa-da, kulliyotning eski turk yozuvidagi tanqidiy matnini biror joyda uchratmadik. Ammo ixtiyorimizda “G‘aroyib-us-sig‘ar”ning tanqidiy matni bor. “G‘aroyib us-sig‘ar”ning bu tanqidiy matnini tuzish tamoyillari haqida olimning aniq bir chiqishini ko‘rmadik, lekin “Xazoyin ul-maoniy” tanqidiy matni uchun mo‘ljallangan ushbu prinsiplar asos qilingan bo‘lishi kerak degan fikrdamiz:

1. Qadimgi nusxalardan maksimal foydalanish prinsipi.
2. To‘rtta tahrirning barcha namunalarini tadqiqotga jalb qilish prinsipi.
3. Qo‘lyozmalarning to‘kisligini tekshirish prinsipi.
4. Qo‘lyozmalarning ko‘chirilish sanasi aniqligi prinsipi.
5. Tadqiqotga barcha asrlarda ko‘chirilgan nusxalarni jalb etish

prinsipi.

Olim tuzatilishi kerak deb hisoblagan deformatsiyalar quyidagilar edi:

1. Tahririy deformatsiyalar.
2. Ma'noga oid deformatsiyalar.
3. Imloviy deformatsiyalar.

Muxtasar keltirilgan bu prinsiplarga suyanib, "G'aroyib us-sig'ar" tanqidiy matnini tekshirsak, quyidagi manzara yuzaga kelyapti: H. Sulaymonov "G'aroyib us-sig'ar" tanqidiy matnida o'zi dissertatsiyada *tayanch nusxa deb birinchi kategoriyaga* kiritgan Saltikov-Shchedrin Davlat kutubxonasidagi 55-raqamli nusxadan, *ikkinchi kategoriya deb belgilagan faol nusxalardan* Dushanba (№1990) nusxasini, *uchinchi kategoriya deb atagan nofaol nusxalardan* Parij (№108) nusxasini istifoda qilgan, shuningdek, biror kategoriya kiritmagani, faqat dissertatsiyasi so'ngida ilovada keltirgan Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondidagi 4056-raqamli kulliyot tarkibidagi "G'aroyib us-sig'ar"ni ham tadqiqqa tortgan. Shuning barobarida biz olimning tanqidiy matn tuzishda qadimgi nusxalardan maksimal foydalanish, qo'lyozmaning to'kisligi, ko'chirilish sanasi aniqligi, barcha asrlarda ko'chirilgan nusxalarni jalb etish kabi mezonlari to'liq ishlamaganiga ham guvoh bo'lamiz. Xususan, "G'aroyib us-sig'ar" tanqidiy matnida barcha asrlarda ko'chirilgan eng mo'tabar nusxalar birdek amaliyotga tortilmagan, faqat Alisher Navoiy hayotlik chog'ida va vafotidan so'ng XVI asrda kitobat qilingan nusxalarga suyanilganini ko'ramiz.

Mana shu faktorlarning o'ziyoq biz tanqidiy matn deb qabul qilayotgan ishni H. Sulaymonovning o'zi tanqidiy matn deb hisoblaganmi degan savolni o'rta qo'yadi. Bundan tashqari, H. Sulaymonov tanqidiy matn tuzish uchun bir asarning shu kungacha o'tgan har bir asrda ko'chirilgan nusxalaridan, hech bo'lmaganda, bittadan olib ishga jalb qilish kerak deya P. Shamsiyevning "Sab'ai sayyor"ga tuzgan tanqidiy matnini jiddiy e'tirozlar bilan tahlil qilganini bilamiz [Сулейманов 1956-1961, 23-30]. Bu jihat ham olim o'z istagandek tanqidiy matn tuza olmaganmikin yoki o'zi qo'ygan qat'iy talablarga amal qilgan holda ish olib borishga muassar bo'lmaganmikin degan mulohazaga etaklaydi.

"G'aroyib us-sig'ar"ning yig'ma-qiyosiy matnini tuzishga kirishishdan avval H. Sulaymonov tanqidiy matniga xos jihatlarni chuqurroq o'rganish maqsadida u o'zaro qiyoslagan to'rtta nusxani o'rganib chiqishga qaror qildik. Lekin biz Sankt-Peterburgda

Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat jamoat kutubxonasi^{1*} fondidagi 55-raqamli va Parijdagi Fransuz Milliy kutubxonasidagi 108-raqamli qo'lyozmadan foydalanish imkoniyatini topa olmadik. Ammo Tojikiston R FA Sharqshunoslik institutida 1990-raqamli^{2*} va Istanbulda To'p'qopi muzeyi Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondidagi 4056-raqam^{3*} bilan ro'yxatga olingan kulliyotning elektron shaklini qo'lga kiritdik. Imkoniyatimizga suyanib, "G'aroyib us-sig'ar"ning H. Sulaymonov tuzgan tanqidiy matni va I hamda D nusxalar mundarijasini bir qur qiyoslab chiqdik. Biz maqolani yozayotgan paytda aynan shu nusxalardagi matnlar ichiga sinchiklab kirmadik, umumiy solishtirish bilan cheklandik, ko'zimiz tushgan ayrim o'rinlarni qayd etdik. Xususan:

1. Tanqidiy matnga ko'ra, 9-g'azal, 4-havolada ko'rsatilgan so'z "И", "Д" "П" nusxalarda سوت deb yozilgan. Ammo "И" nusxada زوت deyilgan, "Д" nusxada esa bu g'azalni ko'rmadik, qizig'i, "Д" nusxaga oid 6 ta farq ko'rsatilgan; "П" nusxani esa tekshira olmadik. Aynan shu matnda 5-havoladagi so'z "И" nusxada سامي deb tanqidiy matndan farqli yozilgan, lekin bu ilmiy apparatda aks etmagan.

2. Tanqidiy matnga ko'ra, 11-g'azal, 4-havolada ko'rsatilgan so'z "И" nusxada مقاي deb yozilgan, ammo haqiqatda esa اقاي deb bitilgan.

3. Tanqidiy matnga ko'ra, 12-g'azal, 1-havolada ko'rsatilgan so'z "И" nusxada غروزوب deb yozilgan bo'lishi kerak edi, ammo nusxada unday emas, balki ma'noga mos ravishda غروب deb yozilgan.

4. Tanqidiy matnga ko'ra, 13-g'azal, 4-havolada ko'rsatilgan birikmada "И" nusxada رك so'zi tushib qolgan, ammo qo'lyozmada bu so'z joyida turibdi.

5. Tanqidiy matnga ko'ra, 15-g'azal, 3-havolada ko'rsatilgan so'z "И" nusxada یاغامپاي tarzida kelgan, ammo nusxada یاغامپاي

^{1*} Bu kutubxona bugun Rossiy Milliy kutubxonasi maqomini olgan. 1766-yildan boshlab g'oyasi o'ylay boshlangan bu kutubxona 1814 yil a'zo 329 kitobxon bilan ish boshlagan. Xalq orasida "Publichka" deb ataladi. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda bu kutubxonada Alisher Navoiy asarlarining 29 ta nusxasi saqlanmoqda. Manba:

https://ru.wikipedia.org/wiki/Российская_национальная_библиотека
Foydaniilgan sana: 18. 11. 2023.

^{2*} Tojikiston RFA Sharqshunoslik institutidagi 1990-raqamli mazkur kulliyotning elektron shaklini tadqiqot uchun bergan ustozim, filologiya fanlari doktori, professor Sh. S. Sirojiddinova tashakkur aytaman.

^{3*} Istanbulda To'p'qopi muzeyi Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondidagi 4056-raqam bilan saqlanayotgan kulliyotning "G'aroyib us-sig'ar" qismini elektron shaklda olib menga yo'llagan Istanbul Davlat universiteti talabasi Nurulloh Isojon o'g'liga samimiy minnatdorlik bildirdi.

deb yozilgan.

Tekshirish shu nuqtaga kelganda ko'nglimizda bir ishtiboh paydo bo'ldi. Men doktorlik tadqiqoti olib borayotgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-yil 15-noyabr kuni "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferans o'tkazilgan edi. Anjumanda matnshunos O.Jo'raboyev o'z ma'ruzasi davomida "G'aroyib us-sig'ar"ning H. Sulaymonov tuzgan tanqidiy matni haqida to'xtalib, olim Revan 808 raqamli kulliyot tarkibidagi "G'aroyib us-sig'ar"dan ham foydalan-gan dedi. Men bunga e'tiroz bildirib, ilmiy apparatda boshqa nusxa – Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondidagi 4056-raqamli qo'lyozma aks ettirilganini bildirdim.

H.Sulaymonov tuzgan tanqidiy matnni birgina nusxa bilan qiyoslaganimda 15 ta g'azalda 5 ta xatolik bo'lishi shaxsan men uchun jiddiy nuqson bo'lib tuyuldi va jarayonda yana tanqidiy matn nashrining annotatsiyasi va S. Hasanov yozgan so'zboshiga qaradim. Ya'ni balki haqiqatan ham bu Fotih 4056 emas, balki Revan 808 bo'lsa-chi degan ishtiboh degan xayolga bordim. Ammo bu ikki o'rinda ham mazkur kulliyot tanqidiy matn apparatiga jalb qilingani haqida aytilmagandi. So'ng Revan 808ning faksimil nashrini qo'lga olib, tanqidiy matnda kelgan 15-g'azalning 3-havolasida kelgan so'zni tekshirdim. Revan 808da bu so'z havolada ko'rsatilganidek *ی اغام غای* tarzida yozilgan ekan. Shunda: "Balki H. Sulaymonov haqiqatan Revan 808dagi matnni istifoda qilgandir, bu esa qandaydir sabablar bilan nashr annotatsiyasi va so'zboshida aks etmay qolgandir", – degan o'y bilan keyingi havolalarga Revan 808ni ham jalb qilgan holda tanishuvni davom ettirdim.

6. H. Sulaymonov tanqidiy matnidagi 19-g'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

کیم که کورسه مشک ناب اول سنبل سیراب ارا

بیر قرا توفراغ دیکای کیم توشتی مشک ناب ارا

ک م ی jumla boshi I nusxada *س ر و ک م ی* shaklida kelgan, bu farq esa tanqidiy matnda ko'rsatilmagan.

7. Tanqidiy matnga ko'ra, 22-g'azal, 1-havolada ko'rsatilgan so'z "И" nusxada *ت ار اردا* deb ko'rsatilgan. Fotih 4056da esa unday emas, lekin Revan 808da shu tanqidiy matnda ko'rsatilganidek kelgan. Ayni shu g'azalda 2-havolasi ham bor, unda *س ر ا س ر مودور* so'zi kelgan. Belgilanishicha, bu so'z "И" nusxada *س ر ا س ر دودور* tarzida yozilgan. Bizda "И" nusxa Fotih 4056mi, yo Revan 808mi degan ishtiboh borligi uchun ikkisiga ham qaradik. Fotih 4056da bu so'z

سراسر دور دور shaklida, Revan 808da esa سراسر دور دور shaklida kelgani ma'lum bo'ldi. 4-havoladagi so'z ko'rsatilishicha, "И" nusxada سيك deb yozilgan ekan, biz Revan 808da bu so'z butunicha دنيا so'zi bilan birgalikda tushib qolganini ko'rdik; Fotih 4056da esa tanqidiy matnda aks ettirilganidek kelgan. 4-havoladagi axborot esa ikkala nusxa bilan mos.

8. Tanqidiy matnga ko'ra, 23-g'azalning 1-havolasidagi axborot Revan 808 matniga to'g'ri keladi, ammo Fotih 4056 bilan mos emas. 3-havoladagi ma'lumot ikkala nusxa bilan bir xil.

9. Tanqidiy matnga ko'ra, 28-g'azalning 1-havolasi Fotih 4056ga to'g'ri kelmaydi, ammo Revan 808ga to'g'ri keladi.

10. 29-g'azalning 4-bayti 1-misrasida tanqidiy matn apparatiga ko'ra, "И" nusxada و so'zi tushib qolgan, ammo aslida ikkala nusxada ham unday emas: so'z joyida turibdi.

Mana shunday chalkashlik tanqidiy matn bo'ylab davom etadi, bu chalkashliklarni sanash va tasniflash bizning vazifamizga kirmagani sababli ularning to'liq adadini keltirmadik, ammo "И" nusxa deb ko'rsatilgan nusxa Fotih 4056 mi, Revan 808 mi degan sabolga javob topa olmadik, chunki ayrim o'rinlarda havolalar to'g'ri ma'lumot beryapti, ayrim o'rinlarda esa unday emas.

"G'aroyib us-sig'ar"ning H. Sulaymonov tuzgan tanqidiy matnini o'rganish natijasida ma'lum bo'ladiki, avvalo, mazkur tanqidiy matnga tanqidiy matn tuzish uchun zarur bo'lgan miqdorda qo'lyozmalar jalb qilinmagan; ikkinchidan, tanqidiy matn ilmiy apparatida qayd etilgan "Д" nusxa "G'aroyib us-sig'ar" emas, "Badoye' ul-bidoya" devoni bo'lib chiqdi – biz buni Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami 1-jildi bilan qiyoslab aniqladik, Tojikiston RFAda saqlanayotgan 1990-raqamli qo'lyozma "Xazoyin ul-maoniy" deb qaralardi, bu qarash shubha ostida qoldi, endi uning tarkibini yangidan tekshirish zarurati bor; uchinchidan, "Д" nusxaga oid deb ko'rsatilgan xususiyatlar aslida "Д" nusxada topilmadi; to'rtinchidan, "И" nusxaga nisbat berilgan matniy xossalarning aksari ham "И" nusxada uchramadi; beshinchidan, "И" nusxaning boshqa nusxalar bilan tafovuti to'liq aks ettirilmagan. Mazkur holatdan kelib chiqib, "G'aroyib us-sig'ar"ning tanqidiy matni deya ta'riflanayotgan tadqiqot yig'ma-qiyosiy matn talablariga ham javob bermasligi ayon bo'ldi.

Ilmiy-tanqidiy matn, ta'kidlab kelayotganimizdek, nusxalarining tasnifi va ularning qiyoslanishiga emas, balki ma'no-mazmuni, matn aloqador bo'lgan turli kontekstlar bilan birgalikda bir butun tizimda o'rganilib aniqlanishi lozim. Yig'ma-qiyosiy matn esa ilmiy-

tanqidiy matn tuzishning eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Yig'ma-qiyosiy matn zarurati va uning ilmiy ahamiyati

Yuqoridagi tadqiqot va natijalarga tayanib, biz Alisher Navoiy lirik merosining muhim qismi sanalgan "G'aroyib us-sig'ar" devoni yig'ma-qiyosiy matnini tuzishga zarurat bor deb bilamiz. Demak, "G'aroyib us-sig'ar" yig'ma-qiyosiy matni tanqidiy matn ustqurmasi bo'lib xizmat qilarkan, tadqiqotga jalb qilinayotgan nusxalar eng qadimiy mo'tabar nusxalar bo'lishi maqsadga muvofiq. Shuning uchun Alisher Navoiy hayotlik chog'ida va undan keyingi yuzyilda ko'chirilgan "G'aroyib us-sig'ar" nusxalarni aniqlab olishimiz zarurati paydo bo'ladi. Bu o'rinda chegaralab olganimiz vaqt doirasida uch masala qarshimizdan chiqadi: 1) "G'aroyib us-sig'ar"ning alohida holda ko'chirilgan nusxalarini aniqlash; 2) "G'aroyib us-sig'ar"ning "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi nusxalarini aniqlash; 3) H. Sulaymonov o'z dissertatsiyasida bir qancha terma devonlar ro'yxatini ham e'lon qilgan edi^{1*}. Biz belgilab olgan vaqt chegarasida ana shu terma devonlar va ko'nlab kataloglarda "Navoiy devoni" nomi bilan kelgan nusxalarning ham tarkibini o'rganish zaruriy masalalardandir.

Vaqt hamda imkoniyatdan kelib chiqib, biz faqat ikki masalani yechib olishga qaror qildik. Ya'ni Alisher Navoiy hayotlik chog'ida va XVI asrda ko'chirilgan "G'aroyib us-sig'ar"ning alohida va "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi nusxalari ro'yxatini shakllantirdik. Biz bunda H. Sulaymonov dissertatsiyasining ilova qismida keltirgan ma'lumotlarni asos qilib oldik [Сулейманов 1956-1961, 332-339]. Mazkur ma'lumotlarni quyidagicha tasnifladik va ularni shartli ravishda foydalanishga qulay bo'lishi uchun manba saqlanayotgan hududga nisbat berib, shartli belgilab oldik:

Alisher Navoiy hayotlik chog'ida ko'chirilgan nusxalar

1. Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti fondida saqlanayotgan nusxalar. Biz bu nusxalarga umumiy Toshkent nusxalari (shartli TN) deb nom berdik:

"Xazoyin ul-maoniy":

1) 3984 (XV asr oxiri);

2) 1973 (XV asr).

2. Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat jamoat kutubxonasida

^{1*} Navoiyshunos A. Erkinov terma devon atamasini "Xazoyin ul-maoniy" tuzilgach, undan saylab olib tuzilgan she'riy to'plamga nisbatan qo'llash kerak deb hisoblaydi. *Qarang:* [Erkinov 2017, 19 – 38].

saqlanayotgan nusxalar. Biz bu nusxalarni Rossiyadagi nusxalar (shartli RN) deb atadik:

“Xazoyin ul-maoniy”:

- 1) 55 (904 / 1498 – 1499);
- 2) 558 (1001 – 1004 / 1492 – 1496).

3. Turkiyada saqlanayotgan nusxalar. Bularni Turkiya nusxalari (shartli TurkN) deb atadik:

“Xazoyin ul-maoniy”:

- 1) Revan 808 (1496).

“G‘aroyib us-sig‘ar”:

- 1) 802 (906 / 1500 – 1501).

XVI asrda ko‘chirilgan nusxalar

1. Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar instituti fondida saqlanayotgan nusxalar (TN):

“Xazoyin ul-maoniy”:

- 1) 677 (XV – XVI asrlar);
- 2) 1280 (XVI asr);
- 3) 4007 (XVI asr).

2. Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat jamoat kutubxonasida (Rossiya Milliy kutubxonasida) saqlanayotgan nusxalar (RN):

- 1) 58 (XVI asr).

3. Ozarbayjon Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan nusxa. Bu nusxani Ozarbayjon nusxasi (shartli ON) dedik:

“G‘aroyib us-sig‘ar”:

- 1) 8037 (937 / 1565 – 1566).

4. Turkiyada saqlanayotgan nusxalar (TurkN):

“Xazoyin ul-maoniy”:

- 1) 808 (910 / 1505 – 1505);
- 2) 807 (932 / 1525 – 1526);
- 3) 4056 (XVI asr).

“G‘aroyib us-sig‘ar”:

- 1) 803 (939 / 1532 – 1533);
- 2) 806 (940 / 1533 – 1534);
- 3) 496 (972 / 1564);
- 4) 3880 (956 / 1549);
- 5) 1946 (943 / 1536 – 1537);
- 6) 3981 (958 / 1551);
- 7) 466 (982 / 1574 – 1575).

5. Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan nusxalar.

Parijdagi nusxalar (shartli PN) deb nomladik:

“Xazoyin ul-maoniy”:

1) 108 (930 – 931 / 1523 – 1524);

“G'aroyib us-sig'ar”:

2) 994 (937 / 1530 – 1531);

3) 991 (1540);

Navoiy kulliyoti:

4) Turc 317 (1526 – 1527).

Mazkur ma'lumotlarni jadval ko'rinishga keltirsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

1-jadval

	№	TN	RN	Turk.N	ON	PN
Alisher Navoiy hayotligida ko'chirilgan nusxalar	1	3984	55	Revan 808	-	-
	2	1973	558	802	-	-
XVI asrda ko'chirilgan nusxalar	3	677	58	808	8037	108
	4	1280		803		994
	5	4007		806		991
	6			496		Turc 317
	7			3880		
	8			1946		
	9			3981		
	10			466		

Mazkur jadvaldan foydalanish uchun shartli nom hamda tartib raqamini birga qo'llash lozim, masalan, RN2 nusxa bu 558-raqamli qo'lyozma, TurkN7 nusxa esa 3880-raqamli qo'lyozma va hokazo.

Biz Alisher Navoiyning “G'aroyib us-sig'ar” devoni yig'ma-qiyosiy matnini tuzishga kirishar ekanmiz, ixtiyorimizdagi nusxalarni ikki guruhga ajratdik:

1. Alisher Navoiy hayotlik chog'ida ko'chirilgan nusxalar.

2. Alisher Navoiy vafotidan keyingi bir asrda ko'chirilgan nusxalar.

Ixtiyorimizdagi katalogga ko'ra birinchi guruhga jami 6 ta, ikkinchi guruhga esa 19 ta nusxa kirishi ma'lum bo'ldi. Mazkur nusxalar ichida qadimiy va mo'tabar hisoblangan, hashamat va did bilan ishlangan Navoiy kulliyoti – Revan 808 nusxasi tarkibidagi “G'aroyib us-sig'ar”ni tayanch nusxa etib belgiladik. Shoir hayotlik chog'ida ko'chirilgan nusxalarni birinchi darajali yordamchi nusxalar, keyingi bir asrga oidlarini esa ikkinchi darajali yordamchi nusxalar deb tasnifladik va yuqoridagi jadval asosida tadqiqotda shartli nom bilan atadik:

1. Tayanch nusxa: TurkN – Revan 808 (jadvalga ko'ra bu

nusxa TurkN1 bo'lishi kerak edi, ammo biz bu nusxani tayanch qilib olganimiz uchun TurkN deb nomlashga qaror qildik).

2. Birinchi darajali yordamchi nusxalar:

- 1) TN1 – 3984 (XV asr oxiri)
- 2) TN2 – 1973 (XV asr)
- 3) RN1 – 55 (904 / 1498 – 1499)
- 4) RN2 – 558 (1001 – 1004 / 1492 – 1496)
- 5) TurkN1 – 802 (906 / 1500 – 1501)

3. Ikkinchi darajali yordamchi nusxalar.

- 1) TN3 – 677 (XV – XVI asrlar)
- 2) TN4 – 1280 (XVI asr)
- 3) TN5 – 4007 (XVI asr)
- 4) RN3 – 58 (XVI asr)
- 5) TurkN2 – 808 (910 / 1505 – 1505)
- 6) TurkN3 – 807 (932 / 1525 – 1526)
- 7) TurkN4 – 4056 (XVI asr)
- 8) TurkN5 – 803 (939 / 1532 – 1533)
- 9) TurkN6 – 806 (940 / 1533 – 1534)
- 10) TurkN7 – 496 (972 / 1564)
- 11) TurkN8 – 3880 (956 / 1549)
- 12) TurkN9 – 1946 (943 / 1536 – 1537)
- 13) TurkN10 – 3981 (958 / 1551)
- 14) TurkN11 – 466 (982 / 1574 – 1575)
- 15) ON – 8037 (937 / 1565 – 1566)
- 16) PN3 – 108 (930 – 931 / 1523 – 1524)
- 17) PN4 – 994 (937 / 1530 – 1531)
- 18) PN5 – 991 (1540)
- 19) PN5 – Turc 317 (1526 – 1527)

Parij nusxalarni raqamlash 1 sonidan boshlanmadi, bu borada biz jadval ko'rinishiga tayandik, bu Alisher Navoiy hayotlik chog'ida ko'chirilgan nusxa Parijda mavjud emasligini ham bildiradi.

Yig'ma-qiyosiy matn tuzishning shartlari haqida Sh. Sirojiddinov shunday yozadi:

- qo'lyozmalar va jalb etilgan nusxalarning tavsifini keltirish;
- barcha qo'lyozma nusxalarni shartli belgi bilan belgilash;
- xat turi va matn strukturasi saqlash;
- asarning boshqa nusxalari bo'lmagan taqdirda nisbatan to'liq nusxani tayanch matn sifatida qabul qilish;
- asosiy matnda yordamchi nusxalarni shartli belgilar bilan nomlash;
- matniy tafovutlarni jadvallarda ko'rsatish;

- barcha jalb etilgan nusxalardagi matnlarni umumlashtirish [Сирожиддинов 2019, 33].

Shu o'rinda olimning "...yig'ma-qiyosiy matn asar nusxalari kam yoki ishonchli qadimiy qo'lyozma nusxalar mavjud bo'lmaganda amalga oshiriladi" [Сирожиддинов 2019, 30], – degan yondashuviga to'xtalib o'tsak. Chunki "G'aroyib us-sig'ar"ning muallif qo'li bilan yozilgan nusxasi mavjud bo'lmasa-da, bir qancha qadimiy nusxalari – Alisher Navoiy tiriklik chog'ida ko'chirilgan qo'lyozmalari bor. Demak, yig'ma-qiyosiy matn tuzishga ehtiyoj yo'qmi?

Yana ehtimoliy e'tiroz yoki munosabatlardan biri shunday bo'lishi mumkin: nima uchun barcha qo'lyozmalarni tadqiqotga jalb qilish kerak? Ularning barchasini ko'rib chiqishning amaliy ahamiyati yoki ilmiy manfaati bormi? Atoqli matnshunos P.Shamsiyev ham: "... Navoiy asarlarining tekstologiya ishida turli asrlarda o'zgarishlarga uchragan ... nusxalarga murojaat qilish ishni murakkablashtirib yuboradi, farqlar soni ko'payib, tekstdan foydalanish qiyinlashadi... Mumkin qadar ixcham, foydalanish va murojaat qilish uchun yengil hamda ishonchli kritik tekst yaratishimiz lozimdir" [Навоий 1956, IX] – deb yozgan edi.

Bu yondashuvlarga biz bunday munosabat bildiramiz: ikki fikrning umumiy nuqtasi shuki, olimlar matnshunoslik tadqiqotiga, u xoh tanqidiy, xoh yig'ma-qiyosiy bo'lsin, jalb etiladigan nusxalar miqdori ko'payib ketmasligi, balki eng qadimiy nusxalarni tanlab olib, ular ustida ishni olib borish maqsadga muvofiqdir deb hisoblamogdalar. Qo'lyozmalarning har biri bilan xos va chuqur tanishmaslik ular haqidagi haqiqatlar ro'yobga chiqmasligiga sabab bo'ladi. Chunki har bir qo'lyozma o'zida boshqa bir nusxada bo'lmagan xos jihatni yoki muhim ma'lumotni saqlashi mumkin. *Ikkinchidan*, muallif dastxati tanqidiy matn masalasini hal qiladi deb hisoblanadi, ammo muallif qo'li bilan yozilgan yoki ko'chirilgan nusxa mavjud emas, boshqa nusxalarning esa o'zidan avvalgi qaysi qo'lyozma asosida ko'chirilgani haqida bilmaymiz, balki mazkur nusxalardan birortasi, masalan, qadimiy emas deya chetga surib qo'yganimiz aynan muallif dastxatidan ko'chirilgan bo'lsa, ne ajab? Albatta, biz buni isbotlay olmaymiz, lekin nusxani tadqiq qilish jarayonida boshqa qo'lyozmada uchramaydigan nuqtalar unda topilib, bizni tanqidiy matnga – ishonchli, birlamchi manbaga yaqinlashtirish ehtimoli paydo bo'ladi. *Uchinchidan*, har bir nusxa o'z davri kontekstiga oid bo'lgan muayyan jihatlar haqidagi axborotni o'zida saqlaydi. Masalan, kotibning matnga o'zgartirish kiritishi ikki sabab bilan sodir bo'ladi: birinchisi, g'ayriixtiyoriy ravishda,

kotibning o'ziga bog'liq bo'lmagan o'zgartirish bo'lib, u charchoq, chalg'ish oqibatida yuzaga keladi. Inson o'zi yozgan matnni qayta-qayta o'qiyversa, matn uning ongiga ko'chib o'tadi, xato yoki yanglish yozilgan so'zni ong o'z istagandek o'qiyveradi, natijada, yo'l qo'yilgan nuqson tahrirlanmay qolib ketadi. Ahamiyatli jihati shuki, mana shu nuqson yoki yanglish yozilgan so'z ostida matn ko'chirilgan davr kontekstining muayyan belgisi namoyon bo'ladi. Buni xatoliklarni umumlashtirish va tasniflash asnosida aniqlash mumkin deb o'ylaymiz. Albatta, bu alohida tadqiq masalasi, biz hozir tadqiqotga keng miqdordagi nusxalarni jalb qilish sabablarini izohlamodamiz. Kotibning matnga kiritadigan ikkinchi tur o'zgarishi ongli ravishda bo'lishi ham mumkin. U o'z davri siyosati yoki talabidan kelib chiqib matnni qisqartirishi yoki o'zi biror parchani qo'shib yuborishi, o'zi murojaat qilgan nusxada tushunarsiz joylari chiqib qolsa, ma'noga qarab tuzatgan bo'lishi mumkin. Buni matnshunos tadqiq davomida ishonchli metodlarni qo'llash yordamida aniqlay oladi. Ana shu o'zgartirishlarni ham matndan alohida ajratib olib, sistematik tahlil qilish ilmga ahamiyatli xulosalarni taqdim etish ehtimolini rad qilib bo'lmaydi. *To'rtinchidan*, matnshunos mutaxassisda o'zi tadqiqqa tortgan matnning har bir nusxasi, tarkibi, sifati, uni ko'chirgan kotiblar haqida tizimli va ishonchli, ko'zi ko'rib, aqli tasdiqlagan ma'lumotlar bo'lishi lozim deb o'ylaymiz. Matnshunos biror nusxani tanqidiy matn uchun jalb qilmasa, agar u mazkur nusxa haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa, nima uchun buni tadqiqotga tortmaganini bemalol tushuntirib, asoslab bera oladi. Ammo buning uchun nusxani yig'ma-qiyosiy matn tuzish jarayonida atroflicha o'rgangan bo'lishi lozim. Shu tariqa matnshunosda uning ob'ekti bo'lgan manbaning muayyan zamon yoki makonga tegishli, fanga ma'lum bo'lgan nusxalari haqida tugal va keng axborotlar ombori paydo bo'ladi.

Shunday ekan, biz yig'ma-qiyosiy yoki tanqidiy matn bo'lsin, turli nusxalarni chetlab o'tib, eng qadimiysiga murojaat qilamiz, ilmiy apparat kengayib ketmasligi kerak, foydalanuvchiga murakkablik tug'ilmasin deya barmoq bilan sanarli nusxalar bilan qanoatlansak, yuqorida zikr etilgan ilmiy manfaatlardan mahrum qolamiz. Ilmiy apparatda tuzatishlarning ko'p bo'lishi masalasida bir jihatga diqqat qaratish lozim. Ma'lumki, ilmiy tadqiqot hosilasi faqat ilmiy doiralarda muhokama qilinadi, keng omma kitobxonlari ko'tarilgan masalalarga kirib kelishi mashaqqatli va ehtimoli kam jarayondir. Ilm ahli esa o'z sohasiga oid masalalarda sinchkov va g'ayratli bo'larkanlar, ilmiy apparat ma'lumotlari ular uchun malollik tug'dirmaydi, balki

yangi ilmiy xulosa, to'xtamlarga yetaklashi mumkin.

Shu o'rinda yana bir mulohaza bor.

Yig'ma-qiyosiy matnning ahamiyati qaysi nuqtagacha davom etadi?

Sh. Sirojiddinovga ko'ra, "... yig'ma-qiyosiy matn qaysidir bosqichda asarning asosiy matni sifatida qaralishi mumkindir, lekin ilmiy-tanqidiy matn tuzilganidan so'ng ahamiyatini yo'qotadi" [Сирожи́ддинов 2019, 33]. Qaysidir ma'noda olimning bu yondashuviga qo'shilish mumkin, ammo bizning fikrimizcha, yig'ma-qiyosiy matn faqat tanqidiy matn tuzish uchun xizmat qilib qolmaydi, balki u o'zida muayyan davr va muayyan jo'g'rofiy hudud xattotlari, kotiblari, kitobchilik an'analari haqida ma'lumotlarni saqlab turishi, imlo va yozuv uslubidagi farqlar xronologiyasini o'zida aks ettirishi bilan tanqidiy matn bilan teppa-teng ilmiy ahamiyatini saqlab turadi.

Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari fihristi haqida

Kezi kelganda navoiyshunoslikdagi yana bir bo'rtib turgan masalaga to'xtalib o'tish joiz. Chunki aynan shu muammo sababli tadqiqot obyektlarini aniq va ishonchli shakllantirishda biz bir qancha to'siqlarga uchrashimiz, tabiiy. Bu Alisher Navoiy asarlarining jahon qo'lyozma fondlaridagi barcha nusxalari katalogini yaratish masalasidir. Bu haqda A. Erkinov o'z mulohaza va tavsiyalarini bayon etgan [Erkinov 2022, 29-35]. A. Erkinov Alisher Navoiy qo'lyozmalari fihristini yaratish ishlari boshlangani, ammo uni tizimli davom ettirib, takmiliga etkazib, yakunlash kerakligini ta'kidlaydi. Chunki dunyo bo'ylab shoir asarlari nusxalarining adadi, tarkibi haqida batafsil ma'lumotlar ombori mavjud emas, bu esa, tabiiyki, har bir matnshunos tadqiqotchi uchun muayyan qiyinchiliklarni tug'dirish bilan bir qatorda ilmiy xulosalar sifati, ishonchliligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu masalalarni nazarda tutib, xususan, O.Jo'raboyev ham bu haqda o'z munosabatini bayon etgan edi: "Navoiy asarlarining qo'lyozmalarini aniq umummiqdorini bilish, tavsiflarini hozirlash va katalog sifatida nashr etish kun tartibidagi dolzarb vazifalardandir" [Жўрабоев 2016, 32-38].

Yig'ma-qiyosiy matn tuzilgach, uning ustida amalga oshiralajak tadqiqotlar miqyosi ancha keng bo'ladi, har bir qo'lyozma tavsifi, sahifalardagi nuqsonlar, o'zgarishlar, yanglishishlar nuqtama-nuqta aks ettirilarkan, yuqorida aytganimizdek, unga murojaat qilish bilan mutaxassislarning turli metodologiyaga tayangan tadqiqotlari natijasida ishonchli xulosalarga kelishlari mumkin. Asosiysi, ya'ni

bizning mavzumizga aloqador jihati shuki, tanqidiy matn tuzish uchun ustqurma qo'lg'a kirgan hisoblanadi.

“G'aroyib us-sig'ar”ning yig'ma-qiyosiy matni qayd etganimiz tartibda va belgilangan nusxalarga suyanib amalga oshiriladi. Devon matnlarini qayta-qayta ko'zdan kechirish o'qish tezligini oshiradi, natijada, boshlang'ich bosqichda ikki yoki uch nusxani qiyoslash undan keyingi solishtirish ishlari jadallik bilan davom etishiga olib boradi.

Yig'ma-qiyosiy matn asosida “G'aroyib us-sig'ar” matnlari kontekstual tahlil metodologiyasi mezonlari bilan tahlil etiladi. Unga ko'ra har bir she'r (g'azal, musammat, qit'a, ruboiy va hkz) matni yaxlit manzara, tugal ma'no anglatishiga ko'ra qismlarga – kontekstlarga ajratib chiqiladi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarga diqqat qaratiladi. Muayyan she'r matnidagi biror ma'no tuguni devonning boshqa joyida kelayotgan matndagi kontekst asosida yechilishi mumkin. Matnlar ustida bunday ishlash texnikasi asl matnga maksimal yaqinlashishga imkon beradi deb o'ylaymiz. Buning qanchalik natijador ekanligini mavzumiz doirasiga kiradigan navbatdagi bosqich tadqiqotlarimiz ko'rsatadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Alisher Navoiy matnlarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida o'rganish ishlari zamonaviy ilm-fan kontekstida Toshkentda Birinchi Jahon urush davrida Y. E. Bertels boshchiligida boshlangan bo'lib, o'zbek olimlari S. Mutallibov, G.Karimov, P. Shamsiyevlar uning ilmiy rahbarligida Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnlari ustida ish olib borganlar. Mazkur matnshunoslik tadqiqotlari shoir matnlarini zohiriy belgilarga ko'ra formal o'rganishi bilan xarakterlanadi. Matnshunoslik badiiy matn mohiyati, g'oyasi, badiiy shakli bilan bevosita bog'lanishi lozim, matnshunos resiniyentni matn ichiga yetaklab kira oladigan metodologiya bilan ishlashi kerak. Lekin bunday metodologiya hali shakllantirilmagan, Navoiyshunoslik, xususan, matnshunoslikning ilmiy-metodologik masalalari hali o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar qatorida turibdi.

2. Istiqbolda amalga oshiriladigan matnshunoslik tadqiqotlari bevosita salaf navoiyshunoslarning tadqiqotlarini sinchiklab o'rganish, ularning ilmiy faoliyatini qadrlash va munosib ilmiy baho berish bilan boshlanishi kerak. Shunda avvalgilarning ishlarini

takrorlashga yo'l qo'yilmaydi, to'ldirilishi kerak bo'lgan o'rinlar to'ldiriladi, tuzatilishi lozim bo'lgan yanglishishlar tuzatiladi, Alisher Navoiy merosini o'rganish bobida taraqqiyotga erishiladi, shoir matnlarining mohiyati, ularning haqiqatiga yaqinlashib boriladi.

3. Alisher Navoiy "Xamsa"si dostonlarining tanqidiy matnlari bilan bog'liq asosiy tadqiqotlar P. Shamsiyev, lirik merosining matnshunoslik izlanishlari esa, asosan, H. Sulaymonov tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur ishlar o'z davrining talabi, holati, xususiyati va imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi va kelgusi tadqiqotlar uchun ustqurma vazifasini bajaradi.

4. Tanqidiy matn muallif matniga eng yaqin, ishonchli, tekshirilgan matn bo'lib, mumtoz asarning boshqa aspektlardagi tadqiqotlari bevosita mazkur birlamchi manbaga tayanishi kerak. Tanqidiy matn eng qadimiy va nisbatan ishonchli bo'lgan nusxalarni tanqidiy solishtirish va saralash bilan tuzilishi ilmiy jihatdan talab qilingan natijani bermasligi mumkin. Tanqidiy matnni tuzishda tadqiqotchi matn kontekstiga suyangan (ya'ni kontekstual tahlil metodlariga tayangan) holda ish olib borishi uni maksimal darajada ishonchli va haqiqatga yaqin bo'lishini ta'minlaydi.

5. "G'aroyib us-sig'ar" tanqidiy matni deb ko'rsatib kelina-yotgan H.Sulaymonov tadqiqoti olimning o'zi belgilab olgan prinsip va tamoyillarga to'liq mos kelmasligi ma'lum bo'ldi. Bu esa Alisher Navoiy lirikasining tanqidiy matnlari ustidagi ishlarni davom ettirishga ehtiyoj borligini ko'rsatdi.

6. Mumtoz badiiy asarning tanqidiy matnini tuzish uchun avvalo, yig'ma-qiyosiy matn ustida tadqiqot olib borish kerak. Buning uchun tadqiqot obyekti nusxalari haqida ma'lumotlar bo'lishi kerak. So'ng tadqiqotchi o'zi tadqiqqa tortgan nusxalarni chegaralab oladi: muayyan hudud yoki muayyan davrda ko'chirilgan nusxalarning fanga ma'lum bo'lgan barchasini aniqlab, yig'ib olishi kerak. So'ng bu nusxalarni tasniflab, qiyoslash ishlarini boshlab yuboradi. Ilmiy apparatda har bir farq va tafovut ko'rsatib boriladi. Yig'ma-qiyosiy matnda tadqiqotchi qat'iy fikr aytmaydi, balki u ko'rsatkichlar keltirish bilan cheklanadi. Bir qancha tafovutlar ichidan qaysi biri haqiqatga to'g'ri kelishi, ya'ni asl matnga oidligini belgilash tanqidiy matn tuzishda amalga oshiriladigan ish sanaladi. Yig'ma-qiyosiy matn tuzilgach, kontekstual tahlil asosida tadqiqot olib boriladi. Bu tadqiqotda yig'ma-qiyosiy matndagi har bir matn, matniy bo'lak, parchalar alohida holda tashqi manbalarga tayangan izohlarsiz o'rganiladi, ularning botiniy ma'nosi matnning boshqa qismidagi parcha bilan izohlanadi, tushuntiriladi. Matn bir muallifga

tegishli bo'lgani uchun uning qismlari (kontekstlari) bir-birini rad etmaydi, balki to'ldirib, izohlab, tushuntirib keladi. Bu metod ishonchli va asl matnga yetaklab boradigan yo'l hisoblanadi.

6. Alisher Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalarining dunyo fondlaridagi adadi, sifati, tarkibi hali navoiyshunoslikka ma'lum emas. Bugun shoir asarlari qo'lyozmalarining to'liq fihristini tuzish bilan birgalikda uning ijodi, hayoti bilan bog'liq barcha tadqiqotlar (maqola, monografiya, risola, kitob, dissertatsiya va badiiy asarlar) jamlangan, tizimlashtirilgan platforma yaratish dolzarb masalaga aylangan. Chunki vaqt o'tgani sayin navoiyshunoslik tadqiqotlari ko'payib bormoqda, tadqiqot jo'g'rofiyasi kengaymoqda, olimlar hamkasblarining ayni sohadagi yangiliklaridan yetarli darajada xabar topa olmasligi, kerakli ma'lumot va manbalardan foydalanish imkoniyati yo'qligi takrorlarga sabab bo'lib qoladi.

“G'aroyib us-sig'ar” devonining, avvalo, yig'ma-qiyosiy matnini tuzish, uning ustida kontekstual tahlil metodologiyasi (bu metodologiya haqida alohida tadqiqotda batafsil bayon etiladi) asosida tadqiqot olib borib, so'ng izohlar, ko'rsatkichlar, lug'atlar ilova qilingan tanqidiy matnini ishlab chiqish galdagi vazifalarimizdandir.

Adabiyotlar

- Алишер Навои. 1948. *Возлюбленный сердце*. Сводный текст подготовил А. Н. Кононов. Москва – Ленинград: Издательство Академии наук СССР.
- Алишер Навоий. 1990-рақамли қўлёзма факсимилеси. Тожикистон РФА Шарқшунослик институти, Душанба, Тожикистон.
- Алишер Навоий. 2016. *Ғаройиб ус-сиғар: танқидий матн*. Тузувчи: Ҳ. Сулаймонов. Тошкент: MUMTOZ SO'Z.
- Алишер Навоий. 2021. *Муҳокамат ул-луғатайн: илмий-танқидий матн*. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Юсуфхон Турсунов. Тошкент: Фан. – 160 б.
- Алишер Навоий. 1956. *Сабъаи сайёр: танқидий матн*. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. *Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сиғар*. Фотиҳ 4056-рақамли қўлёзма факсимилеси. Сулаймония кутубхонаси, Тўпқопи сарой музейи, Истанбул, Туркия.
- Алишер Навоий. 2020. *Куллиёт*. Тўпқопи саройи музейи кутубхонаси. Инв.: Реван 808. Факсимил нашр. Нашрга тайёрловчи: Гунай Кут. Истанбул. – 1677 б.
- Алишер Навоий. 1970. *Ҳайрат ул-аброр: танқидий матн*. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. Тошкент: Фан.
- Адабиётшунослик луғати*. 2013. Д. Қуронов, З. Мамажонова, М.

- Шералиева. Тошкент: Akademnashr.
- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 1983 (1). Тўрт томли. 1-том. Э. Фозилов таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 1983 (2). Тўрт томли. 2-том. Э. Фозилов таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 1984. Тўрт томли. 3-том. Э. Фозилов таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 1985. Тўрт томли. 4-том. Э. Фозилов таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий: қомусий луғат. 2016 (1). Икки жилдлик. 1-жилд. Масъул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов. Тошкент: Sharq.
- Алишер Навоий: қомусий луғат. 2016 (2) Икки жилдлик. 2-жилд. Масъул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов. Тошкент: Sharq.
- Навоий асарлари луғати. 1973. Тузувчилар: П. Шамсиев ва С. Иброҳимов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Навоий тили луғати. 2008. 1-жилд. Тузувчи: Б. Юсупов. Тошкент: Шарқ.
- Хоксор, Муҳаммад Ризо. 2017. *Мунтахаб ул-луғот. Зубд ул-луғот*. Тошкент: Akademnashr.
- Ганиева, С. 1956. *"Маджалис-ун-нафаис" Алишера Навои (литературно-исторический анализ и критический текст III и IV маджлисов)*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Санкт-Петербург.
- Исломов, Ҳ. 1990. *"Насойим ул-мухаббат" Алишера Навои и его научно-критический текст*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Мадалиева, О. 2021. *Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи (ЎзР ФА Шарқшunoslik институти фонди қўлёзмалари асосида)*. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. Тошкент.
- Рашидова, М. 1991. *Алишер Навоий "Назм ул-жавоҳир" асарининг матний тадқиқоти*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Сулейманов, С. 1956-1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навоий*. Дисс. соискание ученой степени доктора филологических наук. Тошкент – Москва.
- Султон, И. 1947. *Навоийнинг "Мезон ул-авзон" асари ва унинг критик тексти*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Халилов, Л. 1975. *Алишер Навоий "Тарихи мулуки Ажам" асарининг текстологик тадқиқоти*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Ҳамидова, М. 1994. *Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Шамсиев, П. 1952. *Алишер Навоий "Сабъаи сайёр" достонининг*

илмий-критик тести ва уни тузиш принциплари ҳақида. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.

- Шамсиев, П. 1969. *Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари.* Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Шодмонов, Ғ. 2021. *Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари, тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни.* Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Тошкент.
- Зоҳидов, Р. 2015. *“Саботул ожизин” асари матни, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари.* Тошкент: Turon zamin ziyo.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф.* Тошкент: Movarounnahr – O‘zbekiston.
- Комилов, Н. 2005. *Хизр чашмаси.* Масъул муҳаррир: С. Олимов. Тошкент: Маънавият.
- Шайхзода, М. 1972. *Ғазал мулкининг султони.* Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. Нашрга тайёрловчи: Н. Маллаев. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Сирождидинов, С. 2019. *Матншунослик сабоқлари.* Тошкент: Navoiy universiteti.
- Жўрабоев, О. 2016. “Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари”. *“Алишер Навоий ва ХХI аср” мавзuidaги Республика илмий-назарий анжумани материаллари*, 32 – 38. Тошкент: Tamaddun.
- Эркинов, А. 2017. “Алишер Навоий “Хазойин ул-маоний”си ва унинг протодевони масаласи (Машҳадий қўлёзмаси асосида, 898/1492-93 йил)”. *“Алишер Навоий ва ХХI аср” мавзuidaги Республика илм-назарий анжумани материаллари*, 19 – 38. Тошкент: TAMADDUN.
- Офоқ, Н. 2022. “Навоий ва психоанализ”. Тафаккур 3: 74 – 81. Тошкент.
- Эркинов, А. 2022. “Алишер Навоий қўлёзмалари бутун жаҳон феҳрестини яратиш масаласи”. *Алишер Навоий* 1: 29 – 35. Тошкент.
- Российская национальная библиотека.* Манба:
https://ru.wikipedia.org/wiki/Российская_национальная_библиотека
Фойданилган сана: 18. 11. 2023.

Text research in the context of Navoi study (In the example of the deewan "Gharoib al-sighar")

Akrom Malikov¹

Abstract

The article raises the issue of studying the texts of Alisher Navoi. In particular, studies related to critical and summary texts, their characteristics, and textual studies in Navoi studies are analyzed. The author focused on the methodological foundations of textual criticism and systematized views on this matter. Today, the main problem seems to be the study of the texts of the thinker's works from the primary source and the scientific value of the cumulative and comparative text. The author of the article focused on the critical text of "Garaib al-sighar", which was prepared by Hamid Sulaymanov, and emphasized the scientific need for a brief and comparative text of this book. He also touched upon the principles of compiling a collective and comparative text of "Garaib al-sighar" and provided information about the manuscript sources involved in research on this issue. The author shows how important news the comparative text provides in theoretical terms and to what extent they serve for further research.

Key words: *Text, textual criticism, scientific-critical text, summary text, method, methodology, context, contextual analysis.*

References

- Alisher Navoi. 1948. *Vozlyublennyy serdes*. Svodnyy tekst podgotovil A. N. Kononov. Moskva – Leningrad: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR.
- Alisher Navoiy. 1990-raqamli *qo'lyozma faksimilesi*. Tojikiston RFA Sharqshunoslik instituti, Dushanba, Tojikiston.
- Alisher Navoiy. 2016. *G'aroyib us-sig'ar: tanqidiy matn*. Tuzuvchi: H. Sulaymonov. Toshkent: MUMTOZ SO'Z.
- Alisher Navoiy. 2021. *Muhokamat ul-lug'atayn: ilmiy-tanqidiy matn*. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Yusufxon Tursunov. Toshkent: Fan. – 160 b.
- Alisher Navoiy. 1956. *Sab'ai sayyor: tanqidiy matn*. Tuzuvchi va nashrga

¹ Akrom A. Malikov a doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

E-mail: akrommalik@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9515-439X

For citation: Malikov A. M. 2023. "Text research in the context of Navoi study (In the example of the deewan "Gharoib al-sighar")". *Golden scripts* 3: 33-65.

- tayyorlovchi: P. Shamsiev. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. *Xazoyin ul-maoniy: G'aroyib us-sig'ar*. Fotih 4056-raqamli qo'lyozma faksimilesi. Sulaymoniya kutubxonasi, To'pqopi saroy muzeyi, Istanbul, Turkiya.
- Alisher Navoiy. 2020. *Kulliyot*. To'pqopi saroyi muzeyi kutubxonasi. Inv.: Revan 808. Faksimil nashr. Nashrga tayyorlovchi: Gunay Kut. Istanbul. – 1677 b.
- Alisher Navoiy. 1970. *Hayrat ul-abror: tanqidiy matn*. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: P. Shamsiev. Toshkent: Fan.
- Adabiyotshunoslik lug'ati*. 2013. D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheraliev. Toshkent: Akademnashr.
- Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati*. 1983 (1). To'rt tomli. 1-tom. E. Fozilov tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati*. 1983 (2). To'rt tomli. 2-tom. E. Fozilov tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati*. 1984. To'rt tomli. 3-tom. E. Fozilov tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati*. 1985. To'rt tomli. 4-tom. E. Fozilov tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy: qomusiy lug'at*. 2016 (1). Ikki jildlik. 1-jild. Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.
- Alisher Navoiy: qomusiy lug'at*. 2016 (2) Ikki jildlik. 2-jild. Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.
- Navoiy asarlari lug'ati*. 1973. Tuzuvchilar: P. Shamsiev va S. Ibrohimov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Navoiy tili lug'ati*. 2008. 1-jild. Tuzuvchi: B. Yusupov. Toshkent: Sharq.
- Xoksor, Muhammad Rizo. 2017. *Muntaxab ul-lug'ot. Zubd ul-lug'ot*. Toshkent: Akademnashr.
- Ganieva, S. 1956. *“Madjalis-un-nafais” Alishera Navoi (literaturno-istoricheskiy analiz m kriticheskiy tekst III i IV madjlisov)*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Sankt-Peterburg.
- Islomov, H. 1990. *“Nasoyim ul-muxabbat” Alishera Navoi i yego nauchno-kriticheskiy tekst*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent.
- Madaliev, O. 2021. *Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi (O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi qo'lyozmalari asosida)*. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoreferati. Toshkent.
- Rashidova, M. 1991. *Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining matniy tadqiqoti*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent.
- Suleymanov, S. 1956-1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoiy*. Diss. soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. Toshkent – Moskva.
- Sulton, I. 1947. *Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari va uning kritik teksti*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

- diss... Toshkent.
- Xalilov, L. 1975. *Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarining tekstologik tadqiqoti*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent.
- Hamidova, M. 1994. *Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi*. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent.
- Shamsiev, P. 1952. *Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik testi va uni tuzish prinsiplari haqida*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent.
- Shamsiev, P. 1969. *Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari*. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Toshkent.
- Shodmonov, G'. 2021. *Porso Shamsiev ilmiy laboratoriyasi: tadqiq usullari, tamoyillari, matnshunoslik taraqqiyotidagi o'rni*. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. Toshkent.
- Zohidov, R. 2015. *"Sabotul ojizin" asari matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari*. Toshkent: Turon zamin ziyo.
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston.
- Komilov, N. 2005. *Xizr chashmasi*. Mas'ul muharrir: S. Olimov. Toshkent: Ma'naviyat.
- Shayxzoda, M. 1972. *G'azal mulkingning sultoni*. Asarlar. Olti tomlik. To'rtinchi tom. Nashrga tayyorlovchi: N. Mallaev. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Sirojiddinov, S. 2019. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: Navoiy universiteti.
- Jo'raboev, O. 2016. "Navoiy asarlari qo'lyozma va matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari". *"Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari*, 32 – 38. Toshkent: Tamaddun.
- Erkinov, A. 2017. "Alisher Navoiy "Xazoyinul-maoniy" si va uning protodevoni masalasi (Mashhadiy qo'lyozmasi asosida, 898/1492-93 yil)". *"Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi Respublika ilm-nazariy anjumani materiallari*, 19 – 38. Toshkent: TAMADDUN.
- Ofoq, N. 2022. "Navoiy va psixoanaliz". *Tafakkur* 3: 74 – 81. Toshkent.
- Erkinov, A. 2022. "Alisher Navoiy qo'lyozmalari butun jahon fehrestini yaratish masalasi". *Alisher Navoiy* 1: 29 – 35. Toshkent.
- Rossiyskaya natsionalnaya biblioteka*. Manba:
https://ru.wikipedia.org/wiki/Rossiyskaya_natsionalnaya_biblioteka
Foydanilgan sana: 18. 11. 2023.

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Turkiy adabiyotda arba'innavislik an'anasi:
Alisher Navoiy va Muslihiddin Mustaf o Axtariy
"Arba'in"lari misolida**Dilnavoz Yusupova ¹**Abstrakt**

Mazkur maqolada Sharq musulmon adabiyotidagi arba'innavislik an'anasi haqida so'z boradi. Turkiy adabiyotda Alisher Navoiydan boshlangan bu an'ana ozarboyjon adabiyotida Muhammad Fuzuliyning "Qirq hadis" asari bilan davom etdi. XVI asrda usmonli turk adabiyotida Muslihiddin Mustaf o Axtariy ham bu an'anaga munosabat bildirib, o'zining "Qirq hadis kitobi" asarini yaratdi. Maqolada Axtariyning ushbu asari Alisher Navoiyning "Arba'in"i bilan qiyoslangan va har ikki asardagi umumiy va farqli jihatlar tadqiq etilgan. Agar Navoiy hadislarning badiiy talqini uchun *qit'a* she'riy shaklidan foydalangan bo'lsa, Axtariy to'rtliklari o'zaro qofiyalanuvchi *masnaviy* shaklida bitilgan. Navoiy hadislar ifodasi uchun xafif bahrini tanlagan, Axtariy to'rtliklarida esa turkiy til imkoniyatlarini o'zida yengil ifoda etuvchi ramal bahri qo'llanilgan. Shuningdek, maqola muallifi Alisher Navoiy va Muslihiddin Mustaf o Axtariy asarlaridagi o'n sakkizta hadishning mazmun jihatdan umumiy ekanligini aniqlagan.

Kalit so'zlar: *arba'innavislik, an'ana, hadis, roviy, qit'a, masnaviy, xafif, ramal.*

Kirish

Arba'innavislik Sharq musulmon adabiyotida keng tarqalgan adabiy an'analardan biri bo'lib, tanlab olingan qirqta hadis asosida asar yaratishni anglatadi. Dastavval arabiyzabon adabiyotda paydo bo'lgan bu an'ana asrlar osha fors va turkiy xalqlar adabiyotida ham keng tarqaldi. Olimlarning ma'lumot berishicha, ilk "Arba'in"ning

¹ Yusupova Dilnavoz Rahmonovna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

Iqtibos uchun: Yusupova, D. R. 2023. "Turkiy adabiyotda arba'innavislik an'anasi: Alisher Navoiy va Muslihiddin Mustaf o Axtariy "Arba'in"lari misolida". *Oltin bitiglar* 3: 66-77.

muallifi Abdulloh ibn Muborak Marvaziydir (736–797). Uning asari garchi o'sha davr an'alariga ko'ra arab tilida yaratilgan bo'lsa-da, Abdullohning otasi aslida Xorazm turkiylaridan Muborak ibn Vozih bo'lgan va Abdulloh Muborak hozirgi Turkmanistonning Marv shahrida tavallud topgan. U butun umrini haj, mujohada, ilm va ibodatga baxshida etib, so'fiylik, fiqh, hadisshunoslik, tarix, filologiya va tafsirga oid asarlar yozgan. O'z davrida "ulamoyi shahanshohiy" degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan. Abdulloh Muborakning arba'innavislik an'anasiga asos solganini hisobga olib, arba'in janrini turkiy hodisa deb aytish mumkin.

Abdulloh ibn Muborak Marvaziy Payg'ambarimiz hadislarini orasidan qirqta hadisni saylab olib, hadislarining nasriy adabiy talqinini yaratgan. Undan keyin Ahmad ibn Nishopuriy, Aslam Tusiy va Muayyad Qurashiy bu an'anani davom ettirganlar [Камолов 2012, 13 – 14; Пулатова 2021, 21].

Olimlarning yakdillik bilan e'tirof etishlaricha, Payg'ambarimiz hadislaridan 40tasini tanlab olib, uning badiiy talqinini yaratish an'anasi zahirida quyidagi hadis yotadi: "Ummatimdan kimki din amri bilan qirq hadisni yod olsa, oxirat kunida men unga shafatchi bo'laman, Alloh uni allomalar va faqihlar jamoasiga qo'shadi" [Камолов 2012, 11; Жўшон 2012, 37; Пулатова 2021, 21; Абдулмажид 2014, 58].

Arba'innavislik tarixi

XI asrdan boshlab bu an'ana forsiy zabon xalqlar orasida ham keng yoyildi. Forsiy tildagi ilk arba'in Abdulloh Ansoriy (vaf. 1088) qalamiga mansub. Abu Hafs Nasafiy (1068–142), Ibrohim ibn Hasan Rabi' (vaf. 1334), Muhammad ibn Husayn ibn Ahmad Xalifa Nishopuriy, Shayx Alouddavla Simnoniy (1272–1336), Sa'duddin Taftazoniy (1313–1389) va boshqalar bu an'ananing munosib davomchilaridir.

Turkiy adabiyotda arba'innavislik an'anasi asosida yaratilgan eng qadimiy asarlardan biri bu Mahmud ibn Saroyining "Nahjul farodis" asaridir. Asar hijriy 761 (milodiy 1360) yili yozilgan va to'rt bob, har bir bobning tarkibiy qismi sanalgan o'nta fasldan – jami qirq fasldan iborat. Bu asar qirq hadis (chihil hadis)ni sharhlagan va har bir hadisga oid hikoyatlar bilan bezalgan asar bo'lgani bois uni shartli ravishda ilk turkiy arba'in deb atash mumkin.

Kuzatilganidek, dastlabki arba'inlar nasriy yo'lda yaratilgan bo'lsa, keyinchalik she'riy usulda yaratilgan arba'inlar ham vujudga kela boshladi. She'riy arba'inlar orasida Abdurahmon Jomiyning

“Chihil hadis” asari alohida o‘rin egallaydi. Jomiy asari 1481-yili yaratilgan bo‘lib, axloqiy-ta’limiy yo‘nalishdagi hadislar to‘plamidan iborat. Asar nasriy muqaddima, hadislarining arab tilidagi varianti va ularning forsiy tildagi she’riy talqinini o‘z ichiga oladi. Hadislarining aksariyati sahih va mashhur hadislar bo‘lib, ularning 9tasi Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy”, 11tasi Quzoiyning “Musnad ush-shihob”, qolganlari Imom Muslimning “Sahih”, Imom Termiziyning “Sunani Termiziy”, shuningdek, Imom Dorimiy, Abu Dovud, Nasoiy, Ibn Moja, Bayhaqiy, Suyutiy, Tabaroniy, Daylamiy kabi mashhur muhaddislarning hadislar to‘plamidan olingan [Камолов 2012, 20; Арбаџин 2016, 69].

Alisher Navoiyning “Arba’in” asari

Abdurahmon Jomiy asarining turkiy tildagi ilk tarjimasini Alisher Navoiy tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida shunday yozadi: “Ul vaqtdakim, alar (Abdurahmon Jomiy – D.Y.) “Arba’in hadis”ni forsiy nazm bilan tarjima qilib erdilar va ma’hud odat bilan borcha as’hobdin burunroq faqirg’a iltifot qilib, musavvadasin berdilar. Chun mutolaasig’a mashg’ul bo’ldum, alfozidin haloyiqi nomutanohi azhori va maonisin haqoyiqi ilohiy anvori zohir bo’la kirishti. Hamul “Arba’in”g’a turkicha til bilan tarjima orzusi ko’ngulg’a tushti. Alardin ruxsat sharafig’a musharraf bo’lg’ondin so’ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkig’a kirdi va ul gavharlar alarning qulog’ig’a yetti. Shafqat va marhamat yuzidin duoyi xayr bilan tahsinlar qildilar...” [Алишер Навоий 1999, 55].

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Arba’in” yoki “Chihil hadis” (“Qirq hadis”) asari inson axloq-odobiga doir 40 hadisning she’riy tarjimasini bo‘lib, Jomiy asari bilan bir davrda, ya’ni 1481-yili yozilgan. Asar an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi. Muqaddima – “Sababi ta’lifi manzuma”da Navoiy ustozini Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40tasini tanlab olib, forsiy tilda “Arba’in” yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganligini yozadi:

*Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu naf’din atrok.
Istadimki, bu xalq ham bori
Bo’lmaq’aylar bu naf’din oriy.
Men demakni chu muddao aylab,
Ul ijizat berib, duo aylab [Навоий 2000, 261].*

Shuningdek, Navoiy Jomiy o'z asarini hijriy 886 (milodiy 1481)-yili yozganini, u ham tez orada ustozidan ijozat olib, asarni bir-ikki kun ichida tamomlaganini aytadi:

*Bir-iki kunki ehtimom ettim,
Ko'z tutardin burun tamom ettim.*

Asarning umumiy hajmi –108 bayt. E'tiborli jihati, kirish (hamd va na't) va yakuniy qismlar bir xil – 5 baytdan iborat.

Asosiy qismda keltirilgan she'rlar shakl jihatidan qit'a singari bo'lib, bunda faqat juft misralar qofiyalangan va toq misralar ochiq qoldirilgan:

*Tengridin rahm agar tama' qilsang,
Avval o'lmoq keraksen elga rahim.
Har kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas rahimi karim.*

"Arba'in"dagi qit'alar xafif bahrining *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* yoki *maqtu'* (afoyli va taqti'yi: foilotun mafoilun failun yoki fa'lun, – V – – / V – V – / VV – yoki – –) vaznida bitilgan [Юсупова 2016, 223 – 224].

Alisher Navoiydan so'ng turkiy tilda arba'innavislik an'anasi ozarboyjon shoiri Muhammad Fuzuliy (1498–1556) tomonidan davom ettirildi. Fuzuliy asarining yozilgan yili noma'lum. Fuzuliy "Arba'in"i Jomiy asari singari nasriy muqaddima, asosiy qism – arab tilidagi hadis va uning she'riy talqini hamda xotimadan iborat. Shoir muqaddimada forsiy salafi Abdurahmon Jomiyning nomini alohida tilga oladi: "Bu qirq hadis mo'tabardir, balki, qirq dona gavhardirki, ustozlari kiromiy Abdurahmon Jomiy intixob etib, forstojikiy tarjima etmish... Umumiy fayz uchun tarjimayi turkiy olinur". Ozarboyjon shoiri negadir bu o'rinda Alisher Navoiyning asarini eslab o'tmaydi. Vaholanki, Fuzuliy "Arba'in"idagi hadislar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlaridagi hadislar bilan bir xil bo'lib, hadislarining badiiy talqini uchun tanlangan nazmiy shakl – qit'a hamda she'riy vazn (xafif bahri) ham saqlab qolingan.

Muslihiddin Mustafu Axtariy va uning "Qirq hadis" kitobi

Turkiy tilda arba'innavislik an'anasini davom ettirgan yana bir ijodkor Turkiyada yashab faoliyat yuritgan usmonli turk shoiri Axtariydir. Axtariyning "Qirq hadis kitobi" asari haqida ilk marta fanga ma'lum qilgan olim Mahmud As'ad Jo'shon bo'lib, uning "Qirq hadis an'anasi" maqolasi o'zbek va turk tillarida e'lon qilingan [Жўшон 2012, 37-51; Coşan 2017, 59-76]. Olim maqolaga Axtariy

asarining matnini ham ilova qilib, uning joriy alifbodagi varianti va turkcha tabdilini keltirgan. Ushbu maqola va asar matni orqali turk va o'zbek kitobxonlari usmonli turk shoirining "Arba'in"i bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi¹.

Mahmud As'ad Jo'shonning taxminiga ko'ra, Axtariyning asl ismi Muslihiddin Mustafu ibn Shamsiddin Muhammad bo'lib, 1561-yilda vafot etgan. U "Axtariy lug'ati" va bir qancha she'rlarning muallifi hamdir. Ijodkorning tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar hozircha fanga ma'lum emas.

Turk olimining xabar berishicha, "Qirq hadis"ning fanga bugunga qadar ikkita nusxasi ma'lum. Ulardan birinchisi Myunxen-Bavariya Davlat kutubxonasida, ikkinchisi Ko'nya shahrida Mavlono Jaloliddin Rumiya muzeyida saqlanadi. Mahmud As'ad Jo'shon foydalangan nusxa Myunxen-Bavariya Davlat kutubxonasida saqlanayotgan "Majmuat ur-rasoil" nomli asar qo'lyozmasi tarkibida – 148b–155a sahifalarda uchraydi [Жўшон 2012, 38].

"Qirq hadis" kitobi 36 baytdan iborat she'riy muqaddima bilan boshlanadi. Muqaddima masnaviy usulida qo'fiyalangan. Shoir "Dar sababi nazmi in ahodisi nabaviy (s.a.v)" deb sarlavhalangan bo'limda ushbu kitobni yozish sababiga to'xtalar ekan, yuqorida keltirganimiz hadisni eslab o'tadi:

*Ümmetimden, dedi, her kim cehd eder,
Kırk hadîsim okuyub ezber eder
Hak ânı, 'âlim deyü defter ede
Zühd ü takvâ ehline mihter ede.
Haşr edib ashâb-ı 'ilm ile Hüdâ
Eyleye cennât-ı Firdevs'i atâ.*

Axtariy "bu hadisni eshitganimdan so'ng menda hadislarni badiiy talqin qilish havasi uyg'ondi va forsiy tilda yozilgan "Arba'in"ni turkiy tilda bayon qilishga kirishdim" deb yozadi. Afsus, muqaddimada bu qaysi forsiy ijodkorning "Arba'in"i ekanligi aytib o'tilmagan. "Qirq hadis" kitobining asosiy qismi Payg'ambar hadislarining to'rtlik shaklidagi badiiy talqinidan iborat. Muallif avval har bir hadisning arab tilidagi asl matnini berib, so'ngra ushbu hadisning o'zi tomonidan amalga oshirilgan nazmiy variantini – turk tilidagi to'rtlikni keltiradi. Asosiy qism "Sizlardan birortangiz o'ziga ravo ko'rgan narsani musulmon birodariga ham ravo ko'rmaguncha chin mo'min bo'lolmaydi" degan mashhur

¹ Biz ushbu maqolaning turk tilidagi variantini topishda ko'maklashgani uchun turk olimi Dr.Kemal Yavuz Atamanga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

hadisning badiiy talqini bilan boshlanadi:

*Der hadîsinde o Fahr-i Enbiyâ
Mü'min adı olmaz ol şahsa revâ
Tâ ki kendi nefsine sandığını,
Sanmayınca halka dahi, ol ânı.*

Agar diqqat qaratilsa, Abdurahmon Jomiy, undan so'ng Alisher Navoiyning "Arba'in" asarlari ham aynan shu hadis bilan boshlanganini kuzatish mumkin. Alisher Navoiyda ushbu hadis quyidagicha talqin qilinadi:

*Mo'min ermastur, ulki iymondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
Toki qardoshiga ravo ko'rmas
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.*

Navoiy va Axtariy arba'inlari

Alisher Navoiyning "Arba'in" asaridagi hadislarni Axtariyning "Qirq hadis" kitobidagi hadislar bilan qiyoslaganimizda, ulardagi 18 hadis umumiy ekanligi ma'lum bo'ldi. Quyida ushbu hadislarni jadval asosida keltiramiz¹:

T.r.	Hadisning umumiy mazmuni va roviysi	Alisher Navoiy asaridagi talqini	Axtariy talqini
1.	Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsani birodariga ravo ko'rmaguncha, chin mo'min bo'lolmaydi (Anas ibn Molik r.a.)	Mo'min ermastur, ulki iymondin Ro'zgorida yuz safo ko'rgay, Toki qardoshig'a ravo ko'rmas - Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.	Der hadîsinde o Fahr-i Enbiyâ Mü'min adı olmaz ol şahsa revâ Tâ ki kendi nefsine sandığını, Sanmayınca halka dahi, ol ânı.
2.	Qo'lidan va tilidan musulmonlarga ozor yetmaydigan kishigina haqiqiy musulmondur. (Abdulloh ibn Amr r.a.)	Kim musulmonlig' aylasa da'vo Chin emas gar fido qilur jonlar. Ul musulmondururki, solimdur Tili-yu ilgidin musulmonlar.	Müslüman ol kimsedir kim, müslimûn Kavl ü fi'linden olalar sâlimûn. Hem elinden hem dilinden ey kişi Olmaya rencide andan bir kişi.

¹ Hadislarning roviylarini keltirishda Hasanxon Yahyo Abdulmajid va Husaynxon Yahyo Abdulmajid nashrga tayyorlagan "Arba'in" izohlaridan foydalanildi.

3.	Mo'min kishida ikki xislat jam' bo'lmaydi: baxillik va yomon xulqlilik. Abu Sa'id Xudriy (r.a.)	Mo'min ersang qilib durungni nisor, El bila ravshan o'l nechukkim sham'. Negakim, Tengri hech mo'minda, Buxl-u badxo'ylug'ni qilmadi jam'.	Ey kishi, musulimde bulmaz ictimâ, Mü'min olan andan eder imtinâ. Birisi buhl u biridir hulk-ı bed Mü'min isen bunları sen eyle red.
4.	Doim tahoratli yurgin, tahorat - tozalik rizq-u ro'zingni oshiradi. (Xolid ibn Valid r.a.)	Gar hamisha tahorating bo'lsa, Orig'ay foqa chirki ul suvdin. Tohir o'l istasang fuzun ko'ziy, Xosir ulkim yiturdy bul suvdin.	Diler isen ola rızkın bî-şumâr Ol tehâret üzre dâim üstüvâr, Bî-tehâret olma, rızkın kem eder Fakr u fâka bendini muhkem eder.
5.	Tonggi uyqu rizqni qisqartiradi. (Usmon r.a.)	Subh uyqusin ulki aylar tark Rizq-u ro'zin o'ziga to'sh ko'rgay. Ulki g'aflatdin etti navmi sabuh, Bu sharafni magarki tush ko'rgay.	Diler isen arta rızk u devletün Her seher gözden gidergil gafletün. Subh-hîz ol kim bulasın tâ felâh Kim âna mâni' olur nevm-i sabâh.
6.	Odamlarga rahmli bo'lmagan kishiga Ollohning ham rahmi kelmaydi (Jarir r.a.)	Tengridin rahm agar tama' qilsang, Avval o'lmoq keraksen elga rahim. Har kishikim ulusqa rahm etmas, Anga rahm aylamas Rahim-u karim.	Her ki halka ehl-i şefkât olmaya Hâlikin, kendüye müşfik bulmaya Ol ki nâsa rahm edüb şefkat eder Hak, günâhın afv edüb rahmet eder.
7.	Insonlarning yaxshisi - insonlarga foydasi tegadiganidir (Jobir r.a.)	Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur? Eshitib, ayla shubha raf' andin, Yaxshiroq bil ani ulus arokim, Ko'prak o'lg'ay ulusqa naf' andin.	Bihterîn ol kimsedür ey müstemi Halk-ı âlem ola andan müntefi Hayrı gâlib ola şerri terk ede Dilde bu hoş sîreti ol berk ede.
8.	Minnat - saxiylik ofatidir (Ali r.a.)	Har kishiga rioyate qilsang, Minnat o'tkarmagil gumoningg'a. Negakim ul kishiga ofat erur, Yukla minnat va lek joningg'a.	Ger tasadduk eyleyüb etsen minen Cümle mahveyler sevâbın zü'l-minen Kılma, ihsân eylesen, menn ü ezâ Yuyma âni kim kabul ede Hudâ

9.	O'lim - bu ayni pand-u nasihatdur. (Ammor ibn Yosir r.a.)	Voizing bas ato-ano o'lumi, Kim alarcha erur sanga nosih?! Voize kimki aytur-u qilmas, Erur ul voizing munga rojih.	Nush u pend ister isen, merd-i Hüdâ! Vâ'iz u nâsih, ölüm yeter sana Çün ecelden kimseye yokdur güzer Âkil isen eyle isyândan hazer.
10.	Bir-biringizga hadyalar berib, do'stlashinglar (Abu Hurayra r.a.)	Do'stlashinglar hadiyalar berishib, Bahra topqon xirad atiyasidin. Xud jahonda atiyay bormu, Yaxshiroq do'stliq hadiyasidin.	Ver hedâyâ kim kamu halk-ı cihân Cân ile muhibbün ola her zamân Ihtiyâr eyler seni, bî-ihitiyâr Her kime kilsan atâ, ey şehriyâr.
11.	Haqiqiy boylik - bu odamlar qo'lidagi narsalarda n noumid bo'lish, tama' qilmaslikdur. (Abdulloh ibn Mas'ud r.a.)	Boylig' istar esang el ilgidin Har na ko'rsang boridin o'l navmid, Bul g'ino, baski, xalqdin kechibon Tutsang ummid Haqdin-o'q jovid.	Ger ganî olmak dilersen ey amû Kes ümidün, kimseden etme umû Kes recâyı, nâsa etme dest dirâz Tâ olasin halk içinde serfirâz.
12.	Jannat onalaringiz oyog'i ostidadur (Anas ibn Molik r.a.)	Onalarning oyog'i ostidadur Ravzayi jannat-u jinon bog'i. Ravza bog'i visoli istar esang, Bo'l anoning oyog'i tufrog'i.	Vâliden olsa, hakin gey gözle sen, Tâ olasin yarın anda flen, esen. Yüzünüsürayağına, hâkiol Tâ bulasin cennet-i Firdevs'e yol.
13.	Yaxshilikni chehralari ochiq odamlardan kutinglar (Oysha r.a.)	Eyki, har ishta hojating bo'lsa, Yaxshi yuzlukdin ista baxshoyish. Toki baxshoyishidin avvalroq Ko'rmagidin yetushgay osoyish.	Her ki şekli hûb ola, hulku hasen Hâcetin arz et âna, kem etme sen Bed-likâya, key sakın ey ser-firâz Hâcetin arz eyleyüb, keşf etme râz
14.	Qanoat - tunganmas boylikdir. (Jobir r.a.)	Hirsdin kechgil, ul g'amedurkim, Hadd-u g'oyat anga emas paydo. Tut qanoatkim, ul erur mole Ki, nihoyat anga emas paydo.	Ser-firâz olmak dilersen ser-firâz Kâni ol, gel, varını terk eyle az Her ki bulmuşdur kanâat gencini Çekmeyiserdir o dünyâ rencini.

15.	Boylik mol-u dunyoning ko'pligi bilan emas, balki nafsning to'qligi bilan o'lchanadi. (Abu Hurayra r.a.)	Boy emas ulki, mol kasratidin Ko'rmagay foqa-u talab ranjin. Oni bilkim, Xudoy bermish anga Nafsi matlubi tarkining ganjin.	Gel ğınâ-y-ı dîl dile ey dîl-nüvâz Tâolasınâlemicrebî-niyâz Her ki malı çoğ ola, kalbi fakîr Olmaya ma'nâda ol erden hakîr.
16.	O'z aybini bilib, boshqalar aybini qidirmaydigan odam xo'b yaxshi odamdur (Anas r.a.)	Ey xusho ulki, ayb ko'rmamak ila Yuz hunarvar marotibin topqay. Ya'ni o'z aybi pardasi ko'ziga O'zga el aybi chehrasin yopqay.	Kıl tefahhus kendi aybun ey püser Kimse aybına nazar kılma nazar. Aybı çok olsa kişinin bî-gümân Aybını gözler olur halkun hemân.
17.	Hamma balo – tildandur (Anas ibn Molik r.a.)	Dedi: "Ko'p so'zlagan xato ko'p etar", Ulki derlar ani valiulloh. Har balokim yetar – erur so'zdin, Buyla hukm ayladi Nabiulloh.	Her ne kim erse kişiye, hayr u şer Ekserine dil ânun illet düşer. S ö y l e m e k d e n erişür derd ü belâ Söylemekdür mûcib-i cevri ü cefâ
18.	K u r a s h d a g'olib chiqqan pahlavon emas, balki g'azabi kelganda, o'zini bosib olgan odam pahlavondir (Abu Hurayra r.a.)	Emas ul pahlavonki o'z qadrin Bosh uza eltibon nigun qilg'ay. Pahlavon oni bilki, yetsa g'azab Nafsi ammorani zabun qilg'ay.	Pehlivânlik ol deĝöldür ceng ede Âlemi halkın güzine teng ede. Pehlivân oldur dedi, ol Nûr-i Râb Nefsine ğâlib ola inde'l-ğazâb

Demak, ko'rinadiki, Axtariy o'z asarida tanlab olgan hadislarining deyarli teng yarmi Jomiy va Navoiy "Arba'in"idagi hadislar bilan ayni mazmunda ekan. Bundan Axtariy Navoiy yoki Jomiyning hadislar to'plamidan xabardor bo'lgan deb xulosa chiqarish qiyin albatta. Qolaversa, Axtariy o'z to'rtliklari uchun tanlagan qofiya tizimi va vazn ham Navoiy to'rtliklaridan farq qiladi. Agar Jomiy va Navoiy hadislarining badiiy talqini uchun *qit'a* she'riy janridan foydalangan bo'lsalar, Axtariy to'rtliklari o'zaro qofiyalanuvchi *masnaviy* shaklida bitilgan. Navoiy hadislar ifodasi uchun xafif bahrini tanlagan, Axtariy to'rtliklarida esa turkiy til imkoniyatlarini o'zida yengil ifoda etuvchi ramal bahri qo'llanilgan. Navoiy va Axtariy asarlarida tanlab olingan o'xshash hadislarining

sabablaridan biri sifatida mazkur hadislarning asosiy qismi XV asr muhiti uchun ma'lum va mashhur bo'lib, jonli muloqotda maqol va hikmatli so'zlardek tez-tez takrorlanib turganligini keltirish mumkin. Qolaversa, ushbu umumiy hadislarning barchasi sahih hadislar bo'lib, mo'tabar manbalarda keltirilgan.

Axtariyning "Qirq hadis" kitobida ayrim nosahih yoki *mavzu* – to'qima hadislar ham uchraydi. Xususan, asarda 16-raqam ostida kelgan to'rtlik uchun quyidagi hadis asos qilib olingan: "Hatto sehr bo'lsa ham ilm o'rganinglar". Axtariy buni quyidagicha talqin qiladi:

*Her ne dürlü ilm ola âlemde pes
Öğrenib bilmekliğe eyle heves
Sıhr u efsûn olsun öğren ey peder
Lâkin ânı işlemekden kul hazer.*

Ma'lumki, sehr islom dinida harom qilingan, shu jihatdan mazkur hadis to'qimadek tasavvur uyg'otadi, qolaversa, biz manbalarimiz doirasida ushbu hadisning manbasini hozircha uchratmadik. Shuningdek, "Ikki toifa insonlar maqbuldirlar: 1) olimlar; 2) ilm o'rganganlar; qolganlar esa ahmoqlar toifasiga mansubdir" mazmunidagi hadis ham mo'tabar manbalarda uchramadi (17-raqamli hadis). Shu kabi fikrlarni 19-, 28- va boshqa raqam ostida kelgan hadislar haqida ham aytish mumkin¹.

Xulosa

Muslihiddin Mustafo ibn Shamsiddin Muhammad Axtariyning "Qirq hadis" asari turkiy arba'innavislik tarixida o'ziga xos o'ringa ega va u hadislarning usmonli turk tilidagi badiiy talqini ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Payg'ambarimiz hadislarini aniq va tushunarli tilda ommaga yetkazish hamda go'zal axloq namunalari targ'ib qilingan hadislarning ta'sir kuchidan foydalanib, turkiy kitobxonlarni insoniylikka da'vat etishda mazkur asarning roli katta. Mahmud As'ad Jo'shon hazratlarining say'-harakatlari tufayli turkiy kitobxonga ma'lum qilingan ushbu asarni chuqur o'rganish, adabiyotshunoslik va islom tarixi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish, asardagi hadislarning asl manbasini aniqlash olimlarimiz oldida turgan galdagi muhim vazifalardandir.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 2000. *Арбаъин*. МАТ. 20 жилдлик, 16-жилд. Тошкент:

¹Axtariy asaridagi hadislarning manbalarini topishda ko'maklashgani uchun Imom Buxoriy nomli Toshkent islom instituti katta o'qituvchisi Tashpulatov Abdirosul va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti Akrom Malikovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Фан.

- Алишер Навоий. 1999. *Хамсат ул-мутаҳаййирин*. МАТ. 20 жилдлик, 15-жилд. Тошкент: Фан.
- Абдулмажид Ҳасанхон Яҳё, Абдулмажид Ҳусайнхон Яҳё. 2014. *Навоийдан чу топқайлар навое*. Тошкент: Hilol-Nashr.
- Арбаъин. 2016. *Алишер Навоий қомусий луғати*. Икки жилдлик, 1-жилд. Тошкент: Шарқ НМК.
- Жўшон, М.А. 2012. *“Қирқ ҳадис” анъанаси*. Буюклар тухфаси (таржимон А.Ҳайитов). Тошкент: Muharrir.
- Камолов, Ф. 2012. *«Чихил ҳадис» Абдуррахмана Джами и традиция на-писания сорока хадисов в персидско-таджикской литературе (до XV века)*: Автореф. дисс... канд. филол.н. Худжанд.
- Наджафов, А. 2003. *Подарок к сороколетию* (Опыт исследования поэтического толкования хадисов Джами и Навои). Звезда Востока, №2.
- Coşan, M.Esad. *Akademik makaleler*. 2017. İstanbul: Server Yayınları.
- Пўлатова, М. 2021. *Шарқ мумтоз адабиётида “Арбаъин” ёзиши анъаналари*. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Rustamov, A. 1991. *Alisher Navoiy. Arba'in. Sharh va izohlar*. Toshkent: Meros.
- Юсупова, Д. 2013. *Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи*. Тошкент: Akademnashr.
- Юсупова, Д. 2016. *Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври)*. Тошкент: Tamaddun.

Tradition of Writing Arbain in Turkish Literature: on the Example of “Arbain” by Alisher Navoi and Muslikhiddin Mustafa Akhtari

Dilnavoz Yusupova¹

Abstract

This article talks about the tradition of hadith writing in Eastern Muslim literature. This tradition, which began in Turkish literature with Alisher Navoi, continued in Azerbaijani literature with the work

¹ Dilnavoz R. Yusupova – doctor of philology, professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

For citation: Yusupova, D.R. 2023. “Tradition of Writing Arbain in Turkish Literature: on the Example of “Arbain” by Alisher Navoi and Muslikhiddin Mustafa Akhtari”. *Golden scripts* 3: 66-77.

of Muhammad Fuzuli "Forty Hadiths". In the 16th century, Muslihiddin Mustafa Akhtari also responded to this tradition in Ottoman-Turkish literature and created his work "The Book of Forty Hadiths". The article compares this work of Akhtari with "Arbain" by Alisher Navoi and explores the common and different aspects of both works. If Navoi used the poetic form of *kitaa* for the artistic interpretation of hadiths, then Akhtari's quatrains were written in the form of mutually rhyming *mesnevi*. Navoi chose the *hafif* meter to express hadiths, and in Akhtari's quatrains the *ramal* meter was used, expressing the capabilities of the Turkish language in a simplified form. The author of the article also finds out that eighteen hadiths in the works of Alisher Navoi and Muslihiddin Mustafa Akhtari are common in content.

Key words: *Hadith, tradition, narrator, kitaa, mesnevi, hafif, ramal.*

References

- Alisher Navoiy. 2000. *Arba'in*. MAT. 20 jildlik, 16-jild. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1999. *Xamsat ul-mutahayyirin*. MAT. 20 jildlik, 15-jild. Toshkent: Fan.
- Abdulmajid Hasanxon Yahyo, Abdulmajid Husaynxon Yahyo. 2014. *Navoiydan chu topqaylar navoe*. Toshkent: Hilol-Nashr.
- Arba'in. 2016. *Alisher Navoiy qomusiy lug'ati*. Ikki jildlik, 1-jild. Toshkent: Sharq NMK.
- Jo'shon, M.A. 2012. "Qirq hadis" an'anasi / Buyuklar tuhfası (tarjimon A.Hayitov). Toshkent: Muharrir.
- Kamolov, F. 2012. «Chixil xadis» *Abdurraxmana Djami i traditsiya napisaniya soroka xadisov v persidsko-tadjikskoy literature (do XV veka)*: Avtoref. diss... kand. filol.n. Xudjand.
- Nadjafov, A. 2003. *Podarokksorokoletiyu* (Опытissledovaniya poeticheskogo tolkovaniya xadisov Djami i Navoi). Zvezda Vostoka, №2.
- Coşan, M.Esad. *Akademik makaleler*. 2017. İstanbul: Server Yayınları.
- Po'latova, M. 2021. *Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" yozish an'analari*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Yusupova, D. 2013. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Akademnashr.
- Yusupova, D. 2016. *O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)*. Toshkent: Tamaddun.

Ali Şir Nevâyî'nin Mecmualarda Bulunan Gazelleri Üzerine

Muhsin Macit¹

Özet

Ali Şir Nevâyî (1441-1501) Klasik Türk edebiyatında etki alanı en geniş olan şairlerin başında yer alır. Pek çok edebî türün öncüsü ve hamî-sanatkâr ilişkisinin müstesna örneğidir. Henüz hayattayken bir sanat-kâr olarak şöhreti muhitinin sınırlarını aşan Nevâyî eserleriyle Akkoyunlu ve Osmanlı sultanlarının ilgisini çekmiştir. Akkoyunlu, Safevi ve Osmanlı kültür merkezlerinde Nevâyî'nin eserlerinin en özgün yazmaları üretilmiştir. Yaşadığı muhitin dışında yetişen şairler bile Nevâyî'ye nazireler söylemiş, Osmanlı şairleri Çağatay Türkçesiyle şiirler yazmışlardır. Nevâyî'nin kendi muhitinin dışındaki Türk şairlerinin üzerindeki etkisi üzerine ve ona öykünerek Çağatayca şiirler söyleyen şairlere dair şimdiye kadar onlarca yayın yapılmıştır. Nevâyî hem bürokrat kişiliğiyle hem de manzum veya mensur bütün türlerde verdiği eserleriyle Osmanlı edebî muhitlerini etkilemiş olmakla birlikte özellikle gazel şairi olarak tanınmış ve divan şairleri tarafından Fars edebiyatının Hâfız, Sadî ve Molla Câmî gibi en büyük şairleriyle aynı kategoride değerlendirilmiştir. Dolayısıyla Anadolu sahasında üretilen şiir mecmualarında da Fars ve Türk edebiyatının en usta şairlerinin arasında Nevâyî'ye yer verilmiştir. Bu yazıda Ali Şir Nevâyî'nin divanlarından alıntılanmış olan gazellerinden tespit edebildiğimiz örnekler esas alınarak bazı değerlendirmeler yapılmıştır. Nevâyî'nin mecmualarda bulunan gazellerinin tespitinde, Mecmualarının Sistemik Tasnifi Projesi (MESTAP) çerçevesinde yapılan lisansüstü tezler başta olmak üzere Anadolu sahasında derlenen mecmualar üzerine yazılan makalelerden ve Türkiye Yazma Eserler Kurumu'nun sunduğu elektronik platformdan yararlanılmıştır. Mecmualardan derlenen örneklerin Nevâyî'nin ilk divanlarından alıntılı olduğu ve imla bakımından Osmanlı Türkçesine uyarlandığı tespit edilmiştir. Nevâyî'nin eserlerinin sadece seçkinler için özel üretilen elyazmaları aracılığıyla değil, özellikle sıradan okuryazar kitlenin beklentilerine uygun biçimde çoğaltılan şiir mecmualarıyla da Osmanlı edebî muhitlerinde dolaşıma girdiğine dikkat çekilmiştir.

Anahtar Kelimeler: *Nevâyî, Şiir Mecmuası, Mecmualarının*

¹ *Muhsin Macit* – Prof. Dr. Anadolu Üniversitesi Açıköğretim Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü Öğretim Üyesi Eskişehir, Türkiye.

E-posta: muhsinmacit@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7379-8293

Alıntı için: Muhsin Macit. 2023. "Ali Şir Nevâyî'nin Mecmualarda Bulunan Gazelleri Üzerine". *Oltin bitiglar* 3: 78-88.

Giriş

Ali Şir Nevâyî (1441-1501) klasik Türk edebiyatında pek çok türün öncüsü ve şairlerin rol modelidir. Şairliğinin yanı sıra hat ve musiki alanında da yetkin ve üretken bir sanatkârdır. Günümüzde Afganistan sınırları içinde bulunan Herat şehrini 15. yüzyılda Türk kültür ve sanatının en güzel eserlerinin üretildiği bir merkez hâline getiren Timurlu sultanı Hüseyin Baykara (1438-1506) ile kurduğu iyi ilişkilerden ötürü Osmanlı şairlerinin imrendiği bir şahsiyettir. Henüz hayattayken şöhreti muhitinin sınırlarını aşmış, eserleri Akkoyunlu ve Osmanlı yöneticilerinin ilgisini çekmiş, Herat-Tebriz-İstanbul hattında kültürel alışverişin sağlanmasında etkin rol oynamıştır. Nevâyî'nin şiirlerinin Osmanlı edebî muhitlerine Fatih Sultan Mehmet ve II. Bayezid döneminde Osmanlı sarayında Uygur ve Arap harfli mektup ve fermanları yazmakla görevlendirildiği bilinen Semerkantlı Şeyhzade Abdurrezzak Bahşı ve Basîrî (ö. 941/1534/35) tarafından getirildiği bilinmektedir. Nitekim Sultan II. Bayezid'in saray kütüphanesinde *Nevâyî Dîvânı* bulunduğu dair arşiv kayıtları da günümüze ulaşmıştır [Erünsal 2016, 274; Csirkés 2019, 681]. Öte yandan Akkoyunlu muhitlerinde de Nevâyî'nin eserlerinin bulunduğu ve ilgi gördüğü Akkoyunlu Halil'in himayesinde sanat hayatını sürdüren meşhur hattat Abdurrahim Harizmî tarafından 876/1471-72 yılında hazırlandığı bilinen ve günümüze ulaşan *Nevâyî Dîvânı* nüshasından açıkça anlaşılmaktadır [Erkinov 2015]. Nevâyî'nin Osmanlı, Akkoyunlu ve Safevi kültür çevrelerinde yetişen şairler üzerindeki etkisi ve ona öykünerek Çağatayca şiirler söyleyen şairlere dair şimdiye değin yüzlerce makale yazılmış, bildiriler sunulmuş ve birkaç kitap neşredilmiştir [Türk 2021, 403-441]. Onun için Nevâyî hakkında yapılan çalışmaların ayrıntısına girmeden divanlarını kısaca tanıtarak Osmanlı kültür merkezlerinde üretilen şiir mecmualarında alıntılanan Nevâyî mahlaslı gazellere dair tespit ve değerlendirmelere geçmek yerinde olacaktır.

Nevâyî edebî türlerde olduğu gibi divan tertibi ve takdimi bakımından öncü bir şairdir. Yirmi beş yaşına kadar yazdığı şiirlerini içeren ilk divanı, 870/1465-66 yılında devrin ünlü hattatlarından Ali Meşhedi (1437-1520) tarafından istinsah edilmiştir. Daha sonra Hüseyin Baykara'nın teşvikiyle ilk divanındaki şiirlerinden seçtiği 160 gazel ve 21 rubaiye, sonradan yazdığı şiirlerden ilave ederek *Bedâ-yi 'ü'l-Bidâye adlı* divanını tertip etmiştir. Nevâyî 1476-1486 yılları

arasında yazdığı şiirlere daha önce tertip edilen divanlardaki bazı şiirlerini de ekleyerek *Nevâdirü'n-Nihâye* adlı divanını hazırlamıştır. Daha sonra Hüseyin Baykara'nın teşviki ve Molla Câmî'nin etkisiyle şiirlerini insan ömrünün dört evresine karşılık gelecek biçimde düzenleyerek *Garâibü's-Sıgar*, *Nevâdirü's-Şebâb*, *Bedây'iu'l-Vasat*, *Fevâidü'l-Kiber* adlı divanlarında toplamıştır. Divanlarından oluşan külliyatına *Hazâinü'l-Ma'âni* adını vermiştir. Her ne kadar Nevâyî, şiirlerini ömrünün dört evresine tekabül edecek biçimde dört divanda toplamış olsa da divanlar üzerine yapılan ayrıntılı incelemeler sonucunda şairin şiirlerini yazılış sırasından ziyade içeriklerine göre sınıflandırmaya tabi tuttuğu anlaşılmıştır [Eckmann 1989, 253-269]. Bu divanların doktora tezi olarak hazırlanan tenkitli metinleri Türk Dil Kurumu tarafından yayımlanmıştır: *Garâibü's-Sıgar* [Kut 2003], *Nevâdirü's-Şebâb* [Karaörs 2006], *Bedây'iu'l-Vasat* [Türkay 2002], *Fevâidü'l-Kiber* [Kaya 1996]. Türkiye'deki kütüphanelerde Nevâyî'nin eserlerinin farklı sürümleri vardır. Bütün eserlerini içeren *Külliyât-ı Nevâyî* ve sadece divanlardan oluşan *Külliyât-ı Devâîn* yazmalarının yanı sıra her bir divanın müstakil nüshası veya divanlardan seçilmiş şiirlerden oluşan bir çeşit Nevâyî şiirleri seçkisi diyebileceğimiz yazmalarla da karşılaşırız. Özellikle 15. ve 16. yüzyıllarda dönemin en meşhur hattatları tarafından sultanlar ve yönetici seçkinler için Nevâyî yazmaları üretilmiştir [Macit 2020, 935-946]. Meşhur hattatların ürettiği kitap sanatı bakımından da çok nitelikli Nevâyî yazmalarının yanı sıra sıradan okuryazar kitlenin beğenilerini karşılayacak düzeyde hazırlanmış Nevâyî yazmalarıyla da karşılaşırız. Ayrıca Çağatay, Azeri ve Osmanlı muhitlerinde tertip edilen şiir mecmualarında da Nevâyî'nin gazellerinin sıklıkla alıntılındığı görülmektedir.

Mecmualardaki Nevâyî mahlaslı gazeller

Nevâyî'nin Çağatay sahasında düzenlenen beyazlarda/mecmualarda bulunan şiirleri üzerine araştırmalar yapan Aftandil Erkinov, Orta Asya'da üretilen beyazlarda/mecmualarda 18. yüzyıldan, Osmanlı muhitlerinde ise 16. yüzyıldan itibaren Nevâyî'nin şiirlerinin yer aldığını tespit etmiştir [Erkinov 2011, 295-320]. Anadolu'da tertip edilen mecmualarda Nevâyî mahlaslı şiirlerin tamamını tespit etmek daha kapsamlı bir araştırmanın neticesinde mümkün olabilir. Ancak son yıllarda Türkiye'deki üniversitelerde MESTAP (Mecmualarının Sistemik Tasnifi Projesi) çerçevesine geliştirilen formata uygun biçimde mecmualar üzerine yapılan çalışmaların sayısındaki artış ve yazma eser kütüphanelerine erişim imkânlarının çoğalması sayesinde derlenen veriler mecmualardaki Nevâyî mahlaslı

şiiirler üzerine bazı tespitlerde bulunmak mümkündür.

16. yüzyılın başında 927/1520-1521 yılında Dulkadiroğlu Üveys Bey (ö. 1522) için hazırlanmış olan bir mecmuada Fars ve Türk edebiyatından örnek şiiirler ve hatta eserler bulunmaktadır. Mecmuada eseri yer alan şairler listesine ve alıntılanan metinlere bakıldığında Nevâyî'nin kanon oluşturan bir şair olarak algılandığı görülmektedir [Atik 2022, 227-257]. Mecmuaların doğası gereği her zaman tertip tarihini, kim tarafından hazırlanıp kime sunulduğunu tespit etmek mümkün olmamakla birlikte Nevâyî mahlaslı şiiirlerin Osmanlı kültür çevrelerinde daima dolaşımında olduğu Türkiye'deki yazma eser kütüphanelerinde bulunan şiiir mecmualarının içeriğinden anlaşılmaktadır.

Türkiye kütüphanelerindeki şiiir mecmuları üzerine yapılan çalışmaların arttığı günümüzde MESTAP çerçevesine uygun olanlardan veri elde etmek kolaydır. Çünkü MESTAP formatına uygun biçimde yapılan tezlerde mecmuaların içeriği sayısallaştırılarak tablolara dönüştürülmektedir. Bu tablolar oluşturulurken mecmuada bulunan şiiirlerin hangi şaire ait olduğu belirtildikten sonra ilk ve son beyti/ bendi alıntılanarak buldukları varak numaraları verilmektedir. Ayrıca herhangi bir şairin mecmuadaki şiiiri, o şairin eserlerinin yayımlanmış versiyonlarıyla karşılaştırılmak suretiyle bulunduğu kitap, tez veya makaleye atıf yapılmaktadır. Böylece beyit/bendleri alıntılanarak tam künyesi kaydedilen şiiirin kontrolü mümkün olmaktadır.

MESTAP formatına uygun biçimde yapılan iki yüksek lisans tezinde Nevâyî'nin altı gazeli yer almaktadır. Bu gazellerden beşi 17. yüzyıl şairlerinden Kâni'î mahlaslı Müezzinzâde Şeyh Ahmed Efendi (ö. 1054/1644) tarafından derlendiği tahmin edilen ve Ankara Milli Kütüphane 03 Gedik 18185 numarada kayıtlı olan *Mecmû'a-i Eş'âr ve Fevâ'id*'de yer almaktadır:

1

Ey ârızı nesrîn saçı sünbül kadi şimşâd

Bülbül gibi hecründe işim nâle vü feryâd [Kırlı 2019, 48; Kut 2003, 113].

Garâibü's-Sıgar neşrinde makta beytinde teki edatı yerine "kibi" kullanılmıştır [Kut 2003, 113]. Nevayî'nin bu gazelinin makta beyti;

Ni ayb Nevâyî kibi dîvânelig itse

Ol âdemi kim bolsa anuñ yâri perî-zâd

ile Nedîm'in;

Benim cünûnuma âyâ niçün bahâne bulur

Bakan perî-veşimin hüsn-i bî-bahânesine
beyti arasındaki hayal benzerliğini fark eden biri *Nedîm Dîvânı*'nın
İstanbul Araştırmaları Enstitüsü Şevket Rado Yazmaları No: 0081
kayıtlı bulunan nüshasının derkenarına (v. 79b) bir not düşerek söz
konusu edilen iki beyti alt alta yazmıştır.

2

Kanı bir çehre ki meyl itkey aña haste köñül
Kanı bir zülf ki bolgay aña vâbeste köñül [Kırlı 2019, 48;
Kut 2003, 299].

3

Kıldı âvâre meni hasteni âvâre köñül
Hânümânımnı kara itti yüzi kara köñül [Kırlı 2019, 48; Kut
2003, 300].

4

Köñlüm örtensün eger gayrıñga pervâ eylese
Her köñül hem kim siniñ şevkını peydâ eylese [Kırlı 2019, 48;
Kut 2003, 45].

5

Eşkdin cismim binâsın koymadı âbâd ışk
Âhdın birdi vücûdum tofrağın ber-bâd ışk [Kırlı 2019, 48; Kaya
1996, 309].

Nevâyî, ihtiyarlık yıllarında yazdığı şiirlerini topladığı *Fevâi-
dü'l-Kiber* adlı divanına bu gazeli “ilk divan”ından alıntılanmıştır [Eck-
man 1989, 264; Özdarendeli 2002, 282].

MESTAP (Mecmualarının Sistematik Tasnifi Projesi) for-
matına uygun biçimde incelenen bir başka mecmua, Çorum Hasan
Paşa Yazma Eserler Kütüphanesi 19 HK 2211 numarada kayıtlıdır. Bu
mecmuada Nevâyî'nin “bolmasun” redifli gazellerinden biri yer al-
maktadır:

Sinsizin ay ömr bir sâ'at maña cân bolmasun

Sin bol u bes Tûbî vü Firdevs ü Rıdvân bolmasun

[Kaya 2022, 488; Kut 2003, 360].

Yukarıdaki mecmualar dışında yazma eser kütüphanele-
rinde bulunan başka mecmualarda da Nevâyî'nin şiirlerine rastlan-
maktadır. Milli Kütüphane 06 Mil Yz A 3877 numarada kayıtlı bulu-
nan *Mecmû'a-i Eş'âr ve Mûsiki* adlı yazmada Nevâyî'nin şu beyit ve
gazelleri mevcuttur:

Yâr vashğa kuvandım kavdı kûyidin mini

Ay Nevâyî hiç kişi devletka mağrur olmasun [Kut 2003, 371].

Kâni'î mecmuasında bulunan “eylese” redifli gazelin ilk dört
beyti bu mecmuada da yer alır:

Könlüm örtensün eger gayrıñğa pervâ eylese

Her köñül hem kim siniñ şevkını peydâ eylese [Kut 2003, 45].

Yine bu mecmuada *Garâibü's-Sıgar*'da bulunan "şem" redifli gazelin üçüncü ve dördüncü beyitleri alıntılanmıştır:

Urmason köp lâf köymekdin ki hicrân tünleri

Tüzmes irdi allıda tartay disem bir âh şem ' [Kut 2003, 238].

Milli Kütüphane 06 Mil Yz A 3874/2 numarada kayıtlı bulunan *Mecmû 'a-i Eş 'âr* adlı yazmada ise (v. 31a) Nevâyî'nin "kıldı şeyh" redifli gazelinin sekizinci beyti kayıtlıdır:

Deyr ara tındı kulağım râhibâ zikriñ be-hayr

Kim seher zikr ayturıda köp 'alâlâ kıldı şeyh [Kut 2003, 108-109].

Ayrıca Nevâyî'nin;

Mesîhâdın lebiñ efsah kuyaşdın ârızıñ ahsen

Kuyaşığı felek hayrân Mesîhiñğa kuyaş mesken [Kut 2003, 374].

matlı gazelinin 1-4. ve 9. beyti alıntılanmıştır.

Milli Kütüphane 06 Mil Yz A 140 numarada kayıtlı bulunan *Dîvân-ı Fuzûlî* nüshasının sonunda (v. 84b) Nevâyî'nin bir gazeline yer verilmiştir:

Min-i bî-dil saña cân oynamak birle yaraydur min

Belî sin tıflını bu tuhfe birle argadaydur min [Türk ve Eshonkol 2023, 396; Kut 2003, 349].

954 (1546) yılında istinsah edilen bu nüshada yer alan beş beyitli gazel, *Bedâyi 'ü'l-Bidâye'* de ve *Garâibü's-Sıgar*'da sekiz beyitten oluşmaktadır. Mecmuadaki gazelin ilk üç beyti *Bedâyi 'ü'l-Bidâye* ve *Garâibü's-Sıgar* ile aynı olmakla birlikte son iki beyit farklıdır.

Milli Kütüphane Adnan Ötüken İl Halk Kütüphanesi yazmaları 06 Hk 3756 numarada kayıtlı bulunan *Mecmû 'a-i Eş 'âr ve Fevâ'id* yazmasında Nevâyî'nin iki gazeline ve bir gazelinin matla beytine yer verilmiştir (v. 71a):

1

Ey nübüvvet haylığa hâtem benî âdem ara

Ger alar hâtem sin ol at kim irür hâtem ara [Kut 2003, 31].

2

Veh ki rüsvâ min yana dîvâne vü gâfil ara

Bü'l-aceb hâlim bolup efsâne her mahfil ara [Türkey 2002, 16].

Beyt:

Sin lebiñ sorğan sayı min kan yutar min ay habîb

Sin mey içkil kim maña hûn-ı ciger bolmış nasîb [Kut 2003,

64].

Mecmuada sadece bu matla alınmış, gazelin diğer beyitleri alıntılanmamıştır. Aynı mecmuanın sonraki varaklarında Nevâyî'nin bir gazeli "Nevâyî der- na 't-ı şerîf" başlığıyla verilmiştir (v. 73b):

Zihî tiliğ ene efsah tekellümide fasih

Sin emlah olduğ eger dil-rübâlar oldu melîh [Kut 2003, 101].

Nevâyî'nin şiirlerinden alıntı yapılan ilginç bir örnek ise Dede Efendi tarafından bestelenen üç Mevlevî ayininde yer alan şu beyittir:

Âşık oldum bilmedim yâr özgelerle yâr imiş

Allah Allah ışk ara mundak belâlar var imiş

[Karaörs 2016, 268].

Nevâyî'nin divanlarını dört divan biçiminde düzenleyen *Nevâdirü's-Şebâb'a* aldığı bu beyitle başlayan gazelin onun ilk divanlarından olan *Nevâdirü'n-Nihâye'de* 451. gazel olarak yer aldığı görülmektedir [Özkan Nalbant 2009, 3474]. Aynı beyte Şeyh Galip'e atfedilen bir başka mecmuada da rastlanmaktadır. *Yenikapı Mevlevihânesi'nden Bir Yadigâr: Şeyh Galip Mevlevi Âyinleri Mecmuası* adıyla yayımlanan eserde bu beytin şairinin kim olduğunun bilinmediğini belirtmek için soru işareti (?) konulmuştur [Saykal 2021, 23]. Oysa Philippe Bora Keskiner bu hususu daha evvel bir yazı konusu yaparak Mevlevi muhitlerinde Nevâyî'nin bu beytinin musiki eşliğinde nasıl dolaşıma girmiş olabileceğiyle ilgili ihtimaller üzerinde durmuştur [Keskiner 2015, 142-144]. Doğrusu Herat'ta diğer sanatların yanı sıra musikinin gelişmesinde de hem icracı hem de hami olarak ne denli etkili olduğu kendisine sunulan musiki risalelerinden anlaşılan Nevâyî'nin bir beytinin Anadolu'da bestelenen bir Mevlevî ayininde yer alması Nevâyî etkisinin şiir ve biyografiyle sınırlı olmadığını göstermesi bakımından mühimdir.

Sonuç

Anadolu'da düzenlenen mecmualardaki Nevâyî mahlaslı şiirler, hiç kuşkusuz yukarıda tespit edilenlerden ibaret değildir. Mecmualar tarandıkça bu sayının artacağı kesindir. Fakat mevcut veriler bile Nevâyî'nin Anadolu sahasında tertip edilen mecmualarda bulunan gazellerine dair yorumlar yapmaya elverişlidir. Şöyle ki mecmualarda bulunan gazellerin neredeyse tamamına yakınının şairin, Ali Meşhedî tarafından istinsah edilen ilk divanı ile *Bedâyi'ü'l-Bidâye* ve *Nevâdirü'n-Nihâye* adlı ilk divanlarından alıntılı olduğu görülmektedir. Dolayısıyla alıntılanan şiirlerin çoğu doğal olarak *Garâibü's-Sıgar'da*

mevcuttur. Bu durum, Nevâyî'nin Osmanlı edebî muhitlerinde ilk eserleriyle tanındığını ve etkisinin gençlik yıllarında yazdığı şiirlerle süreklilik kazandığını göstermektedir. Yüksek kültür muhitlerinin seçkinlerinin yanı sıra daha geniş okuryazar kitlenin Nevâyî'nin eserlerine ilgi gösterdiği onun şiirlerine yer veren mecmuaların yazı ve tertip tarzlarındaki çeşitlilikten de anlaşılmaktadır. Osmanlı muhitlerinde üretilen şiir mecmualarındaki Nevâyî gazellerinin imlasının kısmen de olsa Batı Türkçesine uyarlanmış olması doğaldır. Nitekim onun Türkçe yazılmış şairler tezkiresinin ilk örneği olan *Mecâlisü'n-Nefâ'is*'inin ve bir nevi seçki özelliği taşıyan özenle hazırlanmış divan nüshalarının da Batı Türkçesine uyarlandığı bilinmektedir. Şiir mecmualarında rastladığımız örnekler kadar olmasa da Nevâyî'nin şiirleri güfte mecmularında da alıntılanmış, hatta bir gazelinin matla beyti meşhur bestekâr Dede Efendi tarafından bestelenmiş ve asırlarca Mevlevî ayinlerinde okunmuştur.

Kaynakça

- Atik, A. 2022. "Dulkadiroğlu Üveys Bey'e Sunulan Bir Mecmua (Berlin Devlet Kütüphanesi Ms.or.oct. 3419)". *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 29: 227-257.
- Csirkés, F. 2019. "Turkish/Turkic Books of Poetry, Turkish and Persian Lexicography: The Politics of Language Under Bayezid II". *Treasures of Knowledge An Inventory of Ottoman Palace Library (1502/3-1503/4)*. Edited by Gülru Necipoğlu, Cemal Kafadar and Cornell H. Fleisher. Leiden/Boston: Brill, 673-733.
- Eckman, J. 1989. "Nevai'nin İlk Divanları Üzerine". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı-Belleten 1970*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 253-269.
- Erkinov, A. (ed.) 2015. *Alî Shîr Navâ'î Divân of the Aq Qoyunlu Admirers (1471)*. Research Institute for Languages of Asia and Africa (ILCAA). Tokyo University.
- Erkinov, A. 2011. "XV-XIX. Asır Beyazlarında Taşkent ve Paris Kütüphanelerinde Tespit Edilen Ali Şir Nevai'nin Şiirlerine Dair Bir Araştırma". Aktaran: Recai Kızıltunç. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 45: 295-320.
- Erünsal, İ. E. 2016. "908 (1502) Tarihli Saray Kütüphanesi Kataloğu ve Türk Edebiyatı Tarihine Kaynak Olarak Önemi". *Edebiyat Tarihi Yazıları*. İstanbul: Dergâh Yayınları. 257-283.
- Karaörs, M. (hzl.) 2016. *Ali Şir Nevâyî, Nevâdirü's-Şebâb*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Kaya, H. 2022. *Çorum Hasan Paşa Yazma Eserler Kütüphanesi 19 HK 2211 Numarada Kayıtlı Şiir Mecmuası*. Yüksek Lisans Tezi. Çorum: Hitit Üniversitesi.
- Kaya, Ö. (hzl.) 1996. *Ali Şir Nevâyî, Fevâidü'l-Kiber*. Ankara: Türk Dil

Kurumu Yayınları.

- Keskiner, P. B. 2015. "Ali Şir Nevai'nin Üç Mevlevî Ayininde Geçen Bir Beyti". *Musikişinas* 14: 142-144.
- Kırlı, Ş. 2019. *Milli Kütüphane 03 Gedik 18185 numarada kayıtlı Kâni'î Mecmuası'nın Şiir Mecmualarının Sistematik Tasnifi Projesi'ne (MESTAP) göre tasnifi*. Yüksek Lisans Tezi. Kırşehir: Ahi Evran Üniversitesi.
- Kut, G. (hızl.) 2003. *Ali Şir Nevâyî, Garâibü's-Sıgar*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Macit, M. (2020). "Nevâyî Divanlarının Meşhur Hattatları". *Prof. Dr. Vahit Türk Armağanı*. İstanbul: Kesit Yayınları.
- Özdarendeli, N. 2001. *Ali Şir Nevâyî İlk Divan (İnceleme-Metin-Dizin)*. Doktora Tezi. Edirne: Trakya Üniversitesi.
- Özkan Nalbant, B. 2009. "Nevâyî'nin İlk Divanlarından Nevâdirü'n-Nihâye". V. Uluslararası Dil Kurultayı Bildirileri-III (20-26 Eylül 2004): 3449-3480.
- Saykal, M. S. 2021. *Yenikapı Mevlevihânesi'nden Bir Yedigâr: Şeyh Galip Mevlevî Âyinleri Mecmuası*. İstanbul: Zeytinburnu Belediyesi Yayınları.
- Türk, V. 2021. "Türkiye'de Ali Şir Nevâyî Çalışmaları" *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi* 52: 403-441.
- Türk, V. ve Eshonkul, J. (hızl.) 2023. *Ali Şir Nevâyî Bedâyiü'l-Bidaye*. İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı Yayınları.
- Türkay, K. (hızl.) 2002. *Ali Şir Nevâyî Bedâyi 'u'l-Vasat*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

On Ali Şir Nevâyî's Ghazals Found in Magazines

Muhsin Macit¹

Abstract

Ali Şir Nevayi (1441-1501) is one of the poets with the widest influence in Classical Turkish literature. It is the Pioneer of many literary genres and an exceptional example of the patron-artist relationship. While he was still alive Nevayi, whose fame as an artist went beyond the boundaries of his environment, attracted the attention of Akkoyunlu and Ottoman sultans with his works. The most original manuscripts of Ne-

¹ *Muhsin Macit* – Prof. Dr. Lecturer at Anadolu University Open Education Faculty Turkish Language and Literature Department Eskişehir, Türkiye.

E-mail: muhsinmacit@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7379-8293

For citation: Muhsin Macit. 2023. "On Ali Şir Nevâyî's Ghazals Found in Magazines". *Golden scripts* 3: 78-88.

vayî's works were produced in Akkoyunlu, Safavid and Ottoman cultural centers. Even poets who grew up outside the environment he lived in sang verses to Nevayî, and Ottoman poets wrote poems in Chagatai Turkish. Dozens of publications have been published so far about Nevayî's influence on Turkish poets outside his own circle and about poets who emulate him and sing Chagatai poems. Although Nevayî influenced the Ottoman literary circles both with his bureaucratic personality and with his works in all genres of verse and prose, he was especially known as a ghazal poet and was evaluated by divan poets in the same category as the greatest poets of Persian literature such as Hafız, Sadi and Molla Cami. Therefore, Nevayî was included among the most master poets of Persian and Turkish literature in the poetry magazines produced in Anatolia. In this article, some evaluations were made based on the examples we could identify from Ali Şir Nevayî's ghazals quoted from his divans. In determining Nevayî's ghazals in magazines, articles written on magazines compiled in the Anatolian field, especially postgraduate theses made within the framework of the Systematic Classification of Magazines Project (MESTAP), and the electronic platform offered by the Turkish Manuscripts Institution were used. It has been determined that the examples compiled from the magazines were quoted from Nevayî's first divans and adapted to Ottoman Turkish in terms of spelling. It has been pointed out that Nevayî's works were circulated in the Ottoman literary circles not only through manuscripts produced specifically for the elite, but also through poetry magazines reproduced in accordance with the expectations of the ordinary literate mass.

Key words: *Nevayî, Poetry Magazines, Systematic Classification of Magazines Project (MESTAP), Chagatai Turkish, Herat, Classical Ottoman Literature.*

References

- Atik, A. 2022. "Dulkadiroğlu Üveys Bey'e Sunulan Bir Mecmua (Berlin Devlet Kütüphanesi Ms.or.oct. 3419)". *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 29: 227-257.
- Csirkés, F. 2019. "Turkish/Turkic Books of Poetry, Turkish and Persian Lexicography: The Politics of Language Under Bayezid II". *Treasures of Knowledge An Inventory of Ottoman Palace Library (1502/3-1503/4)*. Edited by Gülru Necipoğlu, Cemal Kafadar and Cornell H. Fleisher. Leiden/Boston: Brill, 673-733.
- Eckman, J. 1989. "Nevai'nin İlk Divanları Üzerine". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı-Belleten 1970*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 253-269.
- Erkinov, A. (ed.) 2015. *Alî Shîr Navâ'î Dîvân of the Aq Qoyunlu Admirers (1471)*. Research Institute for Languages of Asia and Africa (ILCAA). Tokyo University.
- Erkinov, A. 2011. "XV-XIX. Asır Beyazlarında Taşkent ve Paris Kütüphanesi

- lerinde Tespit Edilen Ali Şir Nevai'nin Şiirlerine Dair Bir Araştırma". Aktaran: Recai Kızıltunç. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 45: 295-320.
- Erünsal, İ. E. 2016. "908 (1502) Tarihli Saray Kütüphanesi Kataloğu ve Türk Edebiyatı Tarihine Kaynak Olarak Önemi". *Edebiyat Tarihi Yazıları*. İstanbul: Dergâh Yayınları. 257-283.
- Karaörs, M. (hızl.) 2016. *Ali Şir Nevâyî, Nevâdirü's-Şebâb*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Kaya, H. 2022. *Çorum Hasan Paşa Yazma Eserler Kütüphanesi 19 HK 2211 Numarada Kayıtlı Şiir Mecmuası*. Yüksek Lisans Tezi. Çorum: Hitit Üniversitesi.
- Kaya, Ö. (hızl.) 1996. *Ali Şir Nevâyî, Fevâidü'l-Kiber*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Keskiner, P. B. 2015. "Ali Şir Nevai'nin Üç Mevlevî Ayininde Geçen Bir Beyti". *Musikişinas* 14: 142-144.
- Kırlı, Ş. 2019. *Milli Kütüphane 03 Gedik 18185 numarada kayıtlı Kâni'î Mecmuası'nın Şiir Mecmualarının Sistematik Tasnifi Projesi'ne (MESTAP) göre tasnifi*. Yüksek Lisans Tezi. Kırşehir: Ahi Evran Üniversitesi.
- Kut, G. (hızl.) 2003. *Ali Şir Nevâyî, Garâibü's-Sıgar*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Macit, M. (2020). "Nevâyî Divanlarının Meşhur Hattatları". *Prof. Dr. Vahit Türk Armağanı*. İstanbul: Kesit Yayınları.
- Özdarendeli, N. 2001. *Ali Şir Nevâyî İlk Divan (İnceleme-Metin-Dizin)*. Doktora Tezi. Edirne: Trakya Üniversitesi.
- Özkan Nalbant, B. 2009. "Nevâyî'nin İlk Divanlarından Nevâdirü'n-Nihâye". V. Uluslararası Dil Kurultayı Bildirileri-III (20-26 Eylül 2004): 3449-3480.
- Saykal, M. S. 2021. *Yenikapı Mevlevihânesi'nden Bir Yedigâr: Şeyh Galip Mevlevî Âyinleri Mecmuası*. İstanbul: Zeytinburnu Belediyesi Yayınları.
- Türk, V. 2021. "Türkiye'de Ali Şir Nevâyî Çalışmaları" *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi* 52: 403-441.
- Türk, V. ve Eshonkul, J. (hızl.) 2023. *Ali Şir Nevâyî Bedâyiü'l-Bidaye*. İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı Yayınları.
- Türkay, K. (hızl.) 2002. *Ali Şir Nevâyî Bedâyi 'u'l-Vasat*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

Na'tning tarixiy-adabiy ildizlari va taraqqiyoti

Fayzulla Iskandarov¹

Abstrakt

Turkiy, xususan, o'zbek adabiyotining tadrijiy takomilini Qur'oni karim, hadislar, tasavvuf falsafasi, komil inson masalasi, islomiy ma'rifat hamda musulmon odob-axloqsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, islom ma'rifati bilan sug'orilgan Sharq xalqlari ma'naviyatida bu ta'sirni yaqqol sezamiz. Inson qalbi, ruhi va tuyg'ularining tarjimoni bo'lgan badiiy adabiyotda bu masala yanada yorqinroq namoyon bo'lgan. Ming yillik adabiyotimiz tarixini o'rganar ekanmiz, mazmun-mohiyatini islomiy ma'rifat, hadislardagi nabaviy hikmatlar uning manbasi ekanligiga amin bo'lamiz. Payg'ambar siymosi hamda U zot bilan bog'liq voqea-hodisalarning vasfiy bayoni ijodkorlar uchun komil inson haqidagi qarashlarini bayon etishda ilhombaxsh mavzuga aylandi. Anu shunday mavzulardan biri –payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning madhi sabab bitilgan na'tlardir. Ijodkorlarning diniy-tasavvufiy, falsafiy, adabiy-estetik qarashlarini ifodalashda muhim o'rin tutgan na'tlarni o'rganish ijodkorlarning Alloh, olam va odam haqidagi qarashlari, tiriklik mohiyati va olamning poetik idrok etishdagi bilim hamda tasavvurlarini baholashda katta ahamiyatga ega.

Maqolada na'tning genezisi, tarixiy rivojlanish yo'li, badiiy adabiyotga kirib kelishi, rivojlanishi arab va fors adabiyoti misolida ilmiy-nazariy jihatdan batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *na't, vasf, me'roj, nabiy, madh, sifat, arab adabiyoti, fors adabiyoti, turkiy adabiyot.*

Kirish

Na't – arabcha so'z bo'lib, tavsif etmoq ma'nosida masdar, sifat va vasf ma'nolarida ism o'laroq qo'llaniladi. Lug'aviy ma'nosi "bir kishidagi bor narsalarni tasvirlamoq, uni mubolag'ali tavsiflash"

¹ *Iskandarov Fayzulla Mashrabovich* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: mfayzullaiskandarov@gmail.com

ORCID ID: 0000000204540229

Iqtibos uchun: Iskandarov, F.M. 2023. "Na'tning tarixiy-adabiy ildizlari va taraqqiyoti". *Oltin bitiglar* 3: 89-106.

[Ibn Manzur 1883, 405], “Vasf, hamd-u sano bilan barobar ta’rif-tavsif etmoq” [Shamsiddin Sami 1978, 1464] yoki “bir narsaning madhini aytib, sifatlashdir” [Feret Develli 1979, 906] degan ma’nolarni anglatadi.

Adabiy tur va janrlar nazariyasiga oid “Türk Halk Edebiyatı El Kitabı”da na’t “biror narsani maqtash, sifatlash orqali tasvirlash” [Guzal 2003, 334] deb izohlansa, “Farhangi zaboni tojiki”da – madh, maqtash; yaxshi xislatlar vasfi, sifat, go’zal sifat deb ta’riflanadi.

Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog’a” asarida shunday yozadi: “Agar Tengri azza va jallag’a hamd etsalar, oni tavid derlar. Va agar Muhammad Mustafu sollalohu alayhi va sallamni vasf qilsalar, na’t derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o’qurlar” [Taroziy 1996, 32].

Na’t istiloh sifatida payg’ambarimiz vasfi, shaxsiyati, payg’ambarlik faoliyati va me’roj bilan bog’liq voqea-hodisalarning romantik ko’rinishdagi shoirona, so’fiyona, oshiqona va orifona talqinidir. Ayni paytda, oshiqning ma’shuq vaslida yongan zavq-u shavqi, ishq yo’lida chekkan azoblari, “hisob-kitob” kuni komillar komili bo’lgan Zotning shafogatiga umid bilan intilgan ko’ngil nolalarining ramziy-majoziy tasvirlari, ilohiy go’zallik sirlari kashshofi bo’lgan ishqning ta’rifi hamda komillikning oliy maqomini egallagan, jisman zaminda, qalban esa Haq huzurida bo’lgan Zotga bo’lgan muhabbatdir.

Timsollarning ma’no talqinlari

Turk olimi Sulaymon Uludog’ning “Tasavvuf terminlari lug’ati”da na’t shunday izohlanadi: “Arab tilida, alohida bir xususiyat, maqtov ma’nolarini ifodalaydi. Tasavvufda esa, maqtovchi maqtalganni xulq-atvori, tabiati va axloqini madh etishidir. Na’t, maqtov bilan bir xil ma’noni ifodalaydi, biroq maqtov mujmal, na’t esa aniqligi bilan xarakterlanadi” [Uludag’ 1995, 351].

“Maqtash”, “baho berish”, “sifatlash” [Alisher Navoiy asarlari lug’ati 1983, 444] ma’nolarini anglatgan na’t – adabiy atama sifatida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni vasf qilish, yaxshi sifatlar bilan ulug’lash maqsadida yozilgan nasriy va nazmiy asarlarga berilgan umumiy nomdir. Zavq ahli uchun tunganmas ilhom manbayi bo’lgan payg’ambarimiz sifatlari, shakl-u shamoyili, husn-u xulqi, islom dinining targ’ibi yo’lida ko’rsatgan jasorati va ayniqsa, me’roj voqeasi cheksiz xazinadir. Shuning uchun “insoniyat tarixida eng fasohatli, balog’atli va oliymaqom she’riy asarlar “Madiyh un-

nabiy” – “Nabiyning madhi” deya atalgan, Nabiy sollallohu alayhi va sallamning madhlarida yozilgan she’rlardir. Musulmon xalqlarining shoirlari o’zlari va elatlarining Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga bo’lgan muhabbatlarini u zotning madhlarida bitgan she’rlarida namoyish etganlar. Ularning eng sara she’rlari ham aynan shu mavzuda bo’lgan... Bundan hatto boshqa din vakillari ham mustasno bo’lmadi. Bu borada ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga teng keladigan inson yo’q. Bashariyat tarixida hech bir inson haqida Nabiy sollallohu alayhi va sallamga atab yozilganchalik ko’p va xo’p maqtov she’rlar bitilmagan. Hatto jahon adabiyotida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning maqtovlari-ga bag’ishlangan alohida janr – na’t janri yuzaga kelgan” [Barzanjiy 2015, 5].

Arab adabiyotida, xususan, “arab poeziyasida she’rlarni janriy xususiyatlarini belgilash, tasnif qilish ularning formasiga qarab emas, balki mazmuniy prinsipiga asoslangan” [Орзибеков 1976, 18]ligidan Nabiy madhiga bag’ishlangan asarlar arab adabiyotida na’t janri doirasida o’rganilgan. Ayni paytda, adabiyotshunosligimizda janrlarga qo’yilgan talablarga ko’ra aniq doimiy mavzuga, mazmuniy turlarga, obrazlar sistemasi va o’ziga xos poetik ifodaga ega bo’lgan na’tlarni janr deyishda u qadar katta mantiqsizlik yo’qdek. Ammo har bir xalqning adabiyoti asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etishida o’ziga xos individual rivojlanish yo’lini bosib o’tgan. Mumtoz adabiyotimiz o’z rivoji yo’lida juda ko’plab manbalardan oziqlandi, ularning eng yaxshi adabiy an’analarni o’zlashtirib, taraqqiyotiga munosib hissa qo’shdi. Jumladan, na’tlar bitishda ham. An’anaviy adabiy tasnifga ko’ra, forsiy va turkiy adabiyotda na’tlarga dostonlarning debochasidagi an’anaviy bob, devonlarda kitobatchilik talabi sifatida qaraladi. Bizda amalga oshirilgan oxirgi yillardagi tadqiqotlarda, jumladan, U.Qobilov o’z tadqiqotlarida na’tlarni *janriy shakllar ifodasi* deb baholagan [Qobilov 2021, 83]. Biz bu masalada ko’plab o’rganishlardan keyin na’tlarni *janrlarga moslashdigan mavzu* sifatida baholadik.

“Nabiy madhi” deb nom olgan – na’t mazmunan *vasf* va *me’roj* na’tlarga bo’linadi. Vasf na’tlarda, asosan, payg’ambarimizning hayoti, bashariy qiyofasi va fazilatlarini, payg’ambarlik sifatlarini va mo’jizalari, payg’ambarlik faoliyati bilan bog’liq voqeahodisalar, hadislarini va u zotning boshqa amallari – barcha-barchasi tunganmas muhabbat bilan ta’rif-u tavsif etilgan, insoniyatga ibrat qilib ko’rsatilgan. Shu bois badiiy jihatdan mukammal bo’lgan bu vasflarning tarbiyaviy qimmatini beqiyos.

Qur'oni karimning "Sharh" surasi to'rtinchi oyatida bevosita payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga qarata xitob qilinib: "Va Biz sizning zikringizni (ya'ni, martabangizni) baland qilib qo'ydik", – deyiladi. Alouddin Mansur ushbu oyatni o'z tafsirida shunday izohlaydi: "Darhaqiqat, har bir mo'min-musulmon qayerda Alloh taoloning nomini yod etsa, U zotni ulug'lasa, albatta, U zot bilan birga payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning nomlarini ham zikr qilib, u kishiga salovat va salom aytadiki, bu martabayi oliya payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan o'zga hech kimga nasib qilgan emas" [Alovuddin Mansur 1992, 670].

Na'tlarning ikkinchi turkumi payg'ambarimizga berilgan buyuk maqom – Me'roj – Rasulullohning Makkadan Quddusga tungi sayri (Isro) va Masjid ul-Aqsodan osmonga ko'tarilish voqeasi tavsifiga, uning badiiy talqiniga bag'ishlangan.

Me'roj islom tarixida yuz bergan mashhur voqealardan. Ijodkorlar uchun ushbu boblarda payg'ambarning buyukligi, yuksak sharafi va ulug' maqomi ta'rifini keltirish, avvalo, shoirlik burchi va ummatlik vazifasi bo'lsa, boshqa tarafdin, salaflarga munosib javob berish uchun sinov maydoni ham edi. Ayni paytda, me'rojning eng oliy nuqtasi – "payg'ambarning Alloh jamoliga yetishish lahzasi bo'lib, bu islom ta'limotiga ko'ra eng ulug' sharafdir. Bunday sharafning nubuvvat tarixida Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan boshqa payg'ambarga nasib etmagani esa butun musulmon olamining faxri hisoblanadi. Mana shu faxr tuyg'usi va payg'ambarga muhabbatni izhor etish istagi me'rojnimalarning islom mintaqasi adabiyoti debochalaridan muqim o'rin olishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi" [Ismoilov 2019, 51].

Qur'oni karimning "Isro" surasi birinchi oyatining nozil bo'lishi aynan shu voqea bilan bog'liq, ya'ni: "O'z bandasini kechasi Masjid ul-Haromdan atrofini barakali qilganimiz Masjid ul-Aqsoga mo'jizalarimizni ko'rsatish uchun sayr qildirgan Zot pok bo'ldi. Albatta, U eshitguvchi va ko'rguvchi Zotdir [Shayx Muhamad Sodiq Muhammad Yusuf 2011, 282]. Shu o'rinda Isro bilan Me'rojni farqlash muhim. Isro – Masjid ul-Haromdan Masjid ul-Aqsoga sayr qildirish bo'lsa, me'roj – Masjid ul-Aqsodan Alloh huzuriga ko'tarilishdir.

Na'tlarda Rasulullohga muhabbat turli shakl-u shamoyilda namoyon bo'laveradi [Муллахўжаева 2019, 62]. Ayniqsa, Isro kechasi va Me'roj mo'jizalari tasviriga bag'ishlangan, me'roj boblar "tasavvuf ahli uchun Haqqa yovuqlashish, Alloh bilan muloqotda

bo'lish, Allohning buyuk in'om va marhamatiga sazovor bo'lishdir. Fanolik va baqolikka yetishishning eng haqiqiy va namunaviy ko'rinishidir" [Haqqulov 1995, 5].

"Me'roj" tasavvufga oid lug'atlarda ruhning yuksalishi va ma'naviy yo'lchilik (yo'lovchilik), deb talqin etiladi. Butun orzu-istagi, umrining mazmunini Alloh vasliga erishish deb bilgan so'fiy uchun Me'roj juda katta ruhiy-ma'naviy oziq, quvvatdir. Aynan shu sababli ham Me'roj kechasi haqidagi tasavvurlar ijod ahli uchun alohida ilhom manbayidir [Муллахўжаева 2019, 62].

Ko'p tadqiqotchilarda "me'roj" va "me'rojnoma" tushunchalari bir xil ma'noda, umumiy an'anaviy mavzu sifatida fikrlar bildirilgan, tahlil qilingan. Bizningcha, devon va dostonlar tarkibidagi Nabiy alayhissalom tungi sayri bilan bog'liq mavzu me'roj yoki me'roj boblarni mustaqil asar me'rojnomalardan farqlash zarur. Ya'ni, me'roj mavzusi badiiy asarlar tarkibida masnaviy, g'azal, qasida, qit'a, murabba', tarji'band kabi janrlarga moslashgan mavzu bo'lsa, me'rojnoma esa adabiyot tarixida alohida asar sifatida "Mavlid", "Arbain", "Hijratnoma", "Siyrat un-nabiy" kabi payg'ambar shaxsi bilan bog'liq mustaqil asarlar qatorida tadqiq etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Arabiy, forsiy va turkiy adabiyotlarda me'roj bilan bog'liq alohida "Me'rojnoma"larning yaratilgani fikrimiz dalilidir.

Qasida, g'azal, ruboiy, musammat, mustazod, qit'a, tuyuq kabi janrlarga moslasha oladigan ushbu mavzu – shoir adabiy-estetik, diniy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy, tasavvufiy hamda komillik va komil inson haqidagi qarashlarini ifodalashda muhim vosita, ayni paytda, kitobxonga muallif ijodiy laboratoriyasiga kirib borishi, uning dunyoqarashini to'g'ri idrok etishi va o'rganishi uchun muayyan imkoniyatlar yaratadi. Na'tlarda ijodkorlar payg'ambarimiz hayoti va faoliyati bilan bog'liq ko'plab masalalarga e'tibor qaratganlar, bular:

- Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning siyrati va shaxsi, faoliyatini tavsiflovchi na'tlar;
- u zotning so'zlari va amallari muhokama qilingan na'tlar;
- bashariy va axloqiy xususiyatlarini tavsiflovchi na'tlar;
- mavlid va hayotining ba'zi voqealari haqidagi na'tlar;
- ularga yuborilgan mo'jizalarni madh etuvchi na'tlar;
- ul zotning ko'rsatgan mo'jizalari va bashoratini asoslab berish maqsadida bitilgan na'tlar;
- me'roj bilan bog'liq na'tlar;
- fazilatleri va tug'ilgan joylari, ota-onalari, ahli ayoli, bolalari,

hamrohlari, narsa-buyumlari, qabrlari, masjidlari, vasiyatlari, odob-axloqlari va salovatlariga bag'ishlab yozilganlar na'tlar.

Shuningdek, turli mavzularda bitilgan mavlid, siyrat un-nabiy, asmoyi nabiy, mo'jizat-un nabiy, alifnoma, gavharnoma, do'labnoma¹, me'rojnoma, hijratnoma, qirq hadis (arba'in), madhiya, marsiya kabi ko'plab mustaqil asarlarda Rasululloh madhi, surat-u siyrati bilan bog'liq tarixiy-hayotiy voqea-hodisalar badiiy tasvirlanadi.

Na't boblar "birinchi navbatda, har bir doston yoxud hikoyatning tub mohiyatini to'g'ri tushunishga yo'l ochsa, ikkinchi tomondan, shoir falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining muhim qirralarini to'g'ri belgilashga yordam beradi" [Ismoilov 2019, 66]. Ushbu boblarda payg'ambarimizning islomni joriy etish yo'lidagi buyuk xizmatlari, payg'ambarlik sifatlari va faoliyatiga doir lavhalar, u zotning komil xulqlari, fazilatlarini, ularga yuborilgan mo'jizalar, xususan, me'roj kechasi tasviri keng berilgan va ayni paytda, ularda "shoirning Olloh, olam va odam haqidagi qarashlari Koinot sarvari Rasululloh haqidagi diniy-so'fiyona qarashlari, bilim va tasavvurlari bilan uyg'unlashib ketganligini ko'ramiz" [Муллахўжаева 2019, 62].

Dastlab, arab adabiyotida vujudga kelgan na't bitish an'anasi keyinroq forsiy adabiyotga va bu adabiyotdan turkiyzabon shoirlar ijodiga ko'chdi.

Yaxshi va chiroyli narsalarni mubolag'a bilan tasvirlash, bo'rttirishni maqsad qilib olgan na't arab adabiyotida madh sifatida o'rganiladi. Arab adabiyotida madhlar adabiy tur va janrlar shakllangan islomgacha bo'lgan davrlardan to keyingi paytlargacha ming yillik rivojlanish tarixiga ega. Shuning uchun ham bugungacha ijodkorlar madhlar bitishga katta e'tibor berishlari, mas'uliyat va jiddiy tayyorgarlik bilan masalaga yondashishlari qadimiy an'analarning barhayotligini ta'minlagan. Qadimgi arab adabiyotida madhlarning asosan ikki xil tarzda bitilgani kuzatiladi. Bularning birinchisi – o'tgan buyuk kishilar fazilatlarini ulug'lash, eslash uchun yozilgan marsiya tarzidagi yoki zamon hukmdori yoki qabila boshlig'ining qahramonliklari haqidagi madhiya-qasidalar bo'lsa, ikkinchi turdagi maqtovlarda shoirlar o'z hissiyotlari, muhabbat azoblari-yu quvonchlari, samimiy do'stlik va turli voqea-hodisalar vasfi hamda ezgulikka chorlagan hikmatlarni ta'rif-u tavsif etgan. Shu bois, maqtash yoki madh etish arab adabiyotining qadimiy va zamonaviy she'riyatidagi muhim va keng tarqalgan

¹ Do'labnoma - Allohga bo'lgan ishqni tarannum etuvchi savol-javob tarzida yozilgan she'rlar.

mavzularidan biridir. “Bu asli maqtovcining inson yoki xalqda mavjud bo‘lgan ideal fazilatlarga, yuksak insoniy xislatlarga havas qilishining ifodasidir. Eng yaxshi maqtoV – his-tuyg‘u va voqelikning samimiyligidan chiqarilgan *madh* bo‘lib, shoir bunda yolg‘on gapirmaydi, bo‘rttirib ham aytmaydi. Eng go‘zal *madh* – maqtoVchi maqtoVga sazovor bo‘lgan kishidan bahramand bo‘ladigan moddiy narsalardan uzoq bo‘lgan holda yaratilgan madhiyadir” [Mishel Assi 1987, 33].

Arab adabiyotidagi madhlarni ikki davrga ajratib o‘rganish mumkin. *Birinchi davr* johiliyat davri adabiyoti hisoblanib, unda “shoirларining ijodi og‘zaki bo‘lgan: odatda, ular she‘riy badiha-goylik iste‘dodi bilan shuhrat qozonganlar. Badaviy jangchining she‘r yozish mahorati jasurlikdan kam qadrlanmagan. She‘r yozish san‘ati avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ba‘zi oilalar va urug‘lar doimo o‘z oralaridan ajoyib shoirلarni ko‘tarib chiqqanlar. Shoir jamiyatda yuksak maqomga ega bo‘lgan, chunki u qabilaning qahramonona an‘analari kuychisi va saqlovchisi bo‘lgan; qabila dono so‘z bilan o‘z sha‘nini himoya qila oladigan va o‘tkir hajv bilan dushmanga tashlana oladigan shoirni qadrlagan” [Зиёвуддинова 2012, 10]. Islomgacha bo‘lgan arab adabiyotining shakliy jihatdan mukammalligi, janriy xilma-xilligi va mavzu rang-barangligi she‘riy tilning uzoq vaqt mobaynida rivojlanganidan dalolat beradi. Aynan islomgacha bo‘lgan davrda arab she‘riyatining asosiy usullari ishlab chiqilgan, janrlar taraqqiy etgan. Islomgacha bo‘lgan davrda *hijo* (hajv – doimo qabila dushmanlarini qoralash), *riso* (vafot etgan kishining ayollari tomonidan aytiladigan marosimdagi aytuvlari – marsiya), *faxriya* (qahramonni bo‘rttirilgan obrazlar va tantanavor ohangda maqtash), *qit‘a*, *madh* (maqtoV yoki madhiya), *nasib* (ishqiy lirika), *vasf* (turli voqea-hodisalar, tabiat va hokazolarni tavsiflash), *xamriyot* (sharob haqidagi she‘rlar) va *hikmat* (ezgu fikr va pand-nasihat) janrlari rivojlangan. Qasidalar ushbu davrda sinkretik tabiatga ega janr sifatida rivojlanib, uncha keng tarqalmagan edi. Qadimgi arab adabiyotini o‘rgangan olimlar fikricha, johiliyat davri she‘riyatining eng asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- she‘riyatning sodda arab (sahroyi soddalik) turmush tarzi (badaviy) va tabiat (yashash sharoiti) bilan uyg‘unligi;
- passiv g‘oyaviylik, tematik soddalik, fahshni oshkora aytish va bepardalilik;
- saxiylik, ahdda vafo qilish, mag‘rurlik va o‘z sha‘nini himoya qilish hamda ko‘zlagan maqsadidan qaytmaslik kabi xislatlarning

ulug'lanishi;

– oddiy qiyoslar yordamida shakllantirilgan badiiy obrazlarda tashbehning ustunligi;

– an'anaviy va mubolag'ali madhlarni, asosan, amir yoki qabila boshliqlariga bag'ishlab bitilganligi;

– kuchli hajv, o'ta bo'rttirilgan qahramon va tantanavor intonatsion ohangdorlikka ega bo'lishi;

– qisqa va lo'ndalik asosida tarafkashlik, samimiy do'stlik, muhabbat, ezgu fazilatlar va turli voqea-hodisalarni badiiy-emotsional tavsiflash.

“Islomgacha bo'lgan shoirlar she'rlaridagi obrazlar, odatda, qiyoslash yordamida yaratilgan. Buning uchun material esa atrofdagi hayotdan olingan. Shubhasiz, tashqi o'xshashlik asosiga quriladigan ushbu qiyoslashlar ba'zan yorqin tavsiflarga o'sib o'tadi hamda arablargacha bo'lgan she'riyatning asosiy go'zalligini tashkil qiladi. Imr ul-Qays mu'allaqasidan misol keltiramiz.

To'xtanglar, yorim manzilin eslab, biroz yig'laylik.

Duxul va Xovmala vodiysi aro.

Yorim izlarin olib ketmabdi,

Janub-u shimoldan esgan ul sabo" [Ziyavuddinova 2012, 10].

Umuman olganda, islomgacha mavjud bo'lgan she'riyatda hayot manzarasining jamlanganligi, shoirlar bir necha o'n baytda butun boshli poetik manzarani ifodalay olganliklari va ushbu manzaralarning betakror ketma-ketligida arablar hayotining turli qirralari o'z aksini topganligi hamda ijodkorning maqsadi, poetik mahorati va tasvir uslubi va boshqa xususiyatlariga ko'ra, ushbu davr she'riyati shartli ravishda ikkiga – badaviylik va saroy she'riyatiga bo'linadi. Ushbu ikki yo'nalish uzoq davr mobaynida takomillashib borib, ko'plab iqtidorli shoirlarning yetishib chiqishi va yuksak saviyadagi badiiy asarlarning dunyoga kelishiga zamin yaratgan. An-Nabig'a Al-Dhubyoniy, An-Nu'mon ibn Al-Munzir, Al-Musayyab Ibn Alas, Al-Manxal Al-Yashkariy, Al-Mandaq Al-Abdiy, Al-Horis Ibn Zalim, Al-A'sha, Al-Xutey', Alba Ibn Arqam va boshqalar, odatda, saroylar shoirlari sifatida tanilgan bo'lsalar, tabiatan samimiy, xalqona, chuqur muhabbatga to'la oshiqona baytlar bitib, do'stlik, mardlik, jasurlik kabi musaffo tuyg'ular tarannumidagi she'rlar yaratgan. Zuhayr ibn Abu Salma, Imru-l-Qays, Haram ibn Sinon, Ash-Shanfara, Taabbat Sharran, al-Muhalhil, Tarafa, Antara, Amir ibn Kulsum, Dahes va Al-Horis ibn Xilliza kabilar badaviy shoirlar sifatida e'tirof etilgan.

Ikkinchi davr – ilk islom va undan keyingi davr arab ada-

biyotidagi madhlarda esa, Rasulullohning payg'ambarlik faoliyati, shaxsiyati, mavlidi, siyrati va komil xulqi haqidagi go'zal maqto'vlar va islomiy ma'rifat bulog'idan suv ichgan hamda ishq olovida o'rtangan dil izhoridan iborat ulkan ma'naviy xazinani ko'ramiz.

VII asrga kelib, Arabiston yarim orolida islomning tarqalishi va Payg'ambarimizning ushbu haq dinning targ'ibi yo'lidagi buyuk xizmatlari natijasida Arab jazirasida johiliyatda yashayotgan xalqlar qisqa vaqt ichida payg'ambarga ergashib, jahondagi eng yuksak madaniyatli xalqlardan biriga aylandi. Ming yillar davomida hukmronlik qilib kelayotgan, ilm-fan, madaniyat, san'at va sivilizatsiyalar "o'chog'i" hisoblangan xalqlar (forsiyalar, rumliklar, hindlar, misrliklar)ni bunday buyuk o'zgarishlar o'z qoldirdi va fath qildi. Bu o'zgarishlar butun insoniyatga haq bilan botil, harom bilan halol, savob bilan gunoh amallarni ko'rsatib, jaholat bilan kamolotni, ezgulik bilan yovuzlikni, do'st bilan dushmani bir-biridan ajratib, uni komillikka chorlagan haq yo'li, saodat yo'li edi. Yaqindagina doimo jaholat hukmron, ibtidoiy-badaviy turmush tarzi hamda shunga mos axloq, madaniyat va e'tiqodga ega bo'lgan arablar – islomni qabul qilib, oradan salkam yarim asr vaqt o'tib ham dunyoviy, ham diniy-irfoniy ilmlarni egallab, dunyoning eng peshqadam millatlaridan biriga aylandi. Shubhasiz, bu – sarvari koinot, xotam ul-anbiyo, rahmatil olamin, nabiiyil-azhar va shafaoatchimiz bo'lgan payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollalohu alayhi va sallamning cheksiz va buyuk xizmatlari natijasi, mislsiz ta'lim va tarbiyalari samarasi edi.

Islomning ziyosi arablar e'tiqodi, turmush tarzi va axloqini qay darajada yuksaltirgan bo'lsa, Payg'ambarimiz madhida bitilgan na'tlar adabiyotni haqiqiy estetik ideal kuychisiga aylantirdi. Badiiy adabiyot o'z ifoda shakllarini saqlagan holda, mazmun-mohiyatda butunlay yangilandi, haqiqiy ma'nodagi so'z san'ati va insonshunoslikka evrildi. Komillik masalasi, komil inson vasfi adabiyotning bosh vazifasi o'laroq, payg'ambarni madh etish, unga muhabbat izhor qilish, ezgu fazilatlarini ulug'lash shoirlarning oliy maqsadiga aylandi. Shuning uchun ham, ijodkorlar bu ulug' zotning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar bo'lgan voqealarni, xalqi-yu xulqini asrlar davomida ulug'lab, madhlar bitib kelmoqda.

"Manbasi arab adabiyoti bo'lgan va bu adabiyotda "madhiya" nomi ostida bo'lgan na'tlar saodat asrida yozila boshlagani taxmin qilinsa-da, na't mazmunli ilk she'r Hazrat Payg'ambarimizning tug'ilishlaridan yetti asr oldin yaratilgani misli ko'rilmagan va qiziqarli voqeadir. Samoviy kitoblarda xabar berilgan oxirgi

payg'ambarimiz Hazrat Muhammad sollallohu alayhi va sallam kelishining bashoratini bilgan As'ad Abu Karib al-Himyoriy, kutilgan payg'ambar Allohning elchisi ekanligiga ishonganligini va agar o'z davrida unga yetishsa, buyuk sadoqatli holda bo'lishini bir necha she'rlarida yozgan"ligini turk olimasi Emine Yeniterzi o'z ilmiy tadqiqotida keltirgan [Yeniterzi 1989, 28].

Siyratshunos olimlar Payg'ambarimizga atab aytilgan ilk na't ul zotning tug'ilishlari bilan bog'liq holda bitilganligini ta'kidlaydilar. Rasulullohning dunyoga kelishi munosabati bilan bobosi Abdulmuttolib ibn Hoshim xursandchilikdan quyidagi baytlarni aytgan ekan:

وَأَنْتَ لَمَّا وُلِدْتَ أَشْرَقْتَ
الْأَرْضَ وَضَاءَتْ بِنُورِكَ الْأَفْقَ
فَفَحْنُ فِي ذَلِكَ الضِّيَاءِ وَفِي
النُّورِ وَسَبِيلِ الرَّشَادِ نَخْتَرُقُ

(Mazmuni: Sen tug'ilganda, yer yuzi porlab, ufq nurining bilan yorishdi. Biz shu nur va uning ichidamiz, Rashodning nurli yo'llariga kirib boramiz) [Abbos al-Jarari 1982, 142].

Payg'ambarimizning Makkadan Madinaga ko'chib kelishlari bilan, islom Madinada tez tarqab, musulmonlar kuchga to'lib, ilk islom davlati vujudga keldi. Islomga va musulmonlarga qarshi bo'lgan mushrik arablar, yahudiylar va nasroniylar Payg'ambarimiz va musulmonlarga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Oradagi keskinlik ayovsiz janglarni keltirib chiqardi. Natijada ikki o'rtada islom tarixidagi mashhur Badr, Uhud, Xandaq va Xaybar janglari bo'lib o'tdi. Musulmonlarni har tomonlama qiynash va mahv etishni xohlagan, dushmanlar, bu yo'lda har qanday usul va vositalardan foydalandilar. Ana shunday usullardan biri she'riyat edi. Rasululloh bilan Quraysh qabilasi o'rtasidagi adovat kuchayib, Quraysh shoirlari Abdulloh ibn Az-Zabg'ariy, Amr ibn al-Os, Abu Sufyon kabilar o'z she'rlari bilan Payg'ambarimizni, musulmonlar jamoasi va islomni kamsitib, masxaralab she'rlar aytib, qattiq haqorat qilardilar. Rasulluloh bir kuni sahobalariga qarata: "Allohga va uning rasuliga qurol-yarog'i bilan yordam bergan kimsalarga tillari bilan yordam berishga nima to'sqinlik qiladi?" – dedilar. Ushbu chaqiriqqa "Rasululloh shoirlari" degan unvonga sazovor bo'lgan Abdulloh ibn Ravoha, Hasson ibn Sobit, Ka'b ibn Molik kabi mashhur sahobalar "labbay" deb javob berdilar.

Abdulloh ibn Ravoha kuchli notiq va buyuk shoir edi va u Payg'ambarimizga she'r yo'li bilan hujum qilgan shoirlarga javob

she'rlari yozardi. Undan tashqari, kerak bo'lganida, kofirlarni hajv qilardi. Abdulloh ibn Ravohaning she'rlari haqida gapirgan Nabiy alayhissalom ularni "Quraysh mushriklariga qarshi o'q yomg'iridan ta'sirliroq", - deb maqtaganlar. Yana bir shoirlari Hasson ibn Sobit islomni qabul qilgandan keyin hamisha Rasululloh bilan birga bo'lib, yonlaridan jilmadi. Garchi yoshi ulug' bo'lsa-da, g'azotlarda jang qildi, mushriklarga qarshi yozgan she'rlari bilan raqiblar ruhini sindirdi, musulmonlarga katta manfaat keltirdi. Rasuli akram Hasson ibn Sobit uchun o'z masjidlarida alohida minbar qurdirib berib, mushriklarga qarshi she'r aytishini buyurdilar. Va ul zotni "Ey Alloh, Hassonni Ruh ul-Qudus bilan qo'llagin", - deb hech bir sahobaga qilmagan duosini qilganlar. Payg'ambarimiz vafotidan so'ng, chuqur qayg'uga botgan Hasson ayriliqqa chiday olmasdan ko'zlari ko'r bo'lib qoladi. Ko'zlari ojiz bo'lishiga qaramay umrining so'ngiga qadar Nabiy alayhissalomga atab ko'plab madhiyalar, marsiyalar, qasida va manzumalar bitadi. Olimlarning ta'kidlashicha, aynan Hasson ibn Sobit ijodi, payg'ambarimiz va islomni ulug'lab bitgan madhiyalari, vafotidan so'ng ayriliq va sog'inch bilan yozgan marsiyalari hamda ul zoti sharifning alohida sifatleri, fazilatleri, mo'jizalari haqida yozgan maqtovlari keyingi davr shoirlari uchun maktab, tasavvufiy she'riyat uchun asos bo'lib xizmat qilgan, badiiy adabiyot olamida payg'ambar madhiga bag'ishlangan alohida na't janrining vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Keyingi davr shoirlariga, avvalo, an'anaga sodiqlik, uni munosib darajada davom ettirish va yanada yuksaltirish vazifalari yuklangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda iymon talabi - Payg'ambarni sevish va unga muhabbat bilan ergashish istagi mavjud edi.

Qozi Iyoz hazratlari o'zining "Shifo" deb nomlangan asarida shunday yozadi: "Odatda, inson bir kishini uchta sababga ko'ra yaxshi ko'radi:

- tashqi go'zalligi bo'lsa;
- axloqi, ichki dunyosi komil bo'lsa;
- odamlarga yaxshilik qiladigan bo'lsa [Qozi Iyoz 2022, 359].

Payg'ambarimizda ana shu uch xislatning barchasi jamuljam edi. Ya'ni, u zot - *komil inson* edi. Shuning uchun ham, Alloh taolo Kalomullohning ko'p o'rinlarida o'z rasulini madh etgan.

Alloh taolo: "Sizlar uchun Alloh va oxirat kunidan umidvor bo'lgan hamda Allohni ko'p yod qilgan kishilar uchun Allohning Payg'ambarida go'zal namuna bordir", - deb marhamat qiladi Qur'oni karimning "Azhob" surasi 21-oyatida.

Rasulullohga ergashgan kishi Alloh taoloning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Bu haqda Qur'oni karimning Oli Imron surasi 31-oyatida: "Ayting (ey Muhammad!): Agar Allohni sevsangiz, menga ergashingiz. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag'firat etadi. Alloh kechiruvchi va rahmlidir", - deyilgan. Alloh taolo o'zining ilohiy kitoblari Tavrot, Zabur va Injilda ham kelajakda keladigan, Ahmad (payg'ambarimizning ismi) ismli payg'ambar haqida xabar berib, uni madh etadi [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2011, 420].

Buyuk muhaddis imom Al-Buxoriy "Al-jome' as-sahih" asarida quyidagi hadislarini keltiradi: "Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Hech biringiz unga otasi-yu bolasidan va barcha odamlardan sevimli bo'lmaganimcha mo'min bo'la olmas". Yana aytgandilarki: "Kimda quyidagi uch xislat bo'lsa, unga iymon huzur-halovat baxsh etgaydir:

- Alloh va Rasulini hammadan ko'ra yaxshi ko'rmoq;
- yaxshi ko'rgan kishisini faqat Allohni deb (Alloh yaxshi ko'rgani uchun) yaxshi ko'rmoq;
- yomon ko'rgan kishisini faqat Allohni deb (Alloh yomon ko'rgani uchun) yomon ko'rmoq" [Buxoriy 2020, 134].

Tasavvuf mashoyixlariga ko'ra, payg'ambarni sevish jannatga yo'ldir, Allohga bo'lgan muhabbat uchun eshikdur. Zavq ahli shu sabablarga ko'ra, asrlar davomida komillar komili haqida minglab na'tlar bitib, insoniyatni u zotning shaxsiyati bilan tanishtirish, u zot siymosini xayolda gavdalantirish, komil axloqini vasf etish, dunyoga kelishi ulkan hodisa va insoniyat uchun buyuk ne'mat ekanligini barchaga uqtirishni o'zlarining muqaddas vazifalari deb bilganlar. Ayni damda, ushbu na'tlar payg'ambarga muhabbat qo'yish, uni sevish bilan Allohga itoat etish, roziligiga erishish hamda qiyomatda shafolat qilinadiganlar umidida yongan yuraklarning oshiqona tasviri hamdir. Saodat asri shoirlari bu buyuk vazifani sharaf bilan bajardilar. Bu davrga kelib islom diyorlari kengayib, endi faqat maqtovlar emas, balki xalqning didi, e'tiqodi, hayotiy qarashlarini yuksaltiradigan, islomiy g'oyalarini kuylaydigan asarlarga ehtiyoj ko'paygan edi. Yangi dinning aslini, mohiyati, ma'no-mazmuni va u bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarni xalq uchun sodda va tushunarli tilda yetkazish zarurati tug'ildi. Natijada, ruhiy tarbiya, tazkiyat un-nafs bo'lgan tasavvuf ta'limoti g'oyalarining badiiy adabiyot vazifalari bilan uyg'unlashuvi hamda ularning bir-birini to'ldirib birlashuvi diniy-tasavvufiy adabiyotning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ana shu ehtiyoj forsiylarda so'fiyona g'oyalar bilan oziqlangan tasavvuf

adabiyotining rivojlanishiga katta xizmat qildi.

Allohning so'nggi elchisi bo'lgan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning insoniyatga baxt-saodat yo'lini ko'rsatib, dunyo xalqlarini zulmatdan nurga olib chiqishi forsiyzabon xalqlarni ham chetlab o'tmadi. Boy va yuksak gumanistik islom madaniyati tabiatan nozik, she'riy qobiliyatga ega forsiyzabonlarning qalbi va ongini butunlay rom etgan bo'lsa, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning komil inson namunasi sifatidagi buyuk shaxsiyati, husn-u xulqi, surat-u siyrati forsiyo'y shoirlarga ilhom manbayi bo'ldi va forsiy adabiyotining yuksalishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Islomdan keyingi yangi forsiy adabiyotda nabiy madhi, siyrati va u zot bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarga bag'ishlangan minglab asarlar dunyoga keldi. Ijodkorlar devon va dostonlarining tarkibida Rasuli akram uchun alohida o'rin ajratdilar. Bundan tashqari, basmala, hamd va Nabiy na'tidan so'ng, dastlabki to'rt xalifasi – xalifayi roshidin, imomlar, din peshvolari, hukmdorlar maqtalib, madh etildi. Kitob tuzish talabi, an'anaviy debochalar tartibi takomillashib, barqarorlashdi.

Fors adabiyotida dastlab na'tlar qasida, g'azal va qit'a kabi janrlarda hamda masnaviy shaklida bitilgan va devonlarda ularga alohida o'rin berilmagan. Keyinchalik – g'aznaviylar davrida Firdavsiyning "Shohnoma"sida, Faxriddin Asad Gurgoniyning "Vis va Romin", Asad Tusiy "Gershaspnoma" dostonlarida (masnaviy) na'tlar hamda Nosir Xusrav devonida "Muhammad" radifli alohida na't g'azali bitildi. Dastlab, asosan, didaktik mazmundagi vasf na'tlar yozilgan bo'lsa, VI asrdan boshlab shoirlar tomonidan me'roj voqeasi tasviriga adabiy an'ana sifatida qaraldi, me'rojga oid ko'plab asarlar yaratildi.

Dastlabki, me'rojlar maktub shaklida yaratilgan bo'lib, bunday maktublarda "ushbu asarlarni bitgan insonlarning e'tiqodi, diniy qarashlari, ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etib, ular ijodkor shaxsiyati, hayotiy prinsiplari va dunyoqarashini o'rganishda asosiy ko'makchi hisoblanadi. Garchi bu she'rlarning ifoda yo'sini va taqdim etish yo'llari bir-biridan farq qilsa-da, lekin bu asarlarning mazmuni ko'pincha o'xshash va ba'zan bir xil bo'lib, Qur'oni karimning me'roj voqeasi sabab nozil bo'lgan oyatlar, ushbu voqeadan ko'proq ta'sirlangan rivoyatlar, tafsirlar, Nabiy alayhissalomning hadislari va tarjimai holi bilan bog'liq kitoblar zaminida dunyoga kelgan. Yana bir e'tiborga molik jihat shuki, tasavvufiy-axloqiy she'rlar va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning me'rojga oid

bashorat va marhamatlarining ta'siri... shoirning tafakkuri, turmush tarzi, axloqiy, tarbiyaviy, diniy xususiyatlari va ijtimoiy mavqeyini bilish, adabiy-estetik qarashlarini baholashda muhim vositadir" [Hojizoda 2012, 2].

Keyingi davr shoirlari Hoqoniy, Anvari, Ansoriy, Sheroziy, Iroqiy va boshqalar ham bu mavzuda barakali ijod qildilar. Forsiy tildagi so'fiyona adabiyotning cho'qqisi hisoblangan Farididdin Attor asarlari – devoni, "Asrornoma", "Ilohiynoma", "Musibatnoma", "Muxtornoma" va "Mantiq ut-tayr" dostonlarida, Mavlono Jaloliddin Rumiyning barcha asarlarida payg'ambar madhida eng go'zal na'tlar bitildi.

Alisher Navoiy salafaridan biri – Nizomiy Ganjaviydan boshlangan xamsanavislik an'anasi Sharqda yangi adabiy hodisaga aylandi. "Xamsa"lardagi muqaddima boblar, xususan, hamd va na'tlarni qo'llash prinsiplari, dastlab, Nizomiy dostonlarida shakllandi. O'zining "Panj ganj" asarida shoir payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi va sallamni madh etib, har bir doston muqaddimasida vaf va me'roj na'tlarni bitadi.

Rasululloh madhini eng go'zal baytlar bilan yuksaklarga ko'targan shoir Qur'oni karim va hadislariga tayanib u zotni ta'riflaydi, muhabbatini izhor qiladi. Payg'ambarga bo'lgan muhabbat shoir ijodidagi muhim mavzulardan biri edi. Shoir bu ishqning go'zalligi, ezguligi, o'ziga xosligi, betakror va doimiy ilohiy ishq yo'lida vosita ekanligini na't va me'roj boblarda o'ziga xos tarzda badiiy talqin etadi. Shoirning har bir dostonida Rasulullohga muhabbat u zotga aloqador ko'plab voqealarning badiiy tafsilot va talqinlarida nur-ziyo taratadi va bu asrlar o'tib unga ergashgan Xusrav Dehlaviy, Abdurahmaon Jomiy va Alisher Navoiy kabi xamsanavislarni ruhlantirdi, ularga o'z xamsalarida bu mavzuni takomillashtirish uchun ma'naviy kuch va ilhom berdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, na'tlar, dastlabki, davrlarda arab adabiyotida madh sifatida qo'llanilib:

- o'tgan buyuk kishilar fazilatlarini ulug'lash, eslash uchun yozilgan marsiya tarzida;

- zamon hukmdori, qabila boshlig'ining qahramonliklari haqidagi madhiya-qasidalar tarzida;

- ba'zi shoirlar ijodida o'z hissiyotlari, muhabbat azoblari-yu quvonchlari, samimiy do'stlikni ulug'lagan g'azallar tarzida;

- va turli voqea-hodisalar vasfi hamda ezgulikka chorlagan hikmatlar tarzida yaratilgan.

Islomning tarqalishi hamda Nabiy alayhissalomning siyrati, haqni joriy etish yo'lidagi jasoratlarini vasf etish, ulug'lash maqsadida Abdullah inb Ravoha, Hasson ibn Sobit kabi payg'ambarimiz shoirlari tomonidan ko'plab she'rlar bitildi. Keyinchalik payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning vafoti munosabati bilan shoirlar tomonidan ko'plab marsiyalar, qasidalar, manzuma-yu madhiyalar bitildi. Ayniqsa, Payg'ambar oshig'i va shoiri bo'lgan Hasson ibn Sobit bu sohada barcha shoirlarning sardori edi. Hasson ibn Sobit Nabiy alayhissalom vafotidan so'ng yig'layverib ko'zlari ojiz bo'lib qoladi. Shunga qaramasdan, Sarvari koinotning hajrida bitgan minglab marsiyalari, Ul zotni ulug'lab yozgan madhiyalari keyinchalik arab adabiyotida na't janrini shakllanishiga asos bo'ldi. Payg'ambar siyrati va nubuvvat bilan bog'liq mavzularni adabiyotda mustahkam o'rin olishi, keyinchalik hikmat adabiyotining shakllanishiga asos bo'ldi.

Fors adabiyotida na'tlar dostonlarning, devonlarning debochasidan alohida o'rin egallab, qat'iy an'anaga aylandi. Fors shoirlari islomning joriy qilinishi, Payg'ambarning insoniyat oldidagi buyuk xizmatlarining e'tirofi hamda Komil inson haqidagi tasavvurlari, olam va odamning yaratilishi, tiriklikning mohiyati haqidagi diniy-tasavvufiy qarashlarini ifodalashda na'tlardan foydalanib, o'zlarining estetik ideal, estetik go'zallik haqidagi adabiy-estetik qarashlarining badiiy poetik tasvirini payg'ambar shaxsiyati misolida tasvirladi. Ayniqsa, na't bitishda har bir ijodkor Muhammad alayhissalomga bo'lgan cheksiz muhabbatini izhor etib, Ul zot erishgan oliy maqomga bo'lgan mustahkam ishonchi, iymon-e'tiqodini tasvirlab, ayni damda, na'tlar qiyomat kuni shafolat umididan yongan yuraklarning badiiy in'ikosi ekanligini ta'kidlaydilar.

Adabiyotlar

- Abdurrahman Güzel. 2003. *Türk Halk Edebiyatı El Kitabı*. Ankara: Akçağ.
- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. II жилд. Тошкент: Фан.
- Doktor Abbos al-Jarari. 1982. *Marokash adabiyoti: uning hodisalari va muammolari*. Kasablanka: An-Najah New Press.
- Emine Yeniterzi. 1989. *Divan Şiirinde Na't*. Doktora tezi. Konya.
- عرفانیات در ادب فارسی « تابستان ۱۹۳۱، سال سوم - شماره ۱۱، حاجی زاده، مجید
- Исмоилов, И. 2019. *Алишер Навоий “Садди Искандарий” дostonи қиёсий таҳлили*. PhD диссертацияси. Тошкент.

- Комилов Н. 2005. *Хизр чаимаси*. Тошкент: Маънавият.
- Меърожнома*. 1995. Нашрга тайёрлаганлар И.Ҳаққул, С.Рафъиддин. Тошкент: Ёзувчи.
- Муллахўжаева, К. 2019. *Алишер Навоий ғазалиётда тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги*. Тошкент: Akademnashr.
- Муҳиддинов, М. 2005. *Комил инсон – адабиёт идеали*. Тошкент: Маънавият.
- Имом Бухорий. 2020. *Олтин силсила: Саҳиҳул Бухорий*. 1-жуз. Тошкент: HILOL-NASHR.
- Орзибеков, Р. 1976. *Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат*. Тошкент: Фан.
- Саййид Жаъфар ибн Ҳасан Барзанжий. 2020. *Мавлид*. Таржима ва шарҳлар муаллифи Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. Тошкент: HILOL-NASHR.
- Uludağ S. 1995. *Tasavvuf terimleri sözlüğü*. Istanbul.
- Зиявудинова, М. 2012. *Мумтоз араб адабиёти*. Тошкент.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2020. *Ҳадис ва Ҳаёт*. 20 жуз. Анбиёлар қиссаси. Тошкент: HILOL-NASHR.
- Қобилов, У. 2021. *Нубувват ҳақиқати – бадий ижод руҳи*. Самарқанд.
- Қози Иёз. Шифо. 2022. *Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васалламнинг ҳақларини танитиш*. Тошкент: HILOL-NASHR.
- Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси*. 2011. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тошкент: Шарқ.
- Қуръони Карим*. 1992. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон.
- يشال عاصي ود. اميل بديع يعقوب. قاموس اللغة المفضلة والأدب. ج ٢. بيروت ، ٧٨٩١
- <https://hidoyat.uz>
- <https://www.sunnatonline.org>
- <https://hawzah.net>
- <https://islom.uz>
- <https://islamansiklopedisi.org.tr>

Historical-literary roots and development of Naat

Fayzulla Iskandarov¹

Abstract

The gradual improvement of Turkish, especially Uzbek literature, cannot be imagined without the Holy Qur'an, hadiths, Sufism philosophy, the issue of the perfect human being, Islamic enlightenment and Muslim morals. We can clearly feel this influence especially in the spirituality of the peoples of the East, who were infused with Islamic enlightenment. This issue is more vividly manifested in fiction, which is the translator of the human heart, soul and feelings. Studying the history of our thousand-year-old literature, we are convinced that its essence is Islamic enlightenment, and divine wisdom in hadiths is its source. The character of the Prophet and the description of the events related to him became an inspiring topic for artists to express their views on the perfect human being. One of these topics is the verses adapted to different poetic forms and genres, inspired by the praise of our Prophet Muhammad, may God bless him and grant him peace. Studying the verses that played an important role in expressing the religious-mystical, philosophical, literary-aesthetic views of the creators is of great importance in evaluating the views of the creators about God, the world and man, the essence of life and the knowledge and imagination of the poetic perception of the world. In the article, the genesis of naat, the path of its historical development, its entry into fiction, its development, on the example of Arabic and Persian literature, were explained in detail from a scientific and theoretical point of view.

Key words: *naat, praise, mi'raj, prophet, madh, sifat, Arabic literature, Persian literature, Turkish literature.*

References

- Abdurrahman Güzel. 2003. *Türk Halk Edebiyatı El Kitabı*. Ankara: Akçağ.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. II jild. Toshkent: Fan.
- Doktor Abbos al-Jarari. 1982. *Marokash adabiyoti: uning hodisalari va muammolari*. Kasablanka: An-Najah New Press.
- Emine Yeniterzi. 1989. *Divan Şiirinde Na't*. Doktora tezi. Konya.

¹ Fayzulla Iskandarov – PhD, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-pochta: mfayzullaiskandarov@gmail.com

ORCID ID: 0000000204540229

For citation: Iskandarov, F. M. 2023. "Historical-literary roots and development of Naat". *Golden scripts* 3: 86-106.

- عرفانيات در ادب فارسی « تابستان ۱۹۳۱، سال سوم - شماره ۱۱، حاجی زاده، مجید
- Ismoilov, I. 2019. *Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni qiyosiy tahlili*. PhD dissertasiyasi. Toshkent.
- Komilov N. 2005. *Xizr chashmasi*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Me'rojnoma*. 1995. Nashrga tayyorlaganlar I.Haqqul, S.Raf'iddin. Toshkent: Yozuvchi.
- Mullaxo'jaeva, K. 2019. *Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi*. Toshkent: Akademnashr.
- Muhiddinov, M. 2005. *Komil inson – adabiyot ideali*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Imom Buxoriy. 2020. *Oltin silsila: Sahihul Buxoriy*. 1-juz. Toshkent: HILOL-NASHR.
- Orzibekov, R. 1976. *O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat*. Toshkent: Fan.
- Sayyid Ja'far ibn Hasan Barzanjiy. 2020. *Mavlid*. Tarjima va sharhlar muallifi Hasanxon Yahyo Abdulmajid. Toshkent: HILOL-NASHR.
- Uludağ S. 1995. *Tasavvuf terimləri sözlüğü*. Istanbul.
- Ziyavuddinova, M. 2012. *Mumtoz arab adabiyoti*. Toshkent.
- Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2020. *Hadis va Hayot*. 20 juz. Anbiyolar qissasi. Toshkent: HILOL-NASHR.
- Qobilov, U. 2021. *Nubuvvat haqiqati – badiiy ijod ruhi*. Samarqand.
- Qozi Iyoz. Shifo. 2022. *Muhammad sollallohu alayhi vasallamning haqlarini tanitish*. Toshkent: HILOL-NASHR.
- Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi*. 2011. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Sharq.
- Qur'oni Karim*. 1992. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. Toshkent: Cho'lpon.
- يشال عاصي ود. اميل بديع يعقوب. قاموس اللغة المفضلة والأدب. ج ۲. بيروت، ۷۸۹۱
- <https://hidoyat.uz>
- <https://www.sunnatonline.org>
- <https://hawzah.net>
- <https://islom.uz>
- <https://islamansiklopedisi.org.tr>

LINGVISTIKA
LINGUISTICS**“Qutadg‘u bilig”dagi baho munosabatini
ifodalovchi leksemalar**Mushtariy Xolmuradova¹**Abstrakt**

Maqolada “Qutadg‘u bilig” asarining o‘z davridayoq shuhrat topgani, pandnoma mashhurligini belgilovchi omillar haqida so‘z yuritilgan. Asar beklarga, lashkarboshilarga atalgan yo‘riqnoma sifatida ko‘pgina xalqlar tomonidan alohida e‘tibor bilan mutolaa qilingan. Uning turli nomlarda keng tarqalishi ham ijtimoiy masalalarning badiiy talqini sifatidagi mazmuni bilan bog‘liq.

Olimlar “Qutadg‘u bilig” nomini asar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib turlicha izohlaganlar. Maqolada Yusuf Xos Hojib bayti mazmunidan kelib chiqib, asar nomining yangicha talqini ham keltirilgan.

“Qutadg‘u bilig” qomusiy manba hamdir. Asarda turli soha vakillari uchun qimmatli ma‘lumotlar jamlangan. Pandnoma matnidan biologik olam, tabiat, jamiyat hodisalari, inson fiziologiyasi, ruhiyatiga oid qimmatli fikr-mulohazalar o‘rin olgan.

Pandnoma mashhurligini ta‘minlovchi omillardan biri unda borliq, tabiiy jarayonlar, ijtimoiy hodisa, shaxslarga berilgan baho munosabatining aks etganligidir. Maqolada Olloh, payg‘ambarning sifatlarini ifodalovchi leksemalar, dunyo, tabiat, jamiyat hodisalari, shaxs fe‘l-atvori, faoliyatiga berilgan baho munosabatlari ifodalangan so‘zlar semantik jihatdan tahlil etilgan.

Muallif bahosini, munosabatini aks ettiruvchi lisoniy birliklar, milliy-madaniy belgilar va ijodkorning til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati, fe‘l-atvor leksemalarining asar badiiyligini ta‘minlashdagi o‘rni misollar tahlili orqali ko‘rsatib berilgan. Baholash mazmunidagi leksemalarning asar matniga xos ma‘nolari va hozirgi o‘zbek tilidagi semantik xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *yo‘riqnoma, pandnoma, tabiat hodisalari, ijtimoiy*

¹ *Mushtariy Xolmuradova* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: mushtariy.xolmuradova@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5039-1909

Iqtibos uchun: Xolmuradova M.F. 2023. “Qutadg‘u bilig”dagi baho munosabatini ifodalovchi leksemalar”. *Oltin bitiglar* 3: 107-121.

hodisa, borliq, fe'l-atvor leksemalari.

Kirish

Mashhur sharqshunos olim Herman Vamberi “Turkiylar o‘zlarining bilimdonliklari bilan butun dunyoni larzaga solgan. Yevropada ibtidoiy hayot hukm surgan bir paytda, ularda milliy adabiyot ravnaq topgan” degan edi. Ana shu milliy adabiyot ildizi “Qutadg‘u bilig” asaridir.

“Qutadg‘u bilig” o‘z davrida shuhrat topgan asar hisoblanadi. Asarning dovrug‘i keyingi davrlarda ham orta bordi. Bu asar yevropa xalqlari orasida ham mashhur bo‘ldi. “Qutadg‘u bilig”dagi mashhur hikmatlarning g‘arb imperatorlariga nisbat berilishi ham asar g‘oyalarining keng yoyilgani va haqiqat ifodasi sifatida asrlar osha bo‘y ko‘rsatib kelayotganini ko‘rsatadi. Bugungi kun ijtimoiy tarmoqlarida imperator Napoleon nomidan aytilgan aforizm tarzida e‘lon qilingan fikrlar “Qutadg‘u bilig”ga tegishlidir. “Qutadg‘u bilig”dagi hikmatlarning bu tarzda ommalashishi va fransuz xalqi tarixi va ongiga singib ketishida ilm ahlining, xususan, “Qutadg‘u bilig” tadqiqotchisi, fransuz olimi Jaubert Amadening alohida o‘rni bor.

“Qutadg‘u bilig” o‘z davrida turli nomlar bilan shuhrat topdi. Asar nomi ham olimlar tomonidan turlicha talqin qilingani. Pandnoma bo‘yicha tadqiqot olib borgan turkologlar asar nomini turlicha tabdil va tarjima qiladilar: *Знание, приносившие счастья* – “Baxt keltiruvchi bilim” [Радлов 1900], *Книга счастья* – “Baxt kitobi” yoki *Осчастливающее управление* – “Baxtli boshqaruv” [Малов 1948, 327], *Знание образующие царей* – “Podshoh qiluvchi bilim” [Бартольд], *Наука управления* – “Boshqaruv ilmi” [Валитова 1951, 11], *Благодатное знание* – “Baxt beruvchi bilim” [Иванов 1983], “Baxtilanish bilimi” [Фитрат 1929], “Saodatga yo‘lovchi bilim” [Каримов 1962; Тўхлиев 2004], “Baxt beruvchi kitob” [Li Chi 1992], “Saodatnoma” [Каримов 1993], “Saodat bergan bilim” [Муниров]. Li Chi *qutadū* so‘zining *qut* va *adū* so‘zlaridan iborat ekanligini aytib, *qut*ni “baxt”, *adū*ni “berish”; “ato etish” deb talqin qiladi. Aslida «Qutadg‘u bilig» – “qut” (baxt), “edū” – ezguluk, “bilig” (bilim, kitob) bo‘lib, “Baxt– ezgulik kitobi” deb nomlash to‘g‘ri bo‘lar edi” [QB 2010, 15-16] deb yozadi. Q.Sodiqov “Qutadg‘u bilig”ni (“Qut berguchi, qutlantirg‘uchi bilim”) deb atagan [Содиқов 2010].

Doston matnida *qutad*=, *qutud*= shaklidagi so‘zlar uchraydi. “Древнетюркский словарь”da bu so‘zlarning ma‘nosi “baxtli bo‘lmoq” (“становится счастливым”) tarzida izohlangan [DTS 1969, 472-474]. Shunga ko‘ra, asar nomining yana bir – “Baxtli

bo‘lish ilmi” ma‘nosi ham kelib chiqadi. Jumladan, Yusuf Xos Hojib asarning nomlanishi haqida shunday fikr bildiradi: *Kitab ati urdum qutadyu bilig, qutadsu oqiyliqa tutsu elig*, ya‘ni “Bu kitobning otini “Qutadg‘u bilig” deb atadim, o‘qiganing qo‘lidan tutib baxt tomon olib borsin” [QB, 1972]. Bu ma‘nolar asar nomining botiniy semantikasini aks ettiradi.

Asar nomining zohiriy ma‘nosi esa “qut” va “bilig” so‘zlari-ning semantikasidan kelib chiqadi. Yusuf Xos Hojib bekni *qut* istiorasi bilan nomlagan: *Qut-ul beg yaqin bolsa qutqa kishi, tiläkin bulur barça etlür işi* –Beg – bu qut, agar kishi bu qutqa yaqin bo‘lsa, barcha tilaklarini topadi, ishlari bajo keladi [QBN, 592, 288a]. Demak, asar nomini “Qutadg‘u bilig”, ya‘ni “Bek(lar)ga atalgan bilim (o‘git)” deb izohlash ham mumkin.

Ingliz, qozoq, nemis, qirg‘iz [Hacib 1983; Balasagin 1993; Balasagin, 2013] va boshqa tillarga tarjima qilingani «Qutadg‘u bilig»ning badiiy va ilmiy qimmatini belgilaydi. Asar qo‘lyozmalarining ommalashtirilayotgani ham doston matniga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. 2015- yilda «Türk Dil Kurumu» tomonidan «Qutadg‘u bilig»ning har uch nusxasi faksimilesi e‘lon qilindi [Hacib 2015].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari qadimgi turkiy tilning uzviy davomi hisoblangan eski turkiy til xususiyatlarini o‘zida mujassamlantirgan muhim manba hisoblanadi.

“Qutadg‘u bilig” timsollari tasviri ayrim madaniy taraqqiyot elementlarining Sharqdan boshlanganiga dalil bo‘lib xizmat qiladi. Karabuk universiteti olimasi L. G. Kaya san‘at tarixi borasida fikr yuritib, XI asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, hukmdorlar va a‘yonlar munosabatlari haqida ma‘lumotlar beradi. Unda aytilishicha, XI asrda hukmdorlar maxsus qubba (mehrob) shaklidagi taxtda o‘tirishgan. Ko‘plab haykallar, rasmlar va miniatyuralarda hukmdorlar qo‘lida hukmronlik ramzi hisoblangan oltin jom bilan tasvirlangan. Mana shu xususiyat keyinroq G‘arb madaniyatining shakllanishiga ham ta‘sir qilgan [Lutfiyev 2015, 3350-3357]. “Qutadg‘u bilig” qahramoni qo‘lida hukmdorlik ramzlarini tutgan ilk hukmdor timsolidir.

“Qutadg‘u bilig”ning mashhurligini ta‘minlovchi bir qator omillar mavjud.

Asar matni eski turkiy til davrida qo‘llangan so‘zlar bilan bir qatorda qadimgi turkiy til davriga oid leksemalar tizimini ham o‘z ichiga oladi. E.Fozilov “Qutadg‘u bilig”da qo‘llangan so‘zlarning 2854 tasi “Древнетюркский словарь”da keltirilganini qayd etgan [Fozilov 1970, 55].

“Qutadg‘u bilig” matnining qomusiy xarakterga ega ekanligi, dunyo, borliq hodisalari haqida teran firklar jamlangani, olam manzarasi obrazli ifodalar orqali tasvirlangani, ijtimoiy-siyosiy boshqaruv, iqtisod tizimiga oid muhim ma’lumotlar berilgani uning dunyo xalqlari orasida keng tarqalishini ta’minlagan. Shuning barobarida asarda voqelikka, jamiyatga, insonlarga teran aql-idrok sohibining bergan bahosi ham aks etganki, bu mushohadalar hozirgi kunda ham ayni haqiqat bo‘lib bo‘y ko‘rsatmoqda. Pandnomaning teran mazmuni, olam, borliq, voqelikka berilgan baho qiymati asarning keng yoyilishiga zamin yaratdi.

Yusuf Xos Hojib mahorati bilan bog‘liq baho munosabatini ifodalovchi ma’nodoshlik qatorlari (*abuchqa // avychg‘a, qarы, kəkchin*), badiiylikni ta’minlovchi muallif ijodiga xos so‘zlar (*уруң қырг‘ыл “oq sochli”*) tadqiqotlarda izohlangan. Shaxsning belgixususiyati, xarakteri, xulq-atvorini baholovchi leksik birliklar statistikasi aniqlangan, bir qancha leksik-semantik guruhlariga ajratilgan [Abdujabborova 2011]. Jumladan, *kökčün* leksemasi “ko‘pni ko‘rgan, tajribali kishi” ma’nosini bildirgan: *Nekü ter ešit emdi türkčä masal, bašında kečürmiš bu kökčün saqal* – Endi (bu) turkcha masalni eshitgin, (unda) nima deydi, o‘z boshidan kechirgan oqsoqol (yoshi ulug‘ kishi) [QBN, 653; 30a11]. *Kökčün saqal* birikmasi tarkibida qo‘llangan *kökčün* qora soqolning oq tusga kirishi, oq va qora ranglarning aralashgan ko‘rinishini ifoda etadi. F.Abdujabborova *urуң қырг‘ыл* leksemasining *kəkchin* leksemasiga mutlaq ma’nodosh tarzida qo‘llanganini qayd etgan.

Asosiy qism

“Qutadg‘u bilig” matni qomusiy xarakterga ega bo‘lib, asarda ijtimoiy hayotning turli qirralarini baholovchi so‘zlar keltirilgan. Jumladan, bir qator leksemalar inson tabiati, fe‘l-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga xizmat qilgan. Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asarida qiymat va baho xususiyatlarini aks ettirgan leksemalar semantikasi borasida to‘xtalamiz.

Yusuf Xos Hojib Allohning bir qator sifatlarini keltirgan. Shunday sifatlardan biri *bağirsaqlik*dir. “Jigar; qalb, yurak; qarindosh” ma’nolarini ifodalagan **bayir** so‘ziga *-saq* affiksini qo‘shishdan yasalgan **bayirsaq** leksemasi ilk bor aynan doston matnida qo‘llangan va “marhamatli”, “shafqatli”, “sadoqatli” ma’nolarini anglatgan. Asarda “Olloh” tushunchasi turkiy *idi* so‘zi bilan ifodalangan. Asar qahramonlari tilida *bağirsaq idim* (mehribon egam), *bağirsaq inanğu idim* (mehribon, inonchim –

egam), *qatig‘liq yerindä siğ‘inğu idim* (og‘irlik paytlarida sig‘inadigan egam) birikmalari ishlatilgan [Sodiqov 2009, 219]. *Bağirsaq idim* birikmasida Ollohning mehribonligi, rahm-shafqatli ekanligi o‘z ifodasini topgan. *Bağirsaq* “Qadimgi turkiy lug‘at”da “mehribon”, “samimiy”, “rahmdil” ma’nolarida qayd etilgan [DTS 1969, 78].

Bağirsaq ko‘proq Ollohning sifatlarini takidlashga, uning aksi sifatida inson fe‘l-atvori, xususiyatlarini ifodalashga xizmat qilgan. *Bayirsaq* sifatidan yasalgan *bayirsaqliq* “marhamatlilik”, “shafqatlilik”, “mehribonlik”, “xushmuomala, yoqimli” ma’nolarini anglatgan:

Bağirsaqliq erdi meniñ bu sözüm

Esan qal salāmat ay körklüg yüzüm [QB, 2011, 1481/35].

“Bu so‘zlarim barchasi mehribonlikdan iborat, Eson va salomat qol, ey yuzi ko‘rkligim” [QB 1972, 1460/267]. *Bağirsaqliq* “Древнетюрксий словарь” (“Qadimgi turkiy lug‘at”)da “sodiqlik” ma’nosida qayd etilgan [DTS 1969, 78]. Mahmud Koshg‘ariy devonida “xushmuomala, yoqimli odam”ni bildirgan [DLT, I, 460]. Bu so‘zning ma’nosi hozirda *mehribon*, *marhamatli*, *samimiy* kabi arabcha so‘zlar bilan ifodalanadi. Leksemaning antonimi *bayirsiz* “Qutadg‘u bilig” matnida “yomon, shafqatsiz, berahm, xudbin” ma’nolarini anglatgan.

Bağirsaq qadaş birikmasida *bağirsaq* ham “sodiqlik”, ham “ko‘ngilga, qalbga yaqinlik” ma’nolarini anglatib kelgan:

Uquş ol saña eđgü andlığ adaş

Bilig ol saña keđ bağirsaq qadaş [QB, 2011, 317/84].

“Zakovat sen uchun ezgu ontli do‘stdir, Bilim sen uchun o‘ta mehribon qarindoshdir [QB 1972, 311/107].

A.Kasiyeva «Qutadg‘u bilig»dagi metaforalarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida *bağirsaq* va *tapuğči* so‘zlarini quyidagicha izohlaydi: “Metafora *bağirsaq*, *tapuğči* – “сердечный слуга – сердце” *bağır* [печень], в русском переводе “ближе сердце в груди”, а в англ. “[его] держи близко к груди” [Kasiyeva 2006, 142]. A.Kasiyeva mulohazalarida *bağır* “jigar” leksemasining “yaqinlik” semasi anglashiladi, ya’ni *bağır* “jigar” ko‘krak qafasida yurakka eng yaqin a’zo sifatida tilga olingan. Olima talqinlaridan insonning bu yorug‘ olamdagi eng yaqinlari – og‘a-ini, opa-singillari “jigar”ga nisbatlanish sabablari ayon bo‘ladi.

Alisher Navoiy asarlarida *bağirsaq* so‘zining asosi bo‘lgan *bağır* ko‘p qo‘llangan. *Bağır* so‘zi sifatlovchi tarzida *bağ‘ir pargolasi*, *bağ‘ir porasi*, *bağ‘ri tosh*, *bağ‘ri suv*, *bağ‘ri butov*, *bağ‘ri qaro*, *bağ‘ri tol*

birikmalari tarkibida ishlatilgan [ANATIL 1984, 236].

Pandnomada payg‘ambarlarni tavsiflovchi so‘zlar ham keltirilgan. *Sewüg* so‘zi asarda “sevimli”, “sevikli” ma‘nolarida payg‘ambar sifatini ifodalash uchun qo‘llangan:

Sewüg sawçi idti bağirsaq idi

Bođunda talusi kışidä keđi “Mehribon egam sevikli rasul yubordi, (U) xalq orasida sarasi (va) kishilar orasida yaxshisi edi” [QB 1972, 34/65]. “Qadimgi turkiy til lug‘ati”da *sevüg* “sevimli” ma‘nosida qayd etilgan [DTS 1969, 498]. *Sewüg* turkiy so‘z bo‘lib *sevmoq* fe‘lidan yasalgan. *Sawçi* yuqoridagi baytda “payg‘ambar” ma‘nosida qo‘llangan. *Sewüg sawçi* “sevikli rasul” ma‘nosini ifodalagan. *Sewüg* so‘zi barcha insoniy fazilatlar jamlangan umumiy tushunchani anglatadi. Inson *sevüg* bo‘lishi uchun yaxshi, mehribon, ko‘ngilchan, rahmdil kabi sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

“Qutadg‘u bilig”da *sevüg*, asosan, shaxslarni (*sevüg sawçi* “sevikli rasul”), shaxs tana a‘zolarini (*sevüg yüz* “sevimli yuz”, *sevüg jän* “sevimli jon”), narsa-buyumlarni (*sevüg neñ* “sevimli narsa”) baholash uchun qo‘llangan. Asar qahramonlari bir-birlariga murojaat qilganlarida ko‘p hollarda *sevüg yüz* (sevikli yuzligim) birikmasini qo‘llangan. Demak, asarda *sevikli yuzligim* murojaat shakli sifatida ishlatilgan. Mazkur birikmani badiiy matnda qo‘llangan ilk murojaat shakli sifatida ta’kidlash mumkin.

Yusuf Xos Hojibning mulohazalarida, dastavval, dunyoga berilgan baho o‘z aksini topgan.

Köñül berdiñ ersä bu qurtya yüzi, yaqañni tutar kündä ketmüz sözi – Ko‘ngil berib qo‘ysang, bu yuzi ko‘hna (qari), kunda yoqangni tutadi, so‘zi (hech) tugamaydi [QBN 3493, 130b14]. Baytda *qurtya yüzi* deyilganda yuz emas, balki qari yuzli kampirga qiyos qilingan dunyo nazarda tutilmoqda.

Körü barsa dunya kölikä sanı, yedärsä qačar qačsa eđrär seni – Nazar solsang, dunyo ko‘lanka kabidir, izidan borsang, qochadi, qochsang izingdan boradi [QBN, 3488; 130b9]. *Dunyo ko‘lankaga* o‘xshatilgan. *Kölikä säni* o‘xshatishi asosida *dunya* leksemasidagi “beqarorlik”, “foniylilik”, “bevafolik” semalari namoyon bo‘lgan. *Dunya* leksemasidagi “o‘tkinchilik”, “beqarorlik” semalari qiyoslashga asos bo‘lgan. *Säni* (san= o‘ylamoq, hisoblamoq) o‘xshatish vositasi vazifasini bajargan.

«Qutadg‘u bilig»da “rahnamo, yo‘lboshchi, yo‘lchi” ma‘nosidagi *qulawuz* so‘zi qo‘llangan [Sodiqov 1992, 98]. Yusuf Xos Hojib yulduzlarni *qulawuz*, ya‘ni “yo‘lboshchi” sifatida baholaydi va mutafakkirning bahosi leksemaning lug‘aviy ma‘nosini yanada

oydinlashtirishga xizmat qiladi: *Bu kökdäki yulduz bir anča bezäk, bir anča qulawuz bir anča yezäk* – Bu ko‘kdagi yulduzlarning bir qanchasi bezakdir, bir qanchasi rahnamo va bir qanchasi yo‘lchidir [QBN, 124; 12a1]. Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *qulabuz* [DLT, I, 449] shaklida qayd etilgan. *Qulawuz* “yo‘l boshlovchi” ma‘nosida “Qisasi Rabg‘uziy”da ham uchraydi [Abdushukurov 2017, 17]. Bu so‘zning fonetik o‘zgarishga uchragan *qulayuz* shakli XIV asr manbalarida kuzatiladi [Tarjumon 1980, 75]. Ushbu so‘zning keyingi davr manbalarida deyarli uchramasligiga asoslanib, XVI asrlarda arxaik so‘zga aylana boshlagan, deyish mumkin. Asarlarida asl turkiy leksemalarni qo‘llashni ma‘qul ko‘rgan Cho‘lpon ushbu qadimgi so‘zni *qalag‘uz* shaklida “yurt yo‘li” she‘riga olib kirgan [Чўлпон 1991, 462]. Hozirgi turk tilida *kelavuz* “yo‘l ko‘rsatuvchi; gid; quda; yo‘naltiruvchi” kabi ma‘nolarda faol qo‘llanadi [TRSl, 539].

“Qutadg‘u bilig”da ijtimoiy hodisalar tavsifi ham keltirilgan: *Uquşqa biligkä bu tılmaç tıl, yaruttaçı erni yoriq tilni bil* – Uquvga, bilimga tilmoch – bu til, kishini ro‘shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin [QBN, 158; 13a7]. Til orqali kishi yuksaladi, qadr topadi. Baytda *tılmaç* metafora asosida til hodisasini baholashga xizmat qilmoqda.

Har bir badiiy asarning, jumladan, pandnoma asarlarning muayyan o‘rinlari shaxs tasviriga bag‘ishlanadi. Shaxsning fe‘l-atvori, uning xarakter- xususiyatini baholovchi leksemalar asar matnida eng faol qo‘llangan qismni tashkil etadi.

Asarda qo‘llangan **tađu** istilohi “mijoz” ma‘nosini ifoda etadi. Yusuf Xos Hojib mijozning inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, har bir kishi o‘z mijoziga qarab ovqatlanishi lozimligini ta‘kidlaydi. Yusuf Xos Hojib qirq yil yashab o‘z mijozini bilmagan insonni hayvonga qiyos qiladi. **Isig** va **soyïq** so‘zlari inson mijozini bilan bog‘liq bo‘lgan “issiqlik” va “sovuqlik” tushunchalarini ifoda etgan. Muallif inson “issiqlik” va “sovuqlik” tushunchalarining mohiyatini bilishi kerakligi, issiqligi oshganda sovuqlikni oshiradigan va, aksincha, sovuqlik oshganda issiqlikni ko‘taradigan taomlarni tanovvul qilishi lozimligini aytgan: *Isig artsa terkin soyïq iç oza, soyïq artar ersä isigin tüzä* – Issiqlik oshsa, darhol o‘zing sovuqlik ichib yengillash, sovuqlik oshadigan bo‘lsa, issiqlik bilan tuzat [QBN, 4518; 167b5]. Yusuf Xos Hojib *quruq sovuqlik (quruq issiqlik)* yoki *ho‘l sovuqlik (ho‘l issiqlik)* tushunchalarini farqlaydi. Inson o‘z mijozini qandayligini aniq bilmagan taqdirda issiqlik yoki sovuqlik o‘rtasidagi bir me‘yorga amal qilishi lozimligini ta‘kidlaydi.

Mumtoz adabiyotda *qish* va *bahor* so‘zlari ramziy ma‘noda

inson umrini ifoda etib kelgan. Bu qiyos birinchi marta «Qutadg‘u bilig»da uchraydi. Asarda insonning yigitlik yoshi yoz fasliga qiyos qilinadi. Ma‘lumki, XI – XII asr manbalarida, xususan, «Qutadg‘u bilig»da ham *yaz*, asosan, “bahor” ma‘nosida qo‘llangan. Inson umrining bahori, ya‘ni yigitlik davrida sovuqlik iste‘mol qilishi, natijada qonning me‘yoriyligiga erishishi mumkinligi qayd etilgan: *Yigit ersä yašîñ yaz ersä yilîñ, soyîq işkâ tutyîl esätür qaniñ* – Yigit yoshida bo‘lsang, fasl(ing) bahor bo‘lsa, sovuqlik (narsalarni) iste‘mol qilgin, qoningni ravon qiladi [QBN, 4519; 167b6].

Kishi yoshi oltmishdan oshgan bo‘lsa, uning davri *qish* mavsumiga qiyos qilinadi. Yosh oltmishga borib, umrning qish fasli yaqinlashganda, issiq taomlar iste‘mol qilish kerakligi aytilgan: *Yašîñ ersä altmîš ödüñ ersä qîš, isig işkâ tutyîl soyîq qilma iş* –Yoshing oltmish (va undan ortiq) bo‘lsa, mavsuming qish bo‘lsa [ya‘ni qish mavsumi bo‘lsa], issiqlik iste‘mol qil, sovuqlik iste‘mol qilma [QBN, 4521; 167b8]. Ma‘lum bo‘ladiki, «Qutadg‘u bilig»da inson umri qismlari fasllarga qiyoslangan. Bunday qiyos Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonida ham o‘z ifodasini topgan.

«Qutadg‘u bilig»dagi tibbiy terminlar, tibbiyotga doir tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi hamda an‘anaviy tibbiyot yutuqlari ta‘sirida shakllangan, deyish mumkin. N.Mallayev «Qutadg‘u bilig»da “Toji Hakim” degan tasviriy ifoda qayd etilganini ta‘kidlaydi va bunda muallif Ibn Sinoni ko‘zda tutgan bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tadi [Mallayev 1976, 126].

“Qutadg‘u bilig”da shaxs fazilatlarini baholashdagi eng faol so‘zlardan biri “yaxshi” ma‘nosidagi *edgü* so‘zidir:

Keräk beg keräk qul ne edgü esiz özi öldi ersä atı qaldı iz “Xoh beg, xoh qul ,yo ezgu -yomon bo‘lsin) O‘zi o‘lgan bo‘lsa, otidan iz qoladi” [QB, 1972, 235/78]. Bu so‘z “yaxshi” ma‘nosini bildirib, *edü iş* (yaxshi ish), *edü kişi* (yaxshi kishi), *edü erdäm* (yaxshi xulq), *edü el* (yaxshi el), *edü asiğ* (yaxshi foyda), *edü at* (ezgu nom), *edü qılınç* (yaxshi qiliq), *dü söz* (ezgu so‘z), *edü bodun* (yaxshi xalq), *edü er* (yaxshi er), *edü yol* (ezgu yo‘l) birikmalari tarkibida kelgan. “Qadimgi turkiy til lug‘ati”da *edgü* “yaxshi”, “samimiy” ma‘nolarida qayd etilgan [DTS 1969:164].

Yusuf Xos Hojib inson faoliyatining asosida ezgulikni ko‘radi. *Edgü* “ezgu” leksemasi orqali komil insonni tavsiflaydi.

Edgü leksemasi “Kultegin” bitiktoshida *edgü* shaklida qo‘llangan: *yayuq ersär edgü ayi berür* [DTS 1969, 163]. “Devonu lug‘otit turk”da ham *edgü* shaklida kelib “yaxshi, ezgu, chiroyli”

ma‘nolarida ishlatilgan [DLT, I, 149]. «Qutadg‘u bilig»da bu so‘zning *eðgü*, *edgü* shakllari qo‘llangan:

Kimi eðgü tutsa bayat eðläsä,

qamuy eðgü boldi aniñda basa – Kimni Xudo ezgu tutsa, ulug‘lasa, shu tufayli (uning) hamma (ishlari) yaxshi bo‘ladi [QBN, 6064; 222b3]. Ya‘ni, inson “ezgu tutilishi, ulug‘lanishi” uchun yaxshi amallari, ibratli faoliyati bilan umrini bezamog‘i lozim”. Bugungi kunda *eðgü/ edgü* so‘zi fonetik o‘zgarishga uchragan, *ezgu* shaklida qo‘llanadi. Ayrim yozma manbalarda *edgü* so‘zining “foydali, saxiy, sog‘lom, ishonchli” ma‘nolari ham qayd etilgan [Дадабоев 1991, 61].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida tashqi ko‘rinishni baholovchi so‘zlar qo‘llangan. Masalan, **silik** “pok”, “toza”, “chiroyli” ma‘nolarida kelgan: *Yula-teg küyär-sä bu kün ey elig, yaruqluq ađınqa turur ey silik* – Sen bugun shamdek kuyayotirsan, ey elig, (lekin) yorug‘lik boshqagadir, ey nazokatli [QBN, 5058; 187a8]. “Poklanmoq, tozalanmoq” ma‘nosida *sili=* so‘ziga sifat yasovchi -k qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan *silik* so‘zi “Kultegin” bitiktoshida uchraydi: *silik qiz oyluñ küñ bolti– sening mard o‘g‘il-qizing qul bo‘ldi* (DTS, 500). Ushbu leksema DLT da *er* so‘zi bilan birikma hosil qilib, “oliyanob odam, kishi” ma‘nosini ifodalagan. *Silik* “Qutadg‘u bilig”da erkaklarga nisbatan qo‘llangan.

Fe‘l-atvor shaxsning faoliyati, o‘zga shaxslarga munosabati, yashash tarzida namoyon bo‘ladigan xarakter-xususiyat belgilari bo‘lib, bir qator leksik birliklar orqali ifodalanadi. Shaxs faoliyatiga ko‘ra uning fe‘l-atvoriga ijobiy yoki salbiy baho beriladi. Shu jihatdan, shaxs fe‘l-atvori ijobiy va salbiy munosabatlar asosida guruhlanadi. “Qutadg‘u bilig”da quyidagi leksemalar shaxsning ijobiy fazilatlarini ifodalashga xizmat qilgan: *bütün, çın, ersıq, eðü*.

Bütün turkiy so‘zi “ishonchli”, “to‘liq”, “durust” ma‘nolarini ifodalagan:

Bağırsaq keräk häm közi köñli toq

bütün çın qılıqı köni bolsa-oq. “Sadoqatli hamda ko‘zi to‘q (bo‘lishi) kerak, Ishonchli, chin, qiliqlari o‘q (dek) to‘g‘ri bo‘lishi kerak” [QB,1972, 2607/119].

Bütündan yasalgan *bütünsüz, bütünlük* so‘zlari ham shaxs fazilatlarini anglatgan. Asarda xarakter-xususiyatni ifodalashda *qılınçı bütün, qılıqı bütün* (“qilig‘i butun” – barcha yaxshi fazilatlarini qamrab olgan insonlarga nisbatan qo‘llangan), *bütün er* “ishonchli kishi” birikmalaridan foydalanilgan.

Hozirda *butun* so'zi "sinmagan, sindirilmagan, shikastlanmagan; siniq-mertik joyi yo'q" ma'nolarida kelib [O'TIL, 2006, 387], narsa-buyumlarga nisbatan ishlatiladi. Insonga nisbatan qo'llanganda *bag'ri butun*, *kallasi butun* birikmalari tarkibida ko'chma ma'noda keladi.

"Qutadg'u bilig"da "haqiqiy", "butun", "ishonchli", "to'g'ri" ma'nolarini ifodalash uchun *çin* so'zidan foydalanilgan. *Bütün* so'zi *çin* bilan birgalikda qo'llanib, "haqiqiy" semasini kuchaytirishga xizmat qilgan:

Tiriklikdä qızraq bütün çin kişi "Yoshi yetilgan (kishi) nima deydi, eshitgin, Hayotida juda ehtiyotkor, yetuk, chin kishi" [QB, 1972, 1724/54].

Asarda *çin* shaxsga nisbatan "samimiy" (*çin kişi* "samimiy inson"), "mard" (*çin er* "mard kishi"), shaxs xulqiga nisbatan "yaxshi, yoqimli" (*çin qılıq* "yaxshi qiliq"), shaxs faoliyatiga nisbatan "haqiqiy" (*çin vafalığ* "haqiqiy vafolik"), shaxs nutqiga nisbatan "to'g'ri, haqqoniy" (*çin söz* "to'g'ri so'z"), narsa-buyumga nisbatan "ishonchli" (*çin bitig* "ishonchli kitob") ma'nolarini bildirgan.

Ersig sof turkiy so'z bo'lib, "shijoatli", "mard", "jasur" ma'nolarini ifodalagan:

Yağıqa qatığ bolsa ersıgliki

körür közkä suw bersä körklugliki "Shijoatda yovga nisbatan beayov bo'lsa, Chiroyi ko'ruvchi ko'zlarga suv baxsh etsa" [QB, 1972, 2085/80].

Bu so'z asarda yigitlarning fazilatlarini ifodalab kelgan.

Ersig "botir" (*ersig yüräklig* "botir yurakli", *ersig er* "botir er"), "shijoatli" (*ersig beg* "shijoatli beg") ma'nolarida qo'llangan. "Qadimgi turkiy lug'at"da *ersig* "mard, jasur" ma'nolarida qayd etilgan [DTS, 1969, 181].

Quyidagi so'zlar shaxsning salbiy xususiyatlarini baholash uchun xizmat qiladi:

Biligsiz bilig "bilim" so'zidan yasalgan bo'lib, asarda "bilimsiz", "nodon" ma'nosida qo'llangan:

Biligsiz kişi köñli qum teg turur

Öküs kirsä tolmas ap ot yem önür [QB, 2011, 975/130]. "Nodon kishi ko'ngli qum (cho'l) kabi bo'ladi, yemish, o't o'sishi u yoqda tursin, unga daryo oqib kirsä ham to'lmaydi" [QB, 1972, 961/199]. Baytda *köñül* so'zi "ong", "idrok" ma'nolarini bildirgan. Zotan, "bilim" tushunchasi ko'ngil bilan emas, ong, aql, idrok bilan bog'liq. Ko'ngilning qumga o'xshatilishi bilim asosida ong, idrokda fahm shakllanmaganligini ifoda etishga xizmat qilgan. Fahm,

idrok bo‘lmas ekan, daryo bilan to‘ldirib bo‘lmas sahro, o‘pqondek bo‘shliq hosil bo‘lishiga ishora qilingan.

Shaxs tabiatiga xos salbiy xususiyatlarni baholashda “tilanchi”, “tamagir” ma’nolarini bildiruvchi *umduçi* so‘zi qo‘llangan:

Kishi umduçi bolsa boldı bulun

Suyurqa anı sen ay körki tolun “Kishi tamagir bo‘lsa, narsaga qul bo‘ladi, Sen unga ehson qil, ey chiroyi to‘lin oy” [QB, 1972, 2683/435].

Ümdiçi derivati “Qadimgi turkiy lug‘at”da “xasis”, “baxil” ma’nolarida qayd etilgan [DTC, 1969, 611]. Baytda narsaga qul bo‘lish, tamagirlik yomonliklarga yetaklovchi illat sifatida qoralangan, uning oldini olishga da‘vat qilingan. Baytdagi *suyurqa* “ehson qil” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, molga qul bo‘lgan shaxsga davo chorasi sifatidagi mazmunni ifoda etgan.

Kishi fe‘l-atvoridagi illatlardan bo‘lgan “baxillik”, “ochko‘zlik”, “xasislik” ma’nalari *saran* so‘zi orqali ifodalangan:

Negü ter eşitgil saranıñ bilig

Ay çırğuy, ay muñluğ, ay tügmiş elig “Ma’rifatda ochko‘z haqida nima deyilgan, eshitgin, Ey ko‘zi yoshli, ey, mungli, ey, azob chekkan” [QB, 1972, 1673/50].

Baytda qo‘llangan *saran* so‘zi “Древнетюркский словарь”da “ochko‘z” ma’nosida qayd etilgan [DTS, 1969, 488]. Shu asosdan yasalgan *saranliq* “ochko‘zlik” ma’nosini ifodalagan (DTS, 488). Mahmud Koshg‘ariy *saranla*= so‘zining “xasis, ochko‘z hisoblamoq” ma’nosini anglatganini qayd etgan [DLT, III, 345]. *Saran* keyingi davr manbalarida uchramaydi.

“Baxil, qizg‘anchiq; ochko‘z” ma’nolarini ifodalovchi *qopdaq // qovdaq // qovdas* leksemasi faqat pandnoma matnida qo‘llangani bilan xarakterlanadi: *Biçäq tutma anda kötürmä söñük, ayi bolma qowdaş ya silkim sepük* – U yerda pichoq ishlatma, so‘ngak olma, zinhor betoqat, yengiltak bo‘lma [QBN, 4495; 166b11]. Shunday fikrni “bo‘sh, xoli; oz, kam” ma’nolarini anglatgan *qoqur // qoquz // ququz* (<qoq= ozaymoq, kamaymoq, pasaymoq) derivati borasida ham bildirish mumkin: *Ata bardı ornı quruy ham ququz, ququz tolyuqa kördüm oylın keδ uz* – Ota o‘ldi, uning o‘rni quruq va bo‘sh qoldi, bu bo‘sh joyni to‘ldirish uchun o‘g‘lini juda munosib ko‘rdik [QBN, 1602; 64b1].

Vafosiz insonlarga hamda dunyoga nisbatan qo‘llanadigan *ersal // irsäl* leksemasi asarda “bevafa” ma’nosini ifodalagan: *Bu irsäl yayıy qılqı qurtqa ađun, qılincı qız-ul körsä yaşı uzun* – Bu jafokor, bevafo, qiliqlari qari kampir [ya’ni makkor, hiylakor dunyo], boqib

ko'rsang, qilmishlari qiz (yosh), yoshi (umri) esa uzundir [QBN, 392; 21a11].

“Qutadg‘u bilig”dagi leksemalar tahlili turkiy tillarga xos bo‘lgan ko‘p ma‘nolilik, shakldoshlik, semantik torayish, kengayish hodisalarini o‘rganishda ham ahamiyatlidir. Masalan, turkiy tillarda so‘z semantikasidagi o‘zgarishlar bilan belgilanuvchi turkum sinkretizmi, ma‘no kengayishi, torayishi, zid ma‘nolarning hosil bo‘lishi kabi hodisalar kuzatiladi. “Qutadg‘u bilig”dagi *bütün, çin* so‘zlarida ma‘no torayishi kuzatilgan. Ayrim hollarda bir so‘z semantikasida zid, o‘zaro nomuvofiq ma‘nolarning shakllanishi ham kuzatiladi. Masalan, hiylakor, makkor so‘zlarining arxaik shakli bo‘lgan **alçı** asar matnida ijobiy fazilat sifatida keltirilgan. Hiylakor, tadbirkor insonlarga nisbatan *alçı* so‘zi qo‘llangan:

Yana alçı bolsa qızıl tilkü teg

tetir buğrası-teg kör öç sürsä kek [QB, 2011, 2312/96]. “Yana qizil tulki kabi hiylachi bo‘lsa, Tuya erkagidek uzoq o‘ch saqlasa, ko‘r...” [QB,1972, 2276/379].

Kishilarni alçı so‘zi bilan sifatlashda, asosan, tulkiga nisbat berilgan. Bunda tulkining hiylakorligi, tadbirkorligi asos qilib olingan. Tadbirkorlik, hushyorlik lashkarboshi, hiylakorlik beklar egallashi lozim bo‘lgan ijobiy fazilatlar sifatida keltirilgan. Hozirda hiylakorlik salbiy illat sifatida qaraladi. “Hiyla” tushunchasini ramziy tarzda ifoda etuvchi *tilkü* timsoli ham asarda ijobiy ma‘noda qo‘llangan. Hozirda “hiyla” tushunchasini ifodalash uchun *alçı* so‘ziga semantik jihatdan aloqador bo‘lgan *aldoqchi* so‘zidan foydalaniladi.

Öktäm so‘zi semantikasida teskari holatni kuzatish mumkin. **Öktäm** “Qutadg‘u bilig”da “kibor, kibrli” ma‘nolarida qo‘llangan: *kötürmä, bajitmä eşiz ögtämig*. “Qadimgi turkiy lug‘at”da ham shu ma‘noda qayd etilgan [DTS, 1969, 381].

Bugungi kunda **öktäm** so‘zi ijobiy sema kasb etgan bo‘lib, “boshqalarga o‘z ta‘sirini, so‘zini o‘tkazadigan; shijoatli, o‘tkir” ma‘nolarini ifodalaydi [O‘TIL,2006:146]. Fe‘l-atvorni bildiradigan bu so‘z aksariyat o‘rinlarda tashqi ko‘rinish, gavda tuzilishini ifodalashda “chiroyli”, “ko‘rkam” sifatlariga sinonim tarzda qo‘llanadi. Bunday zidlikning yuzaga kelishi, so‘z semantikasida zid ma‘nolarning hosil bo‘lishi ma‘lumki, enantiosemiya deb yuritiladi. So‘z semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan enantiosemiya hodisasi, ya‘ni bir leksema semantikasida qarama-qarshi semalarning mavjudligi so‘zning qo‘llanish doirasi, semalar taraqqiyoti bilan belgilanadi.

“Qutadg‘u bilig”da shaxs fe‘l-atvorini bildirishda qo‘llana-

digan so‘zlarning aksariyati turkiy qatlamga mansub: *bağırsaq, sewüg, bütün, çın, ersıg, eđgü, bilıgsız, umduçı, saran, alçı, öktäm*. Asardagi fe‘l-atvor leksikasi tub (*çın, eđgü, saran*) va yasama (*sewüg, ersıg, bağırsaq, bütün, ersıg, bilıgsız, umduçı, alçı, öktam*) so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

“Qutadg‘u bilig”da baholash qiymatiga ega bo‘lgan ba‘zi so‘zlar semantikasida kengayish yuz bergan. Masalan, **irig** leksemasi asarda “dag‘al, qo‘pol” ma‘nolarini anglatgan: *Irig sözlämägil kişikä tilin, iriglik ot-ul ot küyürmä yalin* – Kishilarga tilingda dag‘al so‘zlamagin, dag‘allik olovdır, u kuydiradigan yolındır [QBN, 1401; 57b6]. Hozirgi o‘zbek tilida narsa-buyum hajmiga nisbatan shu so‘zning *yirik* shakli ishlatiladi (so‘z boshida undosh orttirilgan). Ayrım narsa-buyumlarni sifatlashda *yirik* so‘zida “qo‘pol, dag‘al” semasi ham namoyon bo‘ladi.

“Qutadg‘u bilig”dagi *aqılıq* “saxiylik, qo‘li ochiqlik”, *toņa* “bahodir”, *esiz* “yomon”, *tüzünlüg* “muloyim”, *ayıg* “yomon, yaramas, yovuz, o‘tkinchi, beqaror”, *aqi* “saxovatli, saxiy, qo‘li ochiq”, *aqsun* “yovuz, qahrli, g‘azabnok, shiddatli” kabi belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlar ishlatilgan.

Xulosa

“Qutadg‘u bilig” olamning yaralishi, dunyo hodisalari, davlat boshqaruvi, rahbar shaxsning fazilatları, uning faoliyatidagi illatlar badiiy timsollar orqali aks ettirilgan. Pandnoma matnida Yusuf Xos Hojibning teran mushohadalari, tafakkuri, aql-idroki o‘z ifodasini topgan.

“Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan shaxs fazilatlarini bildiruvchi so‘zlar inson xususiyatlarini ifodalashda, o‘zbek tili tarixidagi belgi bildiruvchi so‘zlar semantikasi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

“Qutadg‘u bilig” matnida Yusuf Xos Hojib teran tafakkur sohibi sifida namoyon bo‘ladi. Buyuk mutafakkirning dunyo hodisalari, borliq, voqelik ko‘rinishlariga bergan bahosi haqiqat ruhi singigani bois hozirgi kunda ham, oradan asarlar o‘tgan bo‘lishiga qaramay, o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Ijodkorning tafakkur mahsullari falsafa, mantiq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, ayniqsa, lingvokulturologiya, aksiolingvistika sohalari uchun qimmatli nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Abdurahmonov, G. To‘xliyev, B., Rustamov, A., Dadaboyev, H. 2011. *Qutadg‘u bilig*. I, II, III, IV, V jildlar. Toshkent: Jahon print.

- Абдушукуров, Б. 2008. “Қиссаси Рабғузӣ” лексикаси. Тошкент: Akademnashr.
- Маҳмуд Кошғарий. 1963. *Девону луғотит турк*. Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Тошкент.
- ДТС - Древнетюркский словарь*. 1969. Ленинград: Наука.
- Маллаев Н.М. 1976. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Resid Rahmeti Arat. 1979. *Kutadgu bilig (index)*. Istanbul.
- То‘хлиев В. 2000. *О‘zbek adabiyoti*. Toshkent: O‘qituvchi.
- Юсуф Хос Ҳожиб. 1972. *Қутадғу билиг*. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов. Тошкент: Фан.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2006-2008. I-V жилдлар. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Lexemas Representing relationship in “Kutadgu bilig”

Mushtariy Kholmuradova¹

Abstract

The article talks about the fact that the work “Kutadgu bilig” gained fame in its time, and the factors determining the popularity of pandnom. The work was read with special attention by many people as rules of guidance for beks and army commanders. Its wide distribution under different names is also due to its content, which has attracted attention as an artistic interpretation of social problems.

Scholars have named “Kutadgu Bilig” differently depending on the content of the work. The article also presents a new interpretation of the title of the work, based on the content of the poem by Yusuf Khos Hajib.

“Kutadgu Bilig» is also an encyclopedic resource. The work contains valuable information for representatives of various fields. The text of providence contains valuable opinions about the biological world, nature, social phenomena, human physiology, and psychology.

One of the factors ensuring the popularity of pandnoma is the value relationship between existence, natural processes, social phenomena, and individuals. The article semantically analyzes lexemes that represent the qualities of Allah, the Prophet, as well as words that reflect

¹ Mushtariy Kholmuradova – associate professor of Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi, PhD.

E-mail: mushtariy.xolmuradova@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5039-1909

For citation: Kholmuradova M. 2023. “Lexemas Representing relationship in “Kutadgu bilig”. *Golden scripts* 3: 107-121.

the value relations of the world, nature, social events, human character attached to their activities.

Through the analysis of examples, linguistic units are shown that reflect the author’s assessment and attitude, national cultural symbols and the creator’s ability to use language capabilities, the role of lexeme-characters in ensuring the artistry of the work.

The meanings and semantic features of the modern Uzbek language lexemes inherent in the text of the work, included in the content of the assessment, are analyzed in a comparative aspect.

Key words: *instruction, metaphor, natural phenomena, social phenomenon, being, character lexemes.*

References

- Abdurahmonov, G. To‘xliyev, B., Rustamov, A., Dadaboyev, H. 2011. *Qutadg‘u bilig*. I, II, III, IV, V jildlar. Toshkent: Jahon print.
- Abdushukurov, B. 2008. *“Qissasi Rabg‘uziy” leksikasi*. Toshkent: Akademiya nashri.
- Mahmud Koshg‘ariy. 1963. *Devonu lug‘otit turk*. Nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. Toshkent.
- DTS - Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad: Nauka.
- Mallaev N.M. 1976. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi.
- Resid Rahmeti Arat. 1979. *Kutadgu bilig* (index). Istanbul.
- To‘xliyev B. 2000. *O‘zbek adabiyoti*. Toshkent: O‘qituvchi.
- Yusuf Xos Hojib. 1972. *Qutadg‘u bilig*. Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif qiluvchi Q.Karimov. Toshkent: Fan.
- O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 2006-2008. I-V jildlar. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Navoiy asarlaridagi literonimlar lingvopoetikasi

Mavluda Sharipova¹

Abstrakt

Maqolada badiiy san'atlar asarning saviyasini, ijodkorning badiiy tafakkur qudrati va mahoratini belgilovchi asosiy omil ekanligi tegishli misollar bilan dalillangan, bu san'atlarni yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar aniqlangan, Sharq adabiyotshunosligida nazariy jihatdan asoslangan ma'naviy, lafziy va ma'naviy-lafziy san'atlar xususida fikrlar ifodalangan, bu badiiy san'atlar tizimida harfiy (kitobat) san'atining o'rni hamda ahamiyati belgilangan, Alisher Navoiy she'riy asarlaridagi literonimlarning lug'aviy-badiiy xususiyatlari ochib berilgan, uning literonomik istiora, literonomik tashbih, literonomik tazod, literonomik tashif, literonomik qalb, literonomik tamsil, literonomik tajnis, tajnisi tomm, tajnisi noqis, tajnisi xatti kabi badiiy san'atlarni voqelantirishdagi vazifasi aniqlangan, shuning mazkur literonimdan foydalanib badiiy san'atlarni yuzaga keltirishdagi mahorati tegishli misollar bilan dalillangan, badiiy san'atlar taraqqiyotidagi o'rni mazkur literonim asosida qisman belgilangan.

Kalit so'zlar: *literonim, lingvopoetika, harf, badiiy san'at, kitobat, o'xshatish, tashbih, metafora, istiora.*

Kirish

Badiiy san'atlar, vosita va usullar lirikaning tabiatiga xos bo'lgan ixchamlik va mo'jazlikni ta'minlash, fikrni obrazli bayon etish, she'rxonga kitobxonga estetik zavq bag'ishlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir haqiqiy lirik asar adabiy hayotda o'ziga xos voqea bo'lib, buning sababini shoirning o'zigacha bo'lgan badiiy yutuqlarni o'z asarlariga ijodiy tatbiq etishidan, mazmunning teranligi va shaklning jozibasidan, she'riy san'atlardan mahorat bilan, o'rinli foydalanishidan izlash kerak bo'ladi.

Ayonki, *bade'* arabcha so'z bo'lib, *yangi, ajoyib, nodir* lug'aviy

¹ Sharipova Mavluda Boymurotovna — filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD), Turon Zarmed universiteti.

E-pochta:

ORCID ID:

Iqtibos uchun: Sharipova, M.B. 2023. "Navoiy asarlaridagi literonimlar lingvopoetikasi" *Oltin bitiglar* 3: 122-142.

ma'nolarini ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda "ilmi bade'" fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlar (priyomlar, vositalar)ning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi [Shayxzoda 1972, 231]. Badiiy san'atlar asarning saviyasini, ijodkorning badiiy tafakkur qudrati va mahoratini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotda tasviriy vositalardan voqea-hodisalarni jonli, obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko'rinishini qisqa ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun foydalanilgan. Tasviriy vositalar, xususan, jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash, takror va boshqalar nasriy va nazmiy asarlarda yuksak badiiylilikni, so'z san'atini vujudga keltirgan. Maqsud Shayxzoda bu xususda quyidagilarni yozadi: "*Ilmi bade' so'zga ziynat va oroyish bermoq maqsadida qo'llaniladigan qoidalar va qonunlardan iboratdirki, to'g'ri va sog'lom kalimalarda ro'yobga chiqadi*" [Shayxzoda 1972, 232].

Ma'noviy san'atlar asosiy tasviriy vosita bo'lgani uchun, "sanoye' ma'naviy" deb ataladi. Attoullah Husayniy bu xususda quyidagilarni qayd etadi: "Ajam shuarosi tashbeh istiora, kinoya yanglig' eng mashhur va ko'p uchrayturg'on zoti' go'zalliklarni oriziy go'zalliklar bilan qo'shupturlar va alarning majmu'in sanoyi' derlar" [Husayniy 1981, 34]. Demak, ma'noviy san'atlar mazmunini kuchaytirish, fikrni chiroyli va obrazli qilib ifodalashga yordam beradi. Nutqning ma'nosi va mohiyati bilan aloqador bo'lgan san'atlarga *tavjih iydom, tajohul-orif, talmeh irsol-ulmasol, kalomi jomi', mazhabi kalomi, husni ta'lil, tafri', jam' tafrik laffu nashr, tablig' ig'roq, g'uluvv, iyg'ol takmil, lug'z, tashbih istiora, tamsiya, kinoya, ta'riz* kabilar kiradi. Ma'noviy san'atlar bayt yoki misra, yoxud gap, aniqrog'i, matn mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ular bayt yoki g'azal ma'nosini jilolantirish, yarqiratish, kuchaytirish, uning ta'sirchanligini oshirish, asarda so'z o'yini imkoniyatlarini namoyish etish, kitobxonni fikran hayratga solish, uning fikriy kashfiyotchiligiga hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Lafziy san'atlar esa "sanoye' lafziy" deb nomlangan bo'lib, unda so'zning shakli, jaranglashi va hatto tashqi (harfiy) chiziq-lari asosiy rolni o'ynaydi. Lafziy go'zalliklar "alfozni ma'noga tobi' qilgaylar, umuman barcha go'zalliklarning asosi uldurkim, nutq ul tarzda ado etilgaykim, ma'noni anglashg'a, aning latofati, tarkibi va sog'lamlig'iga hech bir halal etmagay" [Husayniy 1981, 35].

Lafziy san'atlar formal quruq so'z o'yinlaridan iborat, degan fikrlar ham bor. Ammo til me'yorlarini juda yaxshi bilgan, uning

grammatik xususiyatlarini juda chuqur anglagan ijodkorgina, uni bayt mazmuniga, vazniga va g'oyasiga singdira oladi va badiiyat nuqtai nazardan yuksak darajadagi asar yaratib biladi. Lafziy san'atlar jumlasiga *tarse', tajnis, qalb, saj', mumosil, tajziya, tasmit, aks, tardid, tavshih tarofuq, raqto, hayfo, jam'ul-huruf, mutazalzil, murabba', muaqqad, munavvar, munshajjar, tavsia, muhokama, muqaytas* kabilar kiradi.

Qadimiy san'atlarni bilish she'rda mavjud murakkab obrazlarni anglashga ko'mak beradi. "Aruz va she'riy san'atlar bobidagi an'anaviy ta'limotlarni o'zlashtirib olgan tadqiqotchi g'azalga uni yozgan shoirning ko'zi bilan qarashga muyassar bo'ladi, chunki o'sha shoir o'z she'rini, albatta, she'riyatning majburiy qonunlariga rioya qilib yozgandir" [Shayxzoda 1972, 252].

Mumtoz she'riyatdagi arabiy harflar (literonimlar) muhim tasviriy vosita sifatida badiiy san'atlarning har ikkala guruhida ham o'ziga xos vazifani bajargan. Literonimlarning yangi badiiy san'atlarni hosil qilishdagi o'rni beqiyos kattadir. Ular lafziy va ma'naviy san'atlar bag'rida shakllanadi va taraqqiy etadi. Harfiy san'atlar istiora, o'xshatish, qalb, tajnis, tazod, istixroj, tasxif, tamsil kabi badiiy san'atlarda namoyon bo'ladi.

Literonomik istiora

Istiora ma'naviy san'atlardan bo'lib, *biror narsani omonatga olmoq* degan ma'noni anglatadi. "Istiora majozning bir nav'idur, – deb ta'kidlaydi A.Husayniy, – haqiqat lafziy, o'z yasog'i, ya'ni nimani mo'ljallab yasag'on bo'lsalar, ushul ma'no orasidagi biror aloqa-yu munosabatga asoslanib qo'llamoqtin iborattur". Demak, istiorada so'z ko'chma ma'noda ishlatiladi va u tashbehiiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi. O'xshatilayotgan narsaga o'xshayotgan narsaning, predmet, hodisaning xususiyati, sifati, belgisi ko'chirib o'tkazadi. Bunda faqat o'xshovchi ifodalanadi va u ma'no jihatidan o'xshatilmishini o'z ichiga oladi [Rustamov 1979, 75]. Rashiddin Vatvot shunday yozadi: «Bu san'at andoq bo'lurkim, bir lafzning haqiqiy ma'nosi bo'lur, kotib yoki shoir ul lafzni u haqiqiy ma'noda ko'chirur va oriyyat yo'li bila o'zga bir yerda ishlatur. Bu ta'rifin ma'lum bo'lurkim, ul majozning barcha nav'larin istiora deb atashdir» [Husayniy 1981, 219]. Demak, istiorada so'z yoki iboralar asl ma'nosida emas, balki boshqa ma'noda ishlatiladi va so'zlarning ko'chma ma'nosi tashbehiiy bog'lanish bilan yuzaga keladi. Misol:

Ibtido aylab *alifdin*, mudr aylab *dog'din*,

Ishq manshurin chu davron otima insho qilib.

[Navoiy 1989, 33].

Tasavvuf falsafasi nuqtayi nazardan bayt mazmunini tahlil etsak, unda Ollohning yagona o'zi borliqni yaratganligi, u shunday qudratga egaki, istagan paytda o'zi yakson qilib, yana o'zi tanho qolishi mumkinligi fikri ilgari surilgan. Diqqatni "ibtido" ادتبا so'zining yozilishiga qaratamiz. *Alif*^۱ harfi so'z boshi va oxirida yolg'iz, alohida shakli orqali kelgan. Shoir harfning mana shu ko'rinishi orqali Ollohning yagonaligini shakl va mazmunga mos ravishda ifodalagan.

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur,
Ul *alif*din zorlarning hosili ozor emish [Navoiy 1989, 151].

Tavsifi: yorning go'zal tik qomatiga oshiq bo'lganlarni ko'rib, xavotirga tushaman. Chunki uning *alif*dek qomatiga zor bo'lganlar oxir-oqibat ozor topdilar. "Alif" ۱ harfiga "zor" زور so'zi qo'shilsa, u "ozor" زورآ so'ziga aylanadi. Yorga nisbatan "ul alif" ifodasining qo'llanishi istioraning yorqin namunasi.

Malohat birla tuzdung sarv dardlar qomatin, ya'ni
Ki mundoq zeb birla ul *alif*ni aylading zebo [Navoiy 1989, 32].

Mazmuni: sen (ya'ni Olloh) go'zallarning sarv kabi qomatlarini nafosat ila bezading. Bu bezak, ya'ni "zeb" ularning qomatlarini zebo (chiroyli, go'zal) qilibdi. Shoir "zeb" بىز so'ziga "alif" harfini qo'shish orqali "zebo" بىز so'zi hosil bo'lishini ko'rsatadi. Bayt tavsifu ta'rif xarakteriga ega. Ikkinchi misradagi "ul alif" ifodasi istioraviy tarzda ma'shuqaga ishora qilmoqda.

O'qlaringga yuqti bag'rim qonimu, ey qoshi yo,
Yo'qsa anda zeb uchun har yon baqam payvandidur.
[Navoiy 1989, 88].

"Baqam" so'zi eski o'zbek tilida qizil rang olinadigan yog'och, daraxtni anglatadi. Shoir baytda ayni shu so'z va u ifodalaydigan qizil rangga alohida urg'u berib, yuksak badiiy muvaffaqiyatga erishgan: "Menga otgan o'qlaring nega kizil? Ularga mening bag'rimdan oqqan qonlar yuqqanmi yoki ularda baqam (qizil rang olinadigan yog'och) payvandlarining siyohi zeb uchun saqlanib qolganmi?" demoqda shoir faryod chekib. Albatta, bunda "o'q" timsolida yor kipriklari nazarda tutilgan. Shoirning "ey, qoshi yo" murojaati istioraning go'zal namunasi.

Novakandoz o'lg'ali kofir ko'zung, ey qoshi yo,
Kimsaga jon qolmag'ay, fahm ayladim andozdin.
[Navoiy 1989, 247].

Baytda yordan shikoyat uning ko'zi vostasida namoyon bo'lgan. Ma'shuqaning chiroyli ko'zi oshiqqa jaf o'qasdi bilan boqadi, uning jonini olishga shaylanadi. Oshiq holida namoyon bo'ladigan bu manzarani shoir "beshafqat ko'zlaring jonimga o'q otishni kasb qildi, o'ylab qaragam, ko'zlaring bu kasbi bilan meni jonimdan mahrum etishni maqsad qilgan" deyish orqali ustalik bilan tasvirlaydi. Bu baytda ham xuddi yuqoridagi kabi "ey, qoshi yo" *يا شاق يا* murojaati istioraviy san'at mohiyat kasb etib, *yor, suyakli qiz* ma'nolarini anglatgan. Bu murojaatning istioraviy ahamiyati quyidagi baytda ham yaqqol namoyon bo'lgan:

Chun o'qungdin har boshodur katra suv, ey, qoshi yo,
Sendin o'tluq ko'ngluma juz tiyri boron istamon.

[Navoiy 1989, 277].

Baytda shoir yordan jaf ko'rgan ko'ngliga murojaat qilib, deydi: "Ey qurbonlikka mahkum etilgan ko'ngil, ul yorning muruvvatidan umidingni uz. U vafodan o'zini olib qochadi, sen ham undan uzoqlash, befarqlik yo'lini tanla!" Baytdagi "ul qoshi yo" birikmasi istioraviy tarzda ma'shuqani anglatishga xizmat qilgan.

Qaddi yo deklarni zor etmish hiloliy jom uchun,
Egma qoshingkim o'zi roki, o'zi mehrob erur.

[Navoiy 1989, 127].

Bu baytda ham *yor* go'zalligi oldida lol qolgan oshiq izhori tasvirlangan. Bunda shoir ma'shuqaga murojaat qilib deydi: "Ey *yor*, qaddi yoydek egilgan oshiqlaringga qara. Ular hilolga o'xshash egilma qadax (hiloliy jom, bu o'rinda *yor* qoshi) uchun jon berishga tayyor. Ularni bu ahvolga solgan sening qoshlaring, oshiqlarni avrab, asir qilgan, mehrob kabi mag'rur qad ko'targan qoshlaring!" Baytdagi "qaddi yodeklar" istioraviy tarzda oshiqlarni – *yor* visoliga mushtoq bechoralarni anglatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, literonimlarning metaforik tarzda ko'chma ma'no hosil etishida *alif, yo* kabi harflar muhim o'rin va ahamiyatga ega bo'lgan.

Literonomik tashbih

Inson ongidagi bir narsaga xos belgi, jarayonni qiyos natijasida boshqa narsada ko'ra olish, tasavvur qilish qobiliyati insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy tadriji uchun ulkan imkoniyatlar bergan. Shunday ekan, o'xshatish tafakkurning yangilikni qidirish va kashf etish borasidagi eng muhim vositalardan biri xisoblanadi. Biror predmetga baho berish, chog'ishtirish, o'xshash tomonlarini topish, mana shu topilgan predmet yoki hodisa bilan

o'rtoqlashish xususiyati badiiy ijoddagi tasvir vositalaridan biri bo'lgan o'xshatishni keltirib chiqaradi. Badiiy tafakkur hamisha yangilik topish yo'lidan boradi. O'xshatish mana shu yangilikka eltuvchi yo'ldir. O'xshatish hodisasiga aylangan arabiy harflar mumtoz adabiyotning g'azal, ruboiy kabi nazmiy asarlarida badiiy tasvir vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. O'xshatish uzvlari to'rt elementdan tashkil topgan. Bu to'rt element bir sodda gap doirasida ifodalanadi. Kichik shakl katta murakkab mazmun ifodasi uchun xizmat qiladi. Bu esa she'rda narsa, hodisa, murakkab holatlarni ixcham, lo'nda tasvirlab, yorqin obrazlar yaratish imkonini beradi.

Shuni aytish joizki, har qanday o'xshatishning asosini o'xshatilgan narsa, ya'ni (o'xshagan narsaga xos xususiyatlarning ramziy mujassami) tashkil etadi. O'xshatishning poetik qimmatini o'xshatish etaloni, timsoli belgilaydi. O'xshatish timsoli esa aksariyat o'rinlarda arabiy harflar orqali ifodalanadi. Mumtoz adabiyotda harfiy shakllarga qiyos usuli bilan yondashib, ulardan muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-axloqiy g'oyalarni ifodalashda mahorat bilan foydalanganlar. Alifbodagi to'g'ri, egri, yoysimon, doirasimon shaklli harflar turli o'xshatishlar yaratishda asos bo'lgan. Jumladan, ma'shuqaning tik qomati «alif» ا harfiga, egik qomati «dol» د harfiga, qoshlari «yo» ی yoki «nun» ن harfiga, sunbul sochlari «lom» ل yoki «jim» ج harfiga, tishlari «sin» س harfiga, og'zi «mim» م harfiga, ko'zlari esa «ayn» ع harfiga o'xshatilgan. Bu harfiy o'xshatishlar orqali oshiq yoki ma'shuqaning ko'rinishi aniqroq va ta'sirchanroq tasvirlashga erishilgan.

Ey, alifdek qomating mayli buzulg'on jon aro,
Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro [Navoiy 1989, 81].

Tavsifi: "Ey yor, alifdek qomating mening buzilgan jonimdadir, husning xazinasining gavhari esa mening vayrona xotiramdadir". Baytda yor qomati «alif» harfining shakliga o'xshatish orqali namoyon bo'lgan. Shoir alifning jon ichida (جان) joylashganiga ishora qiladi.

Zarvaraqdin yo kibi qoshingda zevarmu ekin,
Yo magar mushkin hilol ustida axtarmu ekin.

[Navoiy 1989, 273].

Shoir ushbu baytda aytmoqchi bo'lgan fikr quyidagicha: "Zarvaraqdan hosil bo'lgan qoshing kamonmi, zevarmi yoki mushkin hilol ustida tovlanuvchi yulduzmi?" «Yo» ی harfining yozuv ko'rinishi yoysimon bo'lganligi sababli bu holatni shoir "yo" ی harfining shakliga, ko'rinishiga o'xshatgan. Tashbih "kibi" yordamchi

soʻz orqali ifodalangan. Binobarin, yorning qoshiga nisbatan «yo kibi» ifodasining qoʻllanishi tashbehning yorqin namunasidir.

Nun boshida shamraʼ yangligʻdur qoshing uzra girih,
Oraz uzra nuqta mislidur uzoring uzra xol [Navoiy 1989, 279].

Tavsifi: “Qoshing ustidagi tuguncha “nun” ن ustidagi nuqtaga oʻxshaydi. Yuzingdagi xol esa “oraz” اراع soʻzidagi “zod” ض harfidagi nuqtaga oʻxshaydi. Soʻzlardagi harflarning koʻrinishi va imloviy xususiyatlari orqali juda chiroyli soʻz oʻyini hosil boʻlgan. Qosh “nun” ن harfiga, nuqtasi esa yor yuzidagi xolga qiyoslangan. Qiyos uchun tanlangan uzv aniq, ixcham timsol orqali ifodalangan.

Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozgʻon *alif*,
Belmi yo torski, laʼl ichra anga taskin erur [Navoiy 1989, 106].

Tavsifi: “Bu qadmi yoki qizil boʻyoq bilan yozilgan alif harfimi? Bu belmi yoki laʼlning ichidan joy olgan tormi?” *Alif* harfi toʻgʻri va ingichka yoziladi. Shoir tashbeh sanʼatidan foydalanib, harf shaklini yorning nozik qomatita qiyoslaydi.

Yozilgʻon jon oningdekkim *alifsiz* nuqtasiz boʻlmas,
Erur xolu qading naqshi bu zoru xasta joninda.

[Navoiy 1989, 303].

Mazmuni: “Jon جان – alifsiz, nuqtasiz boʻlmaydi. Xuddi xoling va qaddingning naqshi mening jonimda boʻlganidek”. Shoir bu oʻrinda «jon» جان soʻzi tarkibidagi «alif» ا hamda «jim» ج va «nun» ن harfidagi nuqtalarga ishora qilgan. Shoir tashbeh sanʼatidan foydalanib, “alif” ا harfini qomatga, «nun» ن va «jim» ج harfidagi nuqtalarni esa yorning xoliga oʻxshatgan.

Qomatim *dolu* yoshim gulrang erur, to noz ila,
Dolugul tekkan niholi uzra orom aylading [Navoiy 1989, 202].

Mazmuni: “Nozli yor gullab yashnagan nihol ostida orom olgan vaqtda mening qomatim «dol» د , koʻz yoshim esa gulrang boʻldi”. Birinchi misradagi «dol» harfining yozilish shakli bukik boʻlganligi uchun oshiq qomatiga oʻxshatgan. Ikkinchi misradagi *dolugul* soʻzi *naqsh* maʼnosida qoʻllangan. Aytilganidek, baytda shoir yordan jafo koʻrgan oshiqning qomatini egik «dol» د harfiga qiyoslaydi. Harf nomi bu oʻrinda koʻchma maʼno hosil etgan. U qiyos uchun timsol vazifasini bajargan. Harfning tashqi belgisi asosida hosil etilgan majoziy maʼno yangi stilistik imkoniyatni yuzaga chiqarishda muhim vosita boʻlgan.

Tahlil natijalariga koʻra, “alif” ا harfining yozilish shakli *toʻgʻri*, *xushbichim tik qomat*, “dol” د , “yo” ی , “nun” ن harflari esa

egik, bukilgan ko'chma ma'no uchun xoslangan. O'zbek mumtoz adabiyotda uslub rang-barangligini ta'minlash maqsadida harfiy o'xshatishlarga alohida vazifa yuklanganligi ko'rinadi. Har bir harfiy o'xshatish ma'lum bir badiiy maqsad bilan qo'llanganligi, ularning til jihatidan o'ziga xos, betakror ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Literonomik tazod

So'z san'ati takomilida yetakchi badiiy usullardan biri tazod "zid qo'yish", "qarshilantirish"ga asoslanadi. "Badoyi' us-sanoyi'"da tazodga "Lug'atta bir-biriga dushmanlik va nomuvofiqlik qilmoqtur. Mutaqobil nimalarning zikrindagi husniga tazodu inkor sabab bo'lgani uchun bu san'atqa tazod deb nom quyubtirlar," deya ta'rif beriladi [Husayniy 1981, 128-129].

Baytda bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etuvchi so'z yoki iboralarni ma'lum bir munosabat nuqtai nazaridan ishlatish tazodni vujudga keltiradi. Bu san'at ijodkorga turli ziddiyatlar bilan o'tgan murakkab turmushning badiiy lavhalarini yaratish imkoniyatini beradi. O'zbek adabiyotida ko'plab lirik shoirlarning maydonga chiqishi va kamoloti poetik usullar taraqqiyotida ham yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Shu bilan bir qatorda, yangi badiiy tasvir vositalari paydo bo'lishi va shakllanishi uchun zamin hozirladi, mavjud usullarning lirik she'riyat xususiyatlari taqozosi bilan yangi-yangi qirralar paydo qilishi uchun katta sharoitlar yaratdi. Binobarin, Alisher Navoiy she'riyatida tazod san'atining avval kuzatilmagan rang va ohanglarda qo'llanilishi bilan bog'liq mahoratni yuqorida qayd etilgan izlanishlar va takomillashish jarayoni-ning hayotbaxsh mahsullari sifatida baholash mumkin. Masalan,

Firoq ichra *alif*dek qaddima g'am tog'ini yuklab.

Uhud ostidagi *dol* etsa, jismi notavonimni [Navoiy 1989, 394].

Shoir bu baytda an'anaviy tarzda "alif" ʌ va "dol" ʌ harflarini o'zaro zid qo'yish orqali tazodning betakror namunasi yaratgan. Qo'llangan usulning betakrorligi shundaki, murojaat etilgan harf nomlari tazod uchun vosita bo'libgina qolmay, firoq yuki ostida qolgan oshiq qiyofasining mubolag'ali tasvirini yaratish uchun ham xizmat qilgan. Shu tariqa nisbatan sodda ko'ringan an'anaviy harflar vositasida nafaqat tazod, balki mubolag'aning g'uluvv darajasi hosil bo'lishiga erishilgan.

Qayda mumkindur *alif*dek chiqmoq eldin xossakim,
Kavn aro olti jihatdin qolmisham andoqki *vov*.

[Navoiy 1989, 294].

Mazmuni: “Alif kabi yig‘indan tashqari (“el” ايل so‘zida alif harfi so‘z boshida kelib, alohida ko‘rinish orqali yoziladi) bo‘lmoq qayerda? Yer, osmon, shimol, janub, sharq (kun chiqar), g‘arb nomlari bilan yuritiluvchi olti unsur ichidaman, ulardan uzilolmayman. Inchunin, “kavn” كون (kun) so‘zidagi “vov”dek و hech qayoqqa ketolmayman”. Mazkur baytda tazod “alif” ا va “vov” و harflarining imloviy xususiyati orqali namoyon bo‘lgan. Shoir asosiy e‘tiborini “alif”ning “el” ايل so‘zida alohida yozilishiga va “vov”ning “kavn” كون so‘zi o‘rtasida kelishiga qaratgan. Bu, albatta, go‘zal poetik uslubni ta‘minlash sharoitini yaratgan.

Tahlillar jarayonida ayon bo‘lganidek, harfiy tazodning vujudga kelish omili sifatida harf shakllarini o‘zaro zid qo‘yishni ham, ular mazmun-mohiyatini zid qo‘yishni ham nazarda tutish mumkin. Aslida harf shakllarini zid qo‘yish ular mohiyatini zid qo‘yishga asoslanadi. Zotan, mazmunsiz shakl bo‘lmaganidek, shaklsiz mazmun ham voqelanmaydi. Shu bois tahlilga tortilgan dastlabki ikki baytdagi ochiq shakliy qiyosni ham, uchinchi baytdagi mantiqiy-ma‘naviy qiyosni ham bayt mazmuni vujudga keltirganligini e‘tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, ulug‘ so‘z san‘atkori – Alisher Navoiyning tazod badiiy san‘atining nisbatan murakkab namunalari yaratishda o‘ziga xos mahorat egasi bo‘lganligini yaqqol namoyon etadi.

Literonomik tashif

Muammo sharq adabiyotida keng qo‘llangan janrlardan biridir. U arabcha so‘z bo‘lib, «ko‘r qilingan», «yashirilgan» degan ma‘nolarni bildiradi. Muammo janri Sharq adabiyotida uzoq tarixga ega. U XV asr o‘zbek adabiyotida keng rivojlangan. O‘zbek adabiyoti tarixida bu janrni boshlab berganlardan biri Alisher Navoiydir. Shoirniig «Mufradot» asari muammoshunoslik tarixida yangi bir sahifa bo‘ldi. Navoiy bu janrni nafaqat nazariy, balki amaliy tomondan ham rivojlantirgan, mukammallashtirgan ijodkordir. Sadriddin Ayniy bu haqda shunday deydi: «Kitobi Navoiy muvaffaqiyatnoq baromad, chunki u yak qoidaro bayon karda dar pasi vay misolashro nishon medod ki kushodani on muammo bo qoidahoye, ki hanuz talaba nadida ast, ehtiyoj nadosht» [Ayniy 1963, 87].

Adib muammo masalasiga oid chalkashliklarga barham berdi va unga doir qoidalarni tartibga soldi. Darhaqiqat, Navoiygacha ham bu janrda qalam tebratganlar bo‘lgan. Chunonchi, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy kabilar fors-tojik

adabiyotida bu janr doirasida o'z fikr qarashlarini bayon etganlar. Ammo ularning asarlari ancha murakkab tarzda yozilganligi, kitobxonning o'zlashtirilishi qiyinligini nazarda tutib Navoiy mazkur asarini yozgan. Alisher Navoiy asarining oldin yozilgan shu xil asarlardan afzalligi shundaki, shoir muayyan masalaning nazariy tomonlarini har tomonlama tahlil qilib bergandan so'ng, albatta, aytilgan nazariy fikrini misollar asosida dalillagan. Bu masalaning mohiyat-mazmunini oson va qulay tushunishga olib kelgan. Sadridin Ayniy bu xususda shunday deb yozgan: «Muvaffaqiyat asari Navoiy ba darajas rasid, ki Jomi kitobxoi xud va kitobxon ustodoni digari in janrro boyak su monda «Mufradot» ro bo pisari xud Ziyouddin Yusuf kitobi darsi karda xonond». Navoiy muammo janrining nazariy va amaliy masalalariga diqqat qilib, uni ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilgan. Shuning uchun adabiyotshunos olim, A.Hayitmetov: «Hozirgi vaqtda uni nasriy asar deb emas, balki ilmiy traktat deb atash muvofiqdir», deb uqtirgan [Hayitmetov 1959, 95].

Muammo badiiy tafakkurning mevasi, badiiy so'z san'atining muhim vositasidir. Alisher Navoiy bu janrning ustalaridan biri sifatida tan olingan. Shoir g'azal, qasida, ruboiy, qit'a va dostonlarida muammo amallaridan keng foydalangan. U o'zining ilg'or fikrlarini pardali qilib ifodalashda mazkur badiiy san'atdan keng va o'rinli foydalangan.

Ayonki, tashif muammo amallaridan biri bo'lib, imo-ishoraga ko'ra ma'lum so'zdagi nuqtalar o'zgartiriladi, olib tashlanadi yoki nuqtalar qo'shiladi. Bu ishora asosan «hol» حال, «dur» در, «ashk» اشك, «gavhar» گوهر, «qatra» قطره, «dona» دانه, «surat» صورت, «shakl» شکل, «namuna» نمونه, «misol» مثال kabi maxsus so'zlar vositasida ifodalanadi. Alisher Navoiy harfiy o'yinlar asosida tashifi vaz'i yoki tashifi ja'li uslublarini quyidagi baytida mohirona qo'llaydi:

Ko'zim yoruq tilar ersang, yoshurma xolingni,
Ki ko'r o'lur ko'z, agar nuqtasin nihon qilsang.

[Navoiy 1989, 185].

Mazkur baytda shoir tashifi ja'li uslubidan foydalanib, «ko'z» ز و ک so'ziga ishora qiladi, ya'ni «ze» (ز) nuqtali, agar nuqta olib tashlansa «re» (ر) ga aylanadi, ya'ni ko'z ز و ko'r ک و bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Xating ichinda labingning ikki xoli ne ajab,
Ikidur nuqta yozilur esa xat ichinda jon [Navoiy 1989, 335].

Ma'lumki, «jon» جان so'zidagi «jim» (ج) hamda «nun» (ن) harflari bir nuqta asosida yoziladi. «Ikki» so'zidagi ishora esa har

ikki nuqtaning tengligidan kelib chiqadi. Bu baytda tashifi ja'li usuli qo'llangan. Baytda yorning tana a'zolaridan biri – xatt خت (lab ustidagi mayin tuklar) ta'rifiga diqqat qaratiladi. Shoir yor labi ustidagi ikki xolni ta'riflab, labing ustidagi mayin tuklar yashirgan ikki nuqta «jon» so'zidagi ikki nuqtaga monanddir, deydi. Bu bilan yorning xattiga nisbatan jon bag'ishlovchilik sifati berilyapti. Shoir harfiy san'atning harf shakli va nuqtalariga ishora qilish usulidan mahorat bilan foydalanib, bayt botiniga ulkan ma'no jo etgan.

Nechukkim bo'lsa dil lafziga nuqta zul bo'lur hosil,
Mazallat ikki ayrilg'on kung'ulg'a yetti xolingdin.

[Navoiy 1989, 255].

Shoir tashifi vaz'i usulini qo'llab "dil" د ل so'zidagi «dol» د harfiga ishora qilib, nuqta qo'yilsa, u "zol" ذ bo'ladi, natijada «dil» د ل so'zi «zul» ذ ل ga aylanadi, demoqchi. Baytda harf san'atining nisbatan murakkabroq ko'rinishi qo'llangan. Harf san'atining nuqta qo'shish yoki olib tashlashga asoslangan bu ko'rinishi tashifi ja'li deb yuritiladi. Bu usul orqali shoir baytdagi «dil» دل so'zini «zul»ga ذ ل aylantirib, ajoyib so'z o'yinini vujudga keltirgan. «Dil» so'ziga nuqta qo'yilsa *tuban ketish, tolesizlik* («zul»ning ma'nosi shunday) hosil bo'lganidek, ikki ko'ngilning hijroniga, iqbolsizligiga sening xoling sabab bo'ldi, demoqda oshiq. Bunda shoir yor xolini ta'rif manbaiga aylantirmay, aksincha, uning qora rangi bilan bog'liq ayriliq ma'nosiga alohida urg'u bergan.

Boshim uzra furqatning toshini ko'rsang bilgasen,
Nuqta zohir aylamish go'yo Navoiy uzra «nun».

[Navoiy 1989, 246].

Tavsifi: "Ey yor, sening hajring toshi boshim uzra qora dog' kabi bo'ldi, bu go'yo mening ismim ustidagi (ya'ni, «Navoiy» so'zidagi birinchi harfga ishora) belgining nuqtasi, ya'ni «nun» harfidan tashbeh yaratish vositasi sifatida ustalik bilan foydalangan: «Navoiy» taxallusidagi «nun» ن harfining nuqtasi oshiq boshi ustida aylangan hajr toshiga o'xshatilayapti. Shu bilan birga bayt mohiyatida so'z o'yini – o'z-o'zini inkor etish orqali fikrni yana bir karra kuchaytirish ham bor. «Navoiy» نوائى taxallusi «nun» ن harfi ustidagi nuqta bilan mukammal bo'lgani kabi oshiq qiyofasi ham unga yor «hadya etgan» hijron azobi bilan mukammaldir. By o'rinda shoir ishqning azaliy qismati ekanligiga ishora qilmoqda.

Erur xoling xayolidin oqarg'on ko'zlarim go'yo.
Quyubtur qilki sun' ul nuqtani ko'zlar qarosidin.

[Navoiy 1989, 357].

Ko'z oqarishi xushsizlikka, jonning tanani tark etishiga ishora. Shoir yorga bo'lgan samimiy sevgisini "Mening jon tark etgan ko'zlarim holing xayolidan, ruxsoring shavqidan qayta yorishadi", – deyish orqali bayon etgan. Bu bilan oshiq umri ma'shuqa yodi bilan ma'no kasb etadi, demoqchi shoir. Baytda bundan ham kuchliroq fikriy zarba bor: shoir yorga qarata «Sen mendan uzoqlashma, chunki sendagi xol mening ko'zlarim qorachig'idan bino bo'lgan. Mendan uzoq ketsang, ko'zlarimdan nur, tanamdan jon ketadi», – deydi. So'zning imloviy xususiyatidan kelib chiqib aytsak, agar *ko'z* *سوزو* so'zidagi "ze" *ز* harfi nuqtasiz yozilsa, u *ko'r* *سوروك* so'zi bo'ladi. Ana shu betakror fikr "xol" va "nuqta" tushunchalarini o'zaro qiyoslash asosida yuzaga chiqqan.

Chun dedim: «xoling bila ko'z mardumining xoli bor»,

Dedi ulkim «xol deysen, nuqtasiz ham xol erur».

[Navoiy 1989, 178].

Baytda shoir yor xolini ko'z mardumi (qorachig'i)ga o'xshatib, bu bilan avvalgi baytlarda nazarga tashlanganidek, ma'shuqa oshiq uchun ko'z qorachig'idek ardoqli va hayotbaxsh ekanligini yana bir karra ta'kidlaydi. Ammo baytning ikkinchi misrasida ma'shuqaning oshiq izhoriga javobi ham aks etgan. Harf san'ati imkoniyatidan foydalangan shoir ma'shuqa nutqini tashbeh bilan ziynatlash uchun tashif imkoniyatidan foydalanadi. Ma'shuqaning fikricha, oshiq izhorida mubolag'a bor. Chunki arab harflari orqali ifoda etilgan «dol» so'zida nuqta bo'lmaganidek, yor xolini qorachiqqa o'xshatishga ham hojat yo'q.

Literonomik qalb

"Qalb" arabcha so'z bo'lib, "o'zgarish, aksiga aylanish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu she'riy san'at haqida Atoullloh Husayniy shunday yozadi: "Qalb lug'atta teskari qilmoqtur va istilohta andin iboratturkim, kalomdagi bir lafzning, jumlaning barcha harflarin teskari qilurlar yoki alarning ba'zi harflarin teskari qilurlar yoki kalom ul tarzda bo'lurkim, ani teskari o'qusa ushul kalom hosil bo'lur». Demak, ulug' she'rshunos fikricha, bayt yoki misrada teskari o'qilganda talaffuz jihatdan ikkinchisining aksi bo'lgan so'zlarni qo'llash qalb san'ati deb yuritiladi [Husayniy 1981, 58].

Qalb so'z tarkibi, harflar tartibi va yozuvga aloqador san'at bo'lib, misra yoki baytda qo'llanishi jihatidan 4 guruhga bo'linadi: maqlubi kull, maqlubi ba'z, maqlubi mujannah va maqlubi mustaviy.

Qalb san'atining maqlubi kull turi bir-biriga teskari tarkibdosh so'zlarni qo'llash usulidir. Tarkibdosh so'zlardan birini teskari tarzda qo'llashi ikki so'z o'rtasida shakldoshlik, o'xshashlikni yuzaga keltiradi. Misol:

Ruhga lam'asidin nuru safo,
Tobidin hurga yo'q sayru xafo [Navoiy 1989, 407].

Tavsifi: "Shu'lasidan ruhga nuru rushnolik yo'q, haroratidan hurga na pinhon bo'lishga, na sayr etishga imkon yo'q." Baytdagi "ruh" روح va "hur" حور so'zlari tarkibdosh bo'lib, baytda ularni teskari qo'llash orqali qalb san'ati vujudga keltirilgan.

Vah, necha tortay ul oy dardu g'amin,
Yo g'amu dardi yo'q elling sitamin [Navoiy 1989, 247].

"Bevafo yorning dardu g'amini yutaymi yoki bedard haloyiqning sitamini chekaymi?" – deydi shoir bevafo yor va befarq haloyiq jabridan shikoyat qilib. Baytdagi «oy» va «yo» so'zlarining yozuvdagi holat tarkibdosh va teskari shakldoshdir. Ba'zan shoirning sof turkiy so'zlar asosida ham qalb badiiy san'ati yaratganligining guvohi bo'lamiz:

Quvvat ahliga hamovard kelib,
Lek dard ahliga hamdard kelib [Navoiy 1989, 431].

Baytda maqlubi kull ko'rinishi mavjudligini birinchi misradagi umumturkiy «kel» كیل so'zining keyingi misrada arabiy «lek» لیک tarzida qo'llanishi misolida kuzatish mumkin. Shoir baytda zaif, dardu g'amga muhtalo kishilarga ko'mak qo'lini cho'zish, hamdard bo'lish kerakligi haqida fikr yuritgan. Bu san'atning ikkinchi turi *maqlubi ba'z*dir. Bu san'at turiga Atoulloh Husayniy shunday ta'rif beradi: «Ba'zi harflarning tartibida bir oz ixtilof bo'lgan ikki yoki andin ortiq lafzni keltirmaqdur» [Husayniy 1981, 58].

Degach abjad boshiga evrulurlar
Qamar birla quyosh, ya'ni jadu ab [Navoiy 1989, 45].

Shoir *abjad* اجد so'zini o'zak qismlarga ajratganda "jadu" "ab" اب bo'ladi, ya'ni biri oy, biri quyosh – bobo va ota bo'lishini ta'kidlaydi. Bunda shoir abjad hisobi mantig'idan kelib chiqib, bu hisob bilan ish ko'rgan kishi oy va quyosh bilan, ya'ni bobo va ota bilan yuzma-yuz bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, yillar, vaqt hisob-kitobi bilan shug'ullangan kishi, shubhasiz, ajdodlar (ota-bobolar) bilan yuzma-yuz bo'ladi. Baytdagi "jadu" جد , "ab" اب

arabcha soʻz boʻlib, “bobo va ota” maʼnosini ifodalasa, “abjad” ا ب ج د soʻzi 8 ta minemonik (uydirma) soʻzning birinchisi va shu minemonik soʻzlar majmuining nomidir. Soʻz tartibi, tarkibi yoxud harflar tartibi bir xil boʻlgan soʻzning yozilishi bilan aloqador jihatlar, imloviy xususiyatlar (harflarning oʻrnini almashtirish) qalb badiiy sanʼatida namoyon boʻladi.

Literonomik tamsil

Tamsil arabcha soʻz boʻlib “misol keltirish, oʻxshatish” degan maʼnoni bildiradi. Baytning ilk misrasida ifodalangan fikrni dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan maʼnaviy sanʼatdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol oʻrtasidagi munosabat, mantiqiy aloqa koʻpincha qiyosiy yoʻnalishda boʻlib, shoir diqqati badiiy tafakkur bilan hayotiy voqelik orasidagi oʻxshashlikka qaratilgan boʻladi. *Tamsil* badiiy sanʼatida birinchi misrada aytilgan fikr ikkinchi misrada dalillanadi. Badiiyatda dalillash sanʼatining vazifasi juda katta. Y.Ishoqov tamsil sanʼatining ikki xil koʻrinishi mavjudligini qayd etadi:

1. Tamsiliy munosabat mazkur bogʻlanishning sababiy ildiziga ishora qiluvchi soʻzlar vositasida yuzaga chiqadi: *chunki, ne tong, ne ajab, negakim* (qisqargan formasi - *ki, kim*), *nedinkim* va hokazo.

2. Intonatsiya yoʻli bilan bogʻlanish. Tamsil sanʼatining haqiqiy namunasi hech qanday vositasiz tamsiliy bogʻlanishga daxldor misra yoki baytlarni yonma-yon qoʻyish orqali yuzaga keladi. Yevropa adabiyotshunosligida bu psixologik parallelizm deyiladi [Ishoqov 2006, 76]. Bu hodisa haqida Shams-i Qays quyidagilarni yozadi: “Bu istioraning misol yoʻllugʻ navidur, yaʼni shoir bir fikrga ishora qilmoqni istaganda oʻzga bir maʼnoni bildirguchi bir necha lafzni keltirur va ani maqsaddagi fikrning misoliga aylantirur va oʻz fikrin ushul misol bila ifoda qilur” [Husayniy 1981, 220]. Navoiy mazkur badiiy sanʼatdan keng foydalanib, yuksak badiiy lavhalar yaratgan. Misol:

Zulfining tobini mashshotadin ochmoq emas imkon,
“Dol” yo “lom” ni kim yozgʻon ekan, dafʼ ham aylab.

[Navoiy 1989, 35].

Baytda yor zulfi bilan harflarning yozilishi qiyoslanib, birinchi misrada yorqin badiiy tasvirga erishilgan. Yaʼni, maʼshuqa zulfining qayrilganlik holati harflarning yozilishiga koʻchirilgan. Baytda qoʻllangan tamsil sanʼati ikkinchi misradagi harflarning yozilishi hamda yor zulfi oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslangan.

Davr ham qildi qaddingni go'shaye tut aso
Negakim, dard o'qbo'lur, zohir alif yondoshsa *dol*.

[Navoiy 1989, 282].

Mazmuni: "Hayotning azoblaridan qadding bukilsa, hassaga tayangin. "Dol" د harfi bilan "alif" ا harfi yonma-yon keltirilsa, "dard" bo'ladi. Yonma-yon keltirilgan harflardan "do" د so'zi hosil bo'ladi". "Do" arabcha so'z bo'lib *dard* degan ma'noni bildiradi. Aytilganidek, mumtoz adabiyotda tik qomat "alif" harfiga, egik qomat esa "dol" harfiga qiyoslanadi. Har ikki harfdan hosil bo'lgan so'zdan esa jism egiladi. Qiyos o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik, mantiqiy bog'lanish va harfiy muvofiqlik tamsil san'atini vujudga keltirish uchun zamin bo'lgan. Bu o'rinda alif ا va dol د harflari ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llangan.

Literonomik tajnis

Tajnis jinsini, shaklini bir xil qilish, ya'ni jinsdoshlashtirish bo'lib ilmiy atama sifatida baytda ikki yoki undan ortiq shakldosh so'zdir.

Sharq mumtoz adabiyotshunoslaridan Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr fi-daqoyiq ush-she'r", Shamsuddin Roziyning "Al-mu'jam", Nosiriddin Tusiyning "Me'yorul-ash'or", Atoullloh Husayniyning "Badoyi'-us-sanoyi" asarlarida tajnis san'atiga katta o'rin ajratilgan. Tajnis yuqorida sanalgan adabiyotlarda turlicha tavsiflanadi. Masalan: "Xadoyiqus-sehr" asarida tajnis *tajnisi tomm* va *tajnisi noqisga* [Vatvot 1987, 53]. "Al-mo'jam" asarida *tajnisi tomm*, *tajnisi noqis*, *tajnisi murakkab*, *tajnisi mo'zdavaj*, *tajnisi mutarraf* va *tajnisi xattiga* [Roziy 1991, 64], "Me'yorul-ash'or" asarida *tajnisi tomm* va *tajnisi noqisga*, "Badoyi'-us sanoyi" asarida *tajnis lafziy* va *tajnisi g'ayri lafziyga* bo'linadi [Tusiy 1992, 86].

O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida tajnis xususiyatiga oid nisbatan mukammal ma'lumot Ahmad Taroziyning "Fununul-balog'a" asarida keltirilgan. Bu asarda badiiy san'atlarning 97 turi arab, fors-tojik va o'zbek shoirlari ijodi misolida tahlil etiladi [Tusiy 1992, 97]. Asarda tajnisni *tomm*, *zoyid*, *noqis*, *murakkab*, *mutarraf*, *mukarar* va *xatt* turlari xususida batafsil ma'lumot beriladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tajnis turli manbalarda turlicha tavsif etilgan. Tajnis turlarini aniqlash va ularni faktik materiallar bilan tasdiqlash shuni ko'rsatadiki, Navoiy she'riyatida uning 12 ga yaqin turi mavjud bo'lib, bu turlar haqidagi nazariy ma'lumot "Badoyi'-us sanoyi" asarida uchraydi. Unda so'zlarning tuzilishi, tarkibi, undoshlarning talaffuz xususiyatlari, so'zlarda tovush

orttirilishi, tushishi yoki almashinishi bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Tajnisi tommda ikki va undan ortiq so'zlar shaklan bir xil bo'lib, ammo ular boshqa-boshqa ma'nolarni anglatadi. Tajnisi tommning mustavfiy va mumosil turlari mavjud. Tajnisning bu turlari Atoullloh Husayniyning "Badoyi'-us sanoyi'" hamda Anvar Hojiahmedovning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" risolalarida izohlangan [Hojiahmedov 1998, 66-74].

So'z shakllarining o'xshashligi, ma'nolarining o'zgachaligi omonimik hodisadir. Tajnisi tomm omonim so'z, tajnisi zoyid omomorfema, tajnisi muzori' omofon, tajnisi xatti va noqis omograf, tajnisi murakkab omofoma, tajnisi muvvasahlar omofonlarga aloqadordir. Tajnisi noqisda 2 ta, ya'ni omografiya va omofoniya hodisalari uchraydi. Endi sanab o'tgan tajnis turlarini har biri ustida alohida-alohida to'xtalamiz.

Tilda so'zlar xilma-xil xususiyatlarga ega bo'ladi. Ma'lum bir tushunchani yoki tasavvurni bir so'z emas, balki bir necha so'z ham ifodalab kelishi va aksincha, birgina so'z orqali bir necha tushuncha yoki tassavur ifodalanib, turli ma'no anglashilishi mumkin. Omonimlar badiiy ijodda tasvir vositalaridan biri sifatida ishlatiladi va shu yo'l bilan o'ziga xos so'z o'yini (tajnis) hosil qilinadi. Ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil ikki so'zni keltirish, ular vositasida muayyan fikr lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash tajnisga xos xususiyatdir. Omonimlar tajnis san'atining asosini tashkil etadi. Ular bir so'z turkumi yoki turli so'z turkumi doirasida voqe' bo'ladi.

Bir so'z turkumi doirasida omonimlar tajnisi mumosil deb atalsa, bir necha so'z turkumiga tegishli omonimlar ilmi bade'da *tajnisi mus-tavfiy* deb nomlanadi. Buni Atoullloh Husayniy quyidagicha izohlaydi: "Ba'zi arab fusahosi bir so'z turkumiga oid bo'lgan ikki shakldoshdin, ya'ni ikki ism yoki ikki fe'l yoki ikki ko'makchidan iborat tajnisi tommni ikki shakldoshning mumasaloti va alarning turkumdoshligi jihatidin tajnisi mumosil deb atabturlar. Bir turkumga oid bo'lmagan, ya'ni ismi fe'l, ismu ko'makchi, fe'lu ko'makchidin iborat ikki shakldoshtin iborat tajnisi tommni ikki turkumdagi so'zlardin istifoda etilgani uchun tajnisi mustavfil derlar". Alisher Navoiy ijodidan tajnisi tommning xilma-xil namunalarini uchratamiz.

Kulma ham qadimg'akim, yuklansa ishqing qof aro,
Ishq ostida yozilhon "qof" dek ham topqasen.

[Navoiy 1989, 382].

Baytdagi "qof" I ot, tog' nomi; "qof" II ot, harfning nomi (*ishq*

soʻzidagi oxirgi harfga ishora qilingan). Koʻrinib turibdiki, jinsdosh soʻzlar tarkib, talaffuz jihatidan bir xil, ammo maʼnolari turlichadir. Demak, tommning *mumosil* turi bir soʻz turkumidagi soʻzlarning omonimik munosabatiga asoslangan. Shuningdek, Alisher Navoiy lirikasida *tajnisi mustavfiy* turi ham uchraydi:

Ey Navoiy, demakim qilmasen ul oy ashk.
Hozir ul emdi, metay, hozir oʻlub chun qildi

[Navoiy 1989, 360].

Baytdagi “hozir” حاضر soʻzlari hamjinsdir, ammo soʻzlardagi urgʻu turli boʻgʻunlarga tushgan. “Hozir” I shu vaqt; shu zamon, hozir; “hozir” II tayyor; huzurida bor, degan maʼnolarni anglatadi.

Ey Navoiy muʼtaqidsen, qayda koʻrsang pok yuz.
Yuz kishida yoʻq ekan, bir sen kibi pok eʼtiqod.

[Navoiy 1989, 66].

Baytdagi “yuz” يوز soʻzlari shakldosh: “yuz” I ot, chehra, aft, bashara; “yuz” II son, miqdor maʼnosini ifodalaydi.

Tajnisi noqis

“Noqis” arabcha soʻz boʻlib, nuqsonli, kamchiligi bor, degan maʼnoni anglatadi. Tarkibidagi harflar soni, turi va yozilish tartibi bir xil boʻlib, talaffuzi esa farqli boʻlgan shakldosh soʻzlarni qoʻllashga asoslangan sanʼat tajnisi noqis deb yuritiladi. A.Husayniy bu sanʼat turini: “Ani tajnisi muxtalif va tajnisi muharraf derlar. Ul lafzning harflar turi va tartibida muvofiq boʻlib, xarakotu sukunot, tashdidu taxfif, maddu qasrdin hosil boʻladigan shaklda turlicha boʻlmogʻidin iborattur” – deb taʼriflaydi.

Bu turda yozuv, imlo asos qilib olinib, unilarning tushishi va ikki shakldosh soʻz tarkibidagi undoshlarning aynan bir xil boʻlishi nazarda tutiladi. Imloning bu jihatlari badiiyatda chiroyli soʻz oʻyinlarini hosil qilishga xizmat qiladi. Alisher Navoiy sanʼatiing bu turidan unumli foydalanib, yuksak badiiyat namunalarni yaratgan. Misol:

Raqibu vasl noʻshi menu hijron neshi, vah rahm et.
Oni hamki gahi oʻltur, meni hamki gahi tirlgul.

[Navoiy 1989, 116].

Baytdagi “nesh” va “noʻsh” soʻzlari arab imlosida bir xil yozilsada, biroq ular turli xil talaffuz etiladi. Unli tovushlardagi mana shu farq nuqsonli deb yuritiladi.

Qoʻydi gulgun muhrlar jon pardasida qon ila.

Vahki, solur mehri yo gulmu ekin dastorida.

[Navoiy 1989, 84].

Baytdagi “mehr” مهر va “muhr” مهر so‘zlari uch undosh asosiga yoziladi. So‘z shakllari bir xil, ammo harakatlarida farq bor xolos. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov bu turni *tajnisi muxarrif* deb ko‘rsatadi [Sarimsoqov 1971, 85]. A.Husayniy esa tajnisning bu turini *muxtalif* va *muharraf* deb ataydi.

Tajnisi xatti

Tajnisi xattida so‘zlarning arab imlosida nuqtalardan tashqari to‘la mosligi, ya‘ni baytdagi ikki so‘zning bir belgi asosidagi harflardan tashkil topishi nazarda tutiladi.

Oshuq o‘ldum, bilmadim, yor o‘zgalarga yor emish.

Olloh-olloh ishq aro mundoq balolar bor emish

[Navoiy 1989, 151].

Baytdagi qofiyadosh “yor” يار va “bor” بار so‘zlarining yozilishiga diqqat qilinsa, “yo” va “be” bir belgi asosida yoziladi, biroq ular nuqtalarning soni jihatidan farqlanadi.

Chun qo‘yarmen ul jahon oroyishi bazmiga yuz.

Aysh bazmin, sokiyo bog‘i jahon oroda tuz [Navoiy 1989, 117].

Baytdagi “yuz” يوز va “tuz” توز so‘zlari qofiyadosh sanaladi. So‘zlardagi birinchi harflarni yozilishiga z‘tibor qaratilsa, “te” va “ye” tovushlari uchun bir xil belgi asos hisoblanadi. Darhaqiqat, arab va fors harflari 16 shakldan iborat bo‘lib, shu belgilardan 32 ta harf yasaladi. Yuqoridagi misollarimizdan ko‘rinib turibdiki, o‘xshash belgilar asosida (nuqtalarning o‘rni va soni hisobga olinmasa) shakldosh harflar yuzaga kelib, poetikada tajnisi xatti ataluvchi hodisani yuzaga keltiradi.

Xulosa

Literonimlarning she‘riy san‘at tizimida qo‘llanilishining tadqiqi natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Literonimlar she‘riy san‘atlarning istiora, tashbih, tashif, qalb, tamsil, tazod va tajnisning bir necha turlarida juda keng qo‘llaniladi. Ular o‘z ma‘nosida ma‘lum bir harfga, ko‘chma ma‘noda esa insonning turli uzvlariga ishora qilib kelgan.

2. Navoiy she‘riy asarlaridagi literonimlarning ko‘chma ma‘nolari kitobxonlarning fikrlash qobiliyatini va estetik didini o‘stirishga xizmat qilishini to‘g‘ri anglagan. Shu bois u o‘z

asarlarida badiiy san'atning harflar bilan bog'liq deyarli barcha turlarida literonimlardan keng foydalangan. Shoir o'zidan oldingi ijodkorlarning harfiy badiiy san'atdan foydalanish an'analari bilan cheklanib qolmay, uni boyitdi va takomillashtirdi.

3. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, literonimlardan *alif, dol, nun, yo, qof, ayn, jim, sin, mim* ʔ kabi harf-literonimlar ko'chma ma'no hosil qilishda sermahsul ekanligi ma'lum bo'ldi. Alisher Navoiy badiiy asarlarida: a) *alif* harfi oltita ko'chma (*tik qomat, bir raqami tushunchasi, kiprik, barmoq, xol, Alloh, besavodlik*) ma'noda; b) *dol* harfi to'rtta majoziy (*egik qomat, gajak, dalolat qiluvchi, yo'l ko'rsatuvchi*) ma'noda; v) *jim* ʔ harfi bitta ko'chma (*zulf*) ma'noda; g) *lom* harfi bitta ko'chma (*yor gajagi*) ma'noda; d) *mim* ʔ harfi ikkita ko'chma (*yorning og'zi, ilonning dami*) ma'noda; ye) *yo* ʔ harfi ikkita ko'chma (*egilgan qomat, yorning qoshi*) ma'noda; yo) *nun* harfi ikkita ko'chma (*egilgan qomat, yorning qoshi*) ma'noda; j) *sin* harfi ikkita ko'chma (*tish, baliqning parrasi*) ma'noda qo'llangan.

4. Literonimlar, asosan, badiiy obrazning tashqi ko'rinishini tasvirlash vositasi sifatida juda keng qo'llanilgan. Harfiy san'at vositasida yorning ruhiy holati va ichki olamini aks ettirish nisbatan oz uchraydi.

5. Alisher Navoiy so'zni ko'chma ma'noda qo'llashda o'ziga xos bir yo'nalish, uslub yaratgan ijodkordir. Arab alifbosidagi harflarni ko'chma ma'noda qo'llash borasidagi mahorati, ayniqsa, alohida diqqat-e'tiborga molik. Bu borada shoirning barcha badiiy asarlarida ko'chma ma'no kasb etgan arabiy literonimlarni keng ko'lamda qo'llashi diqqatga sazovor bo'lib, u o'zidan oldingi ijodkorlar asarlaridagi ko'chma ma'noda qo'llangan arabiy harf nomlarini an'anaviy tarzda qo'llash bilan cheklanmasdan, uni boyitdi va takomillashtirdi.

Adabiyotlar

- Айний, С. 1963. *Куллиёт. Жилди II. Китоби якум. Душанбе: Дониш.*
 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. III жилд. Тошкент: Фан.
 Алишер Навоий. 1989. *Бадойиъ ул-васат*. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Бешинчи том. Тошкент: Фан.
 Алишер Навоий. 1989. *Наводур уш-шабоб*. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тўртинчи том. Тошкент: Фан.
 Алишер Навоий. 1990. *Фавойид ул-кибар*. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Олтинчи том. Тошкент: Фан.
 Алишер Навоий. 1988. *Фаройиб ус-сиғар*. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Тошкент: Фан.
 Ватвот, Рашиддин. 1987. *Мунтахаби "Таржимонул балоға" ва Хадойиқ*

- ус сеҳр фи дақойиқуш-шеър. Душанбе: Дониш.
Исҳоқов, Ё. 2006. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Заркалам.
Носириддин, Тусий. 1992. *Меъёр ал-ашъор*. Душанбе: Ориёно.
Розий, Қ. 1991. *Ал муъжам фи-маоирул ашъорул ажам*. Душанбе: Адиб.
Рустамов, А. 1979. *Навоийнинг бадиий маҳорати*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
Саримсоқов, Б. *Тажнис*. Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти.
Тарозий, А. 2002. *Фунун-ул болоға*. Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти.
Шайхзода, М. 1972. *Ғазал мулкининг султони*. Асарлар. 6 томлик. 4-том. Тошкент: Фан.
Ҳайитметов, А. 1959. *Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари*. Тошкен: Фан.
Ҳожиаҳмедов, А. 1998. *Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия*. Тошкент: Шарқ.
Ҳусайний, А. 1981. *Бадоеъус-саноеъ*. Тошкент: Фан.

Linguistics of literary names in Navoi's works

Mavluda Sharipova¹

Abstract

In the article, it is proved with relevant examples that artistic arts are the main factor determining the level of the work, the artistic thinking power and skill of the creator, the linguistic tools that create these arts are identified, the opinions are expressed about spiritual, verbal and spiritual-verbal arts based theoretically in Eastern literary studies, these artistic arts in the system, the place and importance of literary art is defined, the lexical-artistic features of literonyms in Alisher Navoi's poetic works are revealed, its literonomic metaphor, literonomic allusion, literonomic tazad, literonomic tasif, literonomic heart, literonomic simil, literonomic tajnis, tajnisi tomm, tajnisi imperfect, the role of tajnisi in the realization of artistic arts such as performance is determined, the skill of the poet in creating artistic arts using this literary name is proved with relevant examples, the place in the development of artistic arts is partially defined based on this literary name.

Key words: literonym, linguopoetics, letter, art, literature, simile,

¹ *Mavluda B. Sharipova* - doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, Turon Zarmed University.

E mail:

ORCID ID:

For citation: Sharipova, M. 2023. "Linguopoetics of literary names in Navoi's works". *Golden scripts* 3: 122-142.

metaphor.

References

- Ayniy, S. 1963. *Kulliyot*. Jildi II. Kitobi yakum. Dushanbe: Donish.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. III jild. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1989. *Badoyi ul-vasat*. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1989. *Navodur ush-shabob*. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. *Favoyid ul-kibar*. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1988. *G'aroyib us-sig'ar*. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Uchinchi tom. Toshkent: Fan.
- Vatvot, Rashiddin. 1987. *Muntaxabi "Tarjimonul balog'a" va Xadoyiq us sehr fi daqoyiqush-she'r*. Dushanbe: Donish.
- Ishoqov, Yo. 2006. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: Zarkalam.
- Nosiriddin, Tusiy. 1992. *Me'yor al-ash'or*. Dushanbe: Oriyoono.
- Roziy, Q. 1991. *Al mu'jam fi-maoirul ash'orul ajam*. –Dushanbe: Adib.
- Rustamov, A. 1979. *Navoiyning badiiy mahorati*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Sarimsoqov, B. *Tajnis*. Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti.
- Taroziy, A. 2002. *Funun-ul balog'a*. Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti.
- Shayxzoda, M. 1972. *G'azal mulkingning sultoni*. Asarlar. 6 tomlik. 4-tom. Toshkent: Fan.
- Hayitmetov, A. 1959. *Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari*. Toshken: Fan.
- Hojiahmedov, A. 1998. *She'riy san'atlar va mumtoz qofiya*. Toshkent: Sharq.
- Husayniy, A. 1981. *Badoye'us-sanoye'*. Toshkent: Fan.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transleteratsiyasini berish ham mymkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mymkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr

sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 09. 2023-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62